

7AB.5

Q.81

Qutlimuratov I.X

**SPORT PEDAGOGIK MAHORATINI
OSHIRISH
(FUTBOL)**



7A8.5
Q-81
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI



Qutlimuratov I.X

SPORT PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH (FUTBOL)

**(FUTBOLNING RIVOJLANISH TARIXI MUSOBAQALARNI
TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH. HAKAMLIK QILISH
USLUBIYATI)**

O'quv qo'llanma

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
2021- yil 23- noyabr dagi 500-sonli buyrug'iga asosan
5610500 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)
bakalavriat ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar
uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.

Ro'yxatga olish raqami 500 – 194.

O'zDJTSU - CHIRCHIQ-2022



Qutlimuratov I.X «**Sport pedagogik mahoratini oshirish**»
(Futbol) (Futbolning rivojlanish tarixi musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish. hakamlik qilish uslubiyati) [O'quv qo'llanma]. - Chirchiq: O'zDJTSU, 2022. - 172 bet

Taqrizchilar:

J.A.Akramov – pedagogika fanlar nomzodi, professor.

Sh.U.Abidov – pedagogika fanlar nomzodi, dotsent.

Annotatsiya

O'quv qo'llanma O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti uchun "Sport pedagogik mahoratini oshirish (futbol)" fani dasturi asosida tayyorlangan.

O'quv qo'llanmada futbol o'yining rivojlanish tarixi, futbol sport turida musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish va hakamlikni olib borish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Bunda asosan musobaqa qoidalari, musobaqa nizomi va o'yin qoidalari xamda hakamlikni tashkil etishga doir ma'lumotlar zamonaviy futbol qoidalaridagi o'zgarishlarni inobatga olgan xolda to'liq ochib berishga harakat qilingan.

Аннотация

Учебник основан на программе «Повышение спортивно-педагогического мастерства (футбол)» для Узбекского государственного университета физкультуры и спорта.

В учебнике представлена информация об истории футбола, организации и проведении футбольных соревнований и судейства. Предпринимались попытки полного раскрытия правил соревнований, правил соревнований и правил игры, а также информации об организации судейства с учётом изменений в современных футбольных правилах.

Annotation

The textbook is based on the program "Improving sports pedagogical skills(football)" for the Uzbek State University of Physical Education and Sports. The textbook provides information on the history of football, the organization and conduct of football competitions and refereeing. Attempts were made to fully disclose the rules of the competition, the rules of the competition and the rules of the game, as well as information on the organization of refereeing, taking into account changes in modern football rules.

© O'zDJTSU.2022

© Qutlimuratov I. S 2022

KIRISH.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash kelajagi buyuk davlat poydevorini qurish, dunyoda o'zimizga yuksak obro' egallash demakdir.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida aholi keng qatlamini, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga jalb qilish maqsadida yaxlit infratuzilma yaratildi, zamonaviy talablarga javob beradigan ko'plab ob'ektlar barpo etilib, ulardan samarali foydalanish yo'lga qo'yildi. O'zbekiston yirik xalqaro musobaqalar, xususan, boks, taekvondo, erkin kurash, qilichbozlik va boshqa sport turlari bo'yicha jahon va Osiyo chempionatlari o'tkaziladigan mamlakatga aylandi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2002 yilda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilishi sog'lom avlodni jismoniy jihatdan baquvvat qilib tarbiyalashda muhim qadam bo'ldi. O'tgan davr mobaynida ushbu jamg'arma mablag'lari hisobidan 1701 sport inshooti barpo etildi, ularda zamonaviy talablarga javob beradigan mustahkam moddiy-texnik va kadrlar bazasi jamlandi. Bular, shak-shubhasiz, sport bilan shug'ullanishni ommalashtirishga, bolalar salomatligini mustahkamlashga, xalqaro arenalarda yoshlarimizning yuqori natijalarni qo'lga kiritishiga, Vatanimiz nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Qolaversa, mutlaq sog'lom bolalar soni 2014 yilda 64,5 foizga yetdi. Vaholonki, 2005 yilda bu ko'rsatkich 52,7 foizni tashkil qilar edi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun mustaqil davlatchiligimizda qabul qilingan ilk hujjatlardan hisoblanadi. O'zbekiston 1993 yilda Xalqaro olimpiya qo'mitasi, qator sport federatsiyalariga a'zo bo'ldi. Terma jamoamiz Olimpiada o'yinlari, jahon chemionatlarida mustaqil O'zbekiston Respublikasi bayrog'i ostida qatnasha boshladi.

O'tgan yillar davomida yurtimiz sporti jadal rivojlandi. Bugungi kunda vakillarimiz eng nufuzli musobaqalarda mamlakatimiz sha'nini munosib himoya qilib kelishmoqda. Ularning tayyorgarlik va mahorati sezilarli darajada oshdi. Sport amalda ommaviy harakatga aylandi. Hozirgi kunda ikki million nafardan ortiq yigit-qizlarimiz sport bilan muntazam

shug'ullanmoqda.

Yangi tahrirdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning sifat jihatdan mutlaqo yangi huquqiy asoslarini yaratadi. Deputatlar va soha mutaxassisleri ushbu huquqiy hujjatning mazmun-mohiyati va ahamiyati xususida o'z fikrlari bilan o'rtoqlashishdi.

"Futbol - millionlar o'yini" bu naql azal azaldan ongimizga singib ketgan. Hozirgi kunda esa "millionlar" so'zini "milliardlar" bilan almashtirishimiz ham mumkin. Darhaqiqat bu sport turi asrlar mobaynida sayqal topib hozirgi kungacha yetib keldi. Bu yo'lda esa u milliardlab muxlislariga ega bo'ldi. Futbol millionlab muxlislar uchun o'ynaladi. Osmon o'par stadionlar ham muxlislar bilan to'lgan taqdirdagina barchani lol qoldiradi.

Yurtimizda futbolga qiziqish boshqa sport turlariga qaraganda ancha yuqori.

Istiqbolli va iqtidorli futbolchilarni tanlash va tayyorlashning samarali tizimini yaratish, milliy terma jamoalar va professional futbol klublari uchun sifatli sport zaxirasini shakllantirish, xalqaro talab va standartlar asosida futbol bo'yicha trener va hakamlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5368-son Farmoniga muvofiq "Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 martdagi PQ-3610-son qarori chiqdi.

So'nggi yillarda xalqimizning salomatligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, millionlar o'yini bo'lgan va mamlakatimizda alohida o'rin tutadigan sportning futbol turiga aholini, ayniqsa yoshlarni keng jalb etish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizda yuqori iqtidorga ega bo'lgan yosh futbolchilarni tanlash, saralab olish (seleksiya) tizimi va futbol infratuzilmasini yanada rivojlantirish, futbol bo'yicha sport maktablari faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, soha mutaxassislarini tayyorlash va ularni moddiy rag'batlantirish tizimini yaxshilash, o'tkazilayotgan musobaqalar

saviyasini yuksaltirish kabi masalalar dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda futbolni aholi o'rtasida eng ommaviy sport turiga aylantirish, yuqori iqtidorga ega bo'lgan yosh futbolchilarni tanlash, saralab olish va ularni professional sportchilar sifatida tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, mamlakat futbolini rivojlangan mamlakatlar bilan raqobat qila oladigan darajaga yetkazish, xalqaro talab va standartlar asosida futbol bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, futbol klublari faoliyatini rivojlantirish, terma jamoalar uchun o'quv-mashq jarayonini samarali tashkil etish, mamlakatimizda futbol bo'yicha yirik xalqaro musobaqalar, jumladan, o'smirlar, yoshlar va xotinqizlar jamoalari o'rtasida jahon va qit'a birinchiliklarini o'tkazish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 dekabrda PF-5887-son farmoni chiqdi.

Futbolimizni rivojlanishida xukumatimiz tomonidan berilayotgan bunday e'tiborlar futbolimizni yangi bosqichga olib chiqishi ishonamiz.

Futbol Yevropa, Janubiy Amerilea, Lotin Amerikasi davlatlarida, Afrika va qisman Osiyo qit'asida mashhurligining eng cho'qqisiga yetgan. Ko'pgina davlatlarda futbol ushbu mamlakatlar madaniyatining bir bo'lagi hisoblanib, milliy fikr-ehtirom ob'ekti sifatida butun dunyoda futbolga berilayotgan katta e'tibordan dalolat beradi.

Futbol dunyodagi eng mashhur jamoaviy o'yin bo'lib, unda hatto eng kam ochlto uchun ham kurashish kerakdir. Hozirga qadar ko'pchilik futbolning vatanini Angliya deb o'ylashadi, ammo bu unchalik to'g'ri filer emas. Aniqrogfi, juda ham noto'g'ri filer. Haqiqatda "oyoq to'pi" tarixi bir necha yuz yillarni o'z ichiga olib, leo'p mamlakatlarni qamrab olgan.

O'quv qo'llanmada keltirilayotgan ma'lumotlar futbol bilan shug'ullanadigan mutaxassislar, murabbiylar, oliy o'quv yurtlarining va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining sport o'qituvchilari, qolaversa, butun futbolni yaxshi ko'radigan va ushbu sport bilan shug'ullanadigan, qiziqadigan kelajak avlod foydalanishi mumkin.

I BOB. FUTBOLNI RIVOJLANISHNING DASTLABKI BOSQICHLARI.

Futbolning kelib chiqishi haqida turli axborotlar, ma'lumotlar, taxminlar mavjud, biroq ularning barida turli sanalar, davrlar keltirilgan. Tarix hali futbolni paydo bo'lgan va kelib chiqqan joyi va sanani aniq bilmaydi. Bu esa futbol ildizi o'ta qadim zamonlarga borib taqalishidan darak beradi.

Lekin ko'plab izlanishlar natijasi hamda tarixshunoslarning fikricha, futbolga o'xshash to'pli o'yinlar necha-necha yuzlab yillar avval qadim sharq mamlakatlarida (Misr, Xitoy), antik davlatlarda (Gretsiya, Rim) o'ynalgan.

1.1. Qadimgi futbol o'yini haqida ma'lumotlar.

Eng qadimiy manba - bu Xan sulolasining solnomalari bo'lib, bu sulola qadimiy Xitoyda hulemronlik qilgan. Bu solnomalar 2000 yillile tarixga ega. To'p tepishga o'xshaydigan va o'ynaladigan o'yin - Tsu Chu (qadimgi Xitoyda miloddan oldingi 250- yilda paydo bo'lgan).

"Tsu" - oyoq bilan to'pga zarba berish degan ma'noni anglatrsa, "Chu" esa "havo berilgan charm to'p" deb tarjima qilinadi. Solnomadagi yozuvlarda aytilishicha, bu o'yin imperator tug'ilgan kuni sharafiga o'ynalgan. "Tsu - Chu" o'yinida kichkina tirqishga, ya'ni darvozaga to'p kiritish talab etilgan, Darvoza sifatida bambuk tayoqchalarini vertikal holatda qo'yib, tirqish kattaligi 30-40 santimetr diametrda past bo'lib, 9 metr balandlikda joylashgan bo'lib to'pni 9 metr balandlikda 30-40 smli teshikdan otkazish kerak edi. Ko'rib turganingizdek, bu o'yinni o'ynash uchun kishi ma'lum bir qobiliyat egasi bo'lishi kerak, aks holda darvozani ishg'ol eta olmaydi.

Tsin sulolasi davrida (miloddan avvalgi 255-206 yillar) Tsu - Chu o'yini, asosan, askarlarga o'rgatilgan. Xan sulolasi davriga kelib (miloddan avvalgi 206 yil, milodning 220 yillari) Tsu - Chu keng yoyilib, ommaviy o'yin ruriga aylangan. o'sha davr solnomalarida Tsu - Chu nomi bilan ataigan mashg'ulotlar yig'indisi haqida ushbu o'yin tasvirlanadi. Bu mashg'ulotlar pat va jun bilan to'ldirilgan charm to'pli mashq turlarini o'z ichiga olgan, Tsu - Chuga o'xshash o'yinlar ham bo'lgan, ularning har

birining maqsadi raqib o'yinchilariga to'p kiritishga imkon bermaslik edi, bu maqsadda oyoqdan tashqari tananing barcha qismidan foydalanishga ruxsat etilgan.


Yaponiyada ham futbolga o'xshash o'yin bo'lgan. Bundan 1400 yil oldin, tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, milodning 300-600 yillarida yaponlar "Kemari" (ayrim ma'lumotlarda "Kenatt") nomli o'yinni ixtiro qilishgan, o'yinda sakkiz nafargacha kishi qatnashgan, to'pning diametri 5 sm bo'lib, yumshoq charm bilan qoplangan va ichi qchizimchaliq bilan to'ldirilgan. O'yinchi to'pni erga tegizmasligi kerak edi, u to'pni havoda jamoadoshiga yetkazib berib yoki bo'lmasa havoda oyoqda tepib turib saqlashi zarur bo'lgan. "Kemari" o'ynaladigan maydon "Kikutsubo" deb atalgan.

"Ki- kutsubo" maydon shakli to'g'ri to'rtburchak shaklda bo'lib, burchaklarida yosh daraxtlar ekilardi. Yaponlarda o'yinda ishlatadigan o'ziga hos so'zlari bor edi, masalan: to'p o'yinga kiritilganda o'yinchi "Ariyaaaa!" ("ket- dik") deb qichqirsa, o'yinchilar to'pni jamoadoshlariga uzatganda "Ari!" ("mana") deb qichqirishardi.

XX asr bilan XVI asr oralig'i "Kemari" o'yining oltin asri bo'ldi. O'yin aholining oddiy qatlami orasida ham mashhur bo'lib, bu o'yin shoir, yozuvchilarni ijod qilishga umdar edi. Yapon solnomalarida aytilishicha, bir imperator o'z jamoasi bilan to'pni ming zarba bilan havoda ushlab turgan va o'yindan so'ng yashirilgan shu to'p uchun imperatorning shaxsan o'zi shu to'pga unvon hadya etgan. XIII-XIV asrdan boshlab "Kemari" o'yini uchun maxsus kiyim ishlatila boshlandi. "Kemari" o'yinchilari uzun engli kiyim kiyishgan. Hozirgi vaqtda ham Yaponiya mamlakatida "Kemari" o'ynaydiganlar topiladi. Asosan bu o'yinni urf - odatlarini saqlab qolishni istagan ishqiboziar o'ynashaai.

Markaziy Amerikada to'p bilan o'ynaladigan o'yinlarning tarixi miloddan avvalgi 1600 yilga borib taqaladi va bu o'yin "Pok-A-Tok", ya'ni ("Paso de la Amada") deb nomlangan. "Paso-de-la-Amada" o'ynash uchun mo'ljallangan maydonlar 150 yil davomida kengayib borgan va takomillashgan. Bu maydonlar uzunligi 80 metr. eni tor, tekis bo'lib, atrofida o'rindiqlar bo'lgan. Olimlar fikriga ko'ra, bu inshoot butun Amerika bo'ylab yoyilgan

bo'lib, o'zaro chambarchas bog'langan inshootlarni o'zida mujassamlashtirgan maydonning bir bo'lagi bo'lgan.



Devor va so'pol idishlardagi rasmlar, tasvirlar asosida, arxeologlarning filaicha, qadimiy o'yin hisoblangan "Pok-A-Tok" ("Paso de la Amada") Amerikani bosib olgan ispan konkistadorlari qoldirgan 1519 yildagi hujjatlarda nomi tilga olingan "Tlachtli o'yini"ga o'xshash bo'lib, o'yin maydoni "I" shakliga ega bo'lgan ikki yotqizilgan devorga to'g'ri burchak ostida uchta aylana plitalar o'rnatilgan. Ular "markerlar" deb atalgan. Agar to'p markerga tegsa yoki aylana ichidan olib o'tilsa gol hisoblangan. "Markerlar" va aylanalalar yerdan taxminan 9 m gacha balandlikda joylashgan. O'yinchilar diametri 10-15 sm bo'lgan rezina to'plarga faqatgina tirsaklari, tizzalari va bellari bilan tegishlari mumkin bo'lgan. Gol shunchalik katta yutuq bo'lganki, hatto gol urilgandan so'ng o'yinlar tugar edi. Tadqiqotchilar fikrlarga ko'ra, "Pok-A-Tok" ga o'xshash o'yinlar siyosiy, diniy va ijtimoiy hayotda "Mokayya" (tarjima qilinganda "makkajo'xori odamlari") xalqlarida katta ahamiyatga ega bo'lib, ular, ya'ni "Mokayya"lar taxmin qilinishicha, "Ol'mek" va mayya xalqlarining ajdodlari hisoblanishgan.

O'sha paytlarda mavjud bo'lgan to'p bilan o'ynaydigan o'yinlar oddiy badantarbiyasidan gohida o'rtada (konga) katta narsalarni qo'yib o'ynaydigan o'yinlar darajasid tugar edi. Gohida magdub bolgan jamoa sardorining boshi tanasidan judo qilinib, g'olib jamoa vakillarini qahramon deb e'lon qilishgan. Ol'meklar zamonida (taxminan miloddan 1200 vil oldin) kuch-qudratli kishilarni boshlariga charmli shlem kiygan to'p

o'ynovchi o'yinchilar sifatida tasvirlashgan. Bir antropologiya fani professori "Bu shlemlarga vaqtning o'zida ham sport anjomi ham urush uchun kiyiladigan bir himoya vositasi sifatida qaralar edi", - deb o'z sharhini bergan.



U o'z so'zini davom ettirib, shunday deydi: "Qadimda buyuk jangchi, futbol o'yinchisi va yo'lboshchi o'rtasida unchalik katta farq bo'lmagan". Miloddan avvalgi 900-250 yillarda mayya qabilalari vakillari "Pok-A-Tok" o'yinini to'liq o'zlashtirishgan. Atsteklar bo'lsa "Pok-A-Tok"ning: o'zlari uchun hos bo'lgan usulini va qonun qoidasini ishlab chiqishgan (milodning 1200-1521 yillarida).

Ma'lum bodishicha, Shimoliy Amerika hindularining ham oyoq bilan tepib o'ynaladigan o'yini bo'lgan va u "pasuckuakohowog" deb nomlanib tarjima qilinganda u "ular oyoqlari bilan to'p o'ynashgani uchun yig'ilishgan ma'nosini bildiradi. O'yinlar XVII asrlar boshida o'tkazib, bir-biridan 2 kmli masofada joylashgan, kengligi 1 km keladigan darvozalarda otkazilgan. "Rasuckuakohowog" o'yinida 1000 tagacha ishtirok etgan.

Ko'p hollarda o'yinchilar qo'pol va shikast yetkazadigan darajada o'ynashgan. o'yinchilar turli xil taqinchoqlar kiyishar va badanlariga turli xil bo'yoqlarni surtishar va shu sababli o'yindan

so'ng o'yinchilar raqiblaridan o'yindagi jarohat uchun bir-biridan o'ch olisha olmas edi, chunki raqiblarda bir-birini topish imkoni yo'q edi.

O'yinlarni yakunlash uchun kevingi kunga ko'chirish odatiy hoi bo'lib, o'yingach, uning yakunlanishi o'yin-kulgu bilan nishonlangan.

"Askaktuk" o'yini esa unchalik mashhur emas, uni eskimoslar o'ynashgan. Ular o't va karibu (kanadalik bug'u turi) juni bilan to'ldirilgan og'ir to'pni "Askaktuk" o'yinini o'ynashgan. Rivoyat qilishlaricha, bir kuni ikki qishloq vakillari o'zaro "Askaktuk" o'yinini o'ynashganda, darvozalar bir-biridan 30 km uzoqlikda joylashgan ekan.

Avstraliyada to'plar kisali kemiruvchilar terisidan, yirik hayvonlarning siydik qovuqlaridan, to'qilgan sochlardan qilinib o'ynalgan o'yinlar, ya'ni Avstraliyada o'ynalgan futbol o'yinlarining qonun - qoidasi bizgacha yetib kelmagan.

Qadimgi Misrda to'p bilan o'ynash o'yinlari boshqa davlatlarga nisbatan ancha oldin mavjud bo'lgan. Ya'ni, miloddan 2500 yil oldin katta bo'lmagan Misrda topilgan "artefak"lar shundan dalolat beradiki, o'sha davrda Misr hududida futboiga o'xshash o'yin mavjud bo'lgan.

Qadimgi Gretsiyada to'p bilan o'yin o'ynash kamida miloddan avval IV asrdan boshlangan. Rivoyatlariga ko'ra, Erosga birinchi to'pni ma'buda Afrodita berib, shunday degan: "Men senga ajoyib o'yinchoq beraman, bu tezyurar shardir, bundan yaxshisini hatto Gefesdan ham topa olmaysan". To'pni maqsadga qarab Quyosh, Oy va Yerga ham o'xshatish mumkin.

Futbolni eslatadigan va unga o'xshash to'pli o'yinlar, qadimdan ko'plab xalqlar orasida ma'lum bo'lgan.

Qadimgi Xitoy va Yaponiya yozuvlari manbasida ularni topish va uchratish mumkin. Qadimgi Misr firavnlari va qadimgi Gretsiya barelefiari dahma (sag'ana)larida "futbol syujetlari" tasviri topilgan. Bular o'yinlar nafaqat ko'ngilochar o'yinlar, balki harbiylarning ham jismoniy tayyorgarligini ta'minlagan. Tarixchilar qadimgi futbolning paydo bo'lishini tildan tilga o'tgan taxminlardan kelib chiqqanligiga asoslanib, futbol to'pini quyoshga qiyoslaganlar (Quyosh hammani isitadi - futbol esa hammani birlashtirdi).

Sparta jangchilari o'rtasida ham to'p bilan o'ynaladigan "episkiros" o'yini mashhur bo'lib, bu o'yinda ham oyoq va qo'ldan foydalanilgan. Bu o'yinda asosan erkaklar o'ynashgan, lekin amaliyot uchun ayollar ham o'ynashlari mumkin bo'lgan. Jinsidan qat'iy nazar, greklar odatda yalang'och holda futbolga o'xshash o'yin o'ynashar edi.

Afina Davlat Arxeologiya muzeyida o'zining granit rel'efida tizzasida to'pni ko'tarib turgan atlet surati tasvirlangan bo'lib, ehtimol atlet bu qobiliyatini yonidagi bolakayga ko'z-ko'z qilayotgan bo'lishi mumkin. Xuddi shunday tasvir hozirgi kunda Yevropa Chempionlar ligasi kubogida ham tasvirlangan. Rel'efda tasvirlangan to'p ehtimol "follis" yoki "dam urilgan to'p" deb nomlangan. Dastavval to'plar Misrda bo'lgani kabi I'ndan yoki jundan chizimcha bilan o'ralgan va birgalikda tikilgan. Ular deyarli yerga urilganda sapchimas edi, ya'ni bunday to'plar yerga urilganda sakramagan. Keyinchalik grek modeli "follis" nomi bilan mashhur bo'lgan to'p turi cho'chqaning qovuqlaridan shishirib, charm bilan mahkam o'ralar edi. To'plarni boshqa usulda yasash, dengiz gubkalarini maydalab kesib, ularni mato va chizimcha bilan o'rashdan iborat bo'lgan.



1.1.1. Rim futboli – garpastum.

Greklarning "Episkiros" o'yinini keyinchalik rimliklar o'zlariga o'zlashtirishdi va ular "Episkiros" o'yinini "Garpastum" o'yini deb nomishdi. "Episkiros" o'yinining qoidalari ham bir muncha o'zgartirilib, u "Garpastum" o'yiniga ishlatildi. "Garpastum" (tarjimada - mayda to'p bilan o'yin) 700 yil davomida odamlar orasida mashhur edi. Unda asosan kichkina,

lekin og'ir to'p bilan o'ynashgan. Bu o'yinda to'pni ikki tayoq o'rtasidan o'tkazish zarur bo'lgan va bu o'yin harbiylarni mashq qildirish uchun ishlatilar edi. O'yinda har ikki jamoadan 5 tadan 12 tagacha o'yinchilar ishrirok etar edi. O'yinlar teng ikkiga bo'lingan to'g'ri to'rtburchak shakldagi maydonda o'tar edi. Har bir jamoa a'zolari to'pni iloji boricha uzoqroq vaqt mobaynida o'zlarida saqlab turishlari, raqib o'yinchilari esa to'pni o'z maydonlarga olib kirishlari shart edi. O'yin o'zining shafqatsizligi bilan ajralib Turgan. "O'yinchilar- ikki jamoaga bo'linishgan, to'p maydon markazidagi chiziqqa qo'yilib. har bir o'yinchi oldidan chiziq tortilib, har ikkiala jamoaning vazifasi to'pni chizilgan chiziq ichkarisiga olib kirish kerak bo'lgan, to'pni raqib jamoa o'yinchilarni chetga itarib kirish orqali amalga oshirishi kerak edi". Qadimgi Rim zamondoshlarining ta'kidlashlaricha, yuqorida berilgan ta'rif futbolni eslatadigan gaspartumga berilgan ta'rifdir.

"Garpastum" o'yinining asosiy qoidalaridan biri to'p bilan muomala kilayotgan o'yinchining yo'lini to'sish bo'lgan, bunday qoida o'yinchilar o'rtasida to'p oshirib o'ynash keraldigini oshirdi, murakkab to'p uzatishlaning rivojlanishiga turtki bo'ldi va boshqa o'yinlarning qoidasiga asos bo'ldi. O'yin davomida maydonda ko'pgina ayyorlik va mug'ombirliklarning bo'lgani aniqdir.

O'yinda deyarli oyoqlardan foydalanilmas edi. "Gairpastum" o'yini qaysidir jihatlari bilan regbi o'yiniga o'xshab ketardi. Imperator Yuliy Tsezar (o'zi ham o'ynagan bo'lishi mumkin) harbiy askarlarining jismoniy holatini va harbiy kuch-quvvatini rivojlantirish maqsadida askarlarini "Garpastum" o'yini bilan shug'ullantirar edi. Rim bolalari ko'chada to'p o'ynaganliklari haqida ma'lumotlari bor. Afney degan kishi "Gaipastum" o'yini haqida quyidagilarni yozib qoldirgan: "Garpastum", boshqacha qilib aytilganda, "Fainin" mening eng sevimli o'yinimdir. Bu o'yinda ko'p harakat va charchoq kuzatiladi, to'p bilan muomalada bo'lganda shafqatsiz qayirishlar va bo'yin sinishlari uchraydi". Shu o'rinda Antifen ham; "La'nati bo'yin yomon og'riq beivapti (demak, bundan shu kelib chiqadiki, u ham o'zi "Garpastum" o'yinini o'ynagan)", - deb qo'shib qo'yan. Afney o'yinni shunday tasvirlaydi: "...u to'pni ushlab olib, uni jamoadoshiga yetkazadi, bir vaqtda boshqasidan qochishga

harakat qilib boshqa bir o'yinchiga to'pni tutqazadi. U yiqilgan o'rtog'ini oyoqqa turgdzadi. Uzoq vaqt davomida maydondan uzoqda bo'lgan olomon shovqini eshitiladi. Uzoqda, uning orqasida, boshi ustida, yerda, havoda, juda yaqin, to'daga to'p yetkazilishi" va o'yindagi boshqa harakatlar, ma'lum bo'lishicha, rimliklar Britaniya orollarini o'zlariga bo'ysuntirganlarida "Garpastum" o'yinini Britaniyaga ham olib kelishgan. To'g'risini aytganda, rimliklarning Britaniyaga kelishganlariga qadar to'p bilan o'ynaladigan o'yin allaqachon Britaniya orollarida o'ynalar edi. Ma'lumotlarda rimliklar va Britaniya aholisi brit va kel'tlar o'rtasida "Garpastum" o'yini bo'yicha musobaqa o'tkazilgani haqida aytib odilgan. Bu o'yinni britaniyaliklar yaxshi o'rganuvchi ekanlar milodiy 217-yilda Britaniya aholisi rim legionerlari bilan bo'lib o'tgan o'yinda ularni mag'lubiyatga uchratganlar. Ammo bosqinchilarning mag'lub bo'lishiga qaramay, "Garpastum" o'yini vaqt odishi bilan yo'qolib ketganligi va uning zamonaviy futbol rivojiga turtki bo'lishiga sabab bo'lgani ehtimoli kam emas. Lekin shunisi aniqki, rimliklarning "Garpastum" o'yini zamonaviy futbol o'yinining ajdodi hisoblanadi.

Qadimgi Greklarda to'p bilan o'ynaladigan o'yin ulkan shon-shuhratga ega bo'lib, gimnastlarning asosiy jismoniy dasturlaridan o'rin egalagan edi.

Futbolga o'xshagan o'yin haqidagi ilk ma'lumotlar 180-yilga taalluqli bo'lib, greklarning "Polluksa" lug'atida ta'kidlanishicha, o'yindagi yinchilar ikki bo'linib jamoaga bo'linib o'ynashgan va asosiy maqsad to'pni raqib jamoa maydonchasiga olib kirishdan iborat bo'lgan. Bu hozirgi o'yiniga o'xshab ketgandi, unda esa asosan oyoqdan foydalanilgan. Ko'pchilikning fikricha, futbolning paydo bolishiga Rim legionerlari tomonidan Britaniya orollariga qadimgi rim o'yini - "Garpastum" bilan uzviy bog'liq deb hisoblashadi. Inglizlar oyoq bilan o'ynaladigan o'yin Britaniya orollarida IX asrdan ma'lum, degan qarashni isbotlashga harakat qilishmoqda, taxmin qilinishicha, unga o'xshagan o'yinlar G'arbiy Yevropa mamlakatlarida bir-biridan ma'lum bir xususiyatini o'zlashtirib borgan.

II BOB. FUTBOL O'YINI PAYDO BO'LISHI HAQIDA MA'LUMOTLAR.

2.1. Zavmonaviy futbol paydo bo'lishi.

Vaqt o'tishi bilan o'yin o'zining tsivilizatsiyalashgan (madaniyatlashtirilgan) formasini egallagan. Ayrim pedagoglar esa futbolning nafaqat yoshlarining jismoniy rivojlanishiga, balki ularning jismoniy tayyorgarligiga ham g'oyat foydasi bor ekanligini ta'kidlab berganlar. XIX asr boshlarida esa futbol Angliyaning imtiyozli o'qish muassasalarida madaniyatlashtirildi. Bu esa nafaqat o'yinga bo'lgan munosabatni o'zgartirdi, balki, o'yinning o'zini ham o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi. Birinchi futbol qoidalari ishlab chiqila boshlandi, lekin ular hozirgacha "erkin" va bir-biridan farq qiladigan tartib va qonunlar edi. Shu bilan birgalikda asosiy muammo shunda ediki, futbol o'yinida qo'l bilan o'ynashni raxsat berish kerakmi yo yo'qmi? Bundan tashqari, ko'plab mutaxassislar tomonidan yagona qoida ishlab chiqishga urinishlar bo'lgan. Misol uchun 1863-yil o'tkazilgan har xil maktab va klublarining vakillari o'rtasidagi uchrashuvda, "futbol va regbi" namoyondalari majlisida "regbi" mutaxassislari (o'yinda qo'l bilan o'ynash mumkin) norozilik bildirib, yig'ilishda kamchilikni tashkil etganliklari uchun majlisni tark etishgani natijasida, "Oyoq futboli" tarafdorlari futbol o'yinini tartibga soladigan birinchi qonun - qoidalami ishlab chiqishgan. Oxir-oqibat esa futbol va regbi o'yinlari sport turlarining ajralishi sodir bo'lgan.

1863-yil rasmiy ravishda zamonaviy futbol tug'ilgan yili hisoblanadi. Tarixda birinchi futbol klubi "Sheffield Yunayted" hisoblanib, u 1855-yil- da tashkil etilgan (tuzilgan). XIX asrning 70-yillarida esa Angliya Futbol Assosiatsiyasi tarixda futbol bo'yicha birinchi rasmiy Assosiatsiya kubogi musobaqasi bo'lib o'tdi. Bu esa dunyodagi qadimiy umummilliy futbol tumiri edi.

Bu trafeyning birinchi sovrindori "Uanderers" klubi bo'ldi. 17 yildan so'ng professional futbol liga chempionati o'tkazila boshlandi. Birinchi chempion unvonini "Preston Nors Endi" klubi qo'lga kiritishadi.

1972 yil futbol bo'yicha birinchi xalqaro uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda Angliya va Shotlandiya futbol terma jamoalari kurash olib bordi, uchrashuv 0:0 hisobida yakuniga yetgan. Qiziqarlisi shundaki, shotlandiyaliklarning terma jamoa vakillari nomidan chiqmay, balki, mamlakatning eski klubi - "Kuins Park" Angliya terma jamoasiga qarshi bo'lgan uchrashuvda qatnashgan. Shotlandiya Futbol Assosiatseyasi esa bu o'yindan bir necha oydan keyin tashkil qilingan. Bunday Assosiatseyiya Uelsda 1875-yilda tashkil topadi, 1880-yilda esa Irlandiyada tashkil etiladi.

Shundan so'ng juda yaqin vaqtda Angliyalik dengizchilar va savdo sotuvchilar harakati bilan futbol o'yini dunyoning barcha mamlakatlariga tarqala boshladi. Birinchi navbatda Yevropa va Lotin Amerikasi mamlakatlarida, asrning oxirigacha Daniya, Gollandiya, Chili, Argentina, Belgiya va boshqa davlatlarda futbol Assosiatseyalari tashkil etila boshlanib, joylarda milliy birinchilik o'yinlari o'ynaldi.

2.2. Futboldagi birinchi bor joriy qilingan o'yin qoidalari.

Birinchi bor yagona o'yin qoidalari joriy qilishga urinib ko'rish Kembridj futbol klubiga tegishlidir. XIX asr o'rtalaridagi "to's-to'polon futbol"dan bosiqroq, jamoaviy, tashkillashtirilgan futbolga o'tildi va 1848 yilda Kembrijda rasmiylashtirilmagan futbol qoidalari ishlab chiqilib, o'yinlar tashkil etildi. 1848 yili bu qoidalarni nashr etishga qaror qilinadi. Afsuski, u bosmadan chiqmay yo'qolib ketadi. Shunga qaramay, bu qoidalar ko'p ingliz kollejlarida "Kembridj qoidalari" tarzida ma'lum. Oradan 9 yil o'tib, ya'ni 1857 yil Sheffild shahrida dunyoda birinchi bo'lib futbol jamoasi tashkil topdi.

Bizgacha yetib kelgan dastlabki qoidalar esa 1863 yili 26 oktyabr Londonga Angliya futbol uyushmasining tashkil etilishi paytida bu o'yinning 13 moddadan iborat bo'lgan ilk rasmiy qoidalari tasdiqlangan keyinchalik bu qoidalar boshqa barcha milliy uyushmalar uchun futbol o'yining asosi bo'lib qoldi. 1863 yili, 8 dekabrda bu qoidalar e'lon qilingan.

Qo'yida o'sha qoidalar teksti "Futbol: tarixi uyushtirish, texnika, trenirovka, va taktikasi" (Maskva 1927) kitobida qanday e'lon qilingan bo'lsa, xuddi o'shanday keltirilgan:

1. Maydonning bo'yi 200 yard (183m) dan, eni 100 yard (91.5m) dan oshmaydi.

2. Maydonning burchaklarida bayroqchalar o'rnatiladi. Ustiga to'sin yotqizilmagan darvoza 8 yard (7.32 m) oraliqda o'rnatilgan bo'lib, ikkita ustundan iborat.

3. Kim qay tomondan o'ynashi qur'a tashlab hal qilingan. Kur'ada yutqazgan jamoada maydon markaziga qo'yilgan to'pni tepib, o'yinni boshlab beradi. Ikkinchi jamoa o'yinchilari to'p tepulguncha qadar unga 10 yard (9.1m) dan yaqin kela olmaydilar.

4. Darvozaga to'p urilgandan keyin, jamoalar tomonlarini almashtirganlar.

5. To'p qo'lda uloqtirilmay, qo'lda zarba berilmay yoki qo'lda ko'tarib kirilmay, ikkita ustun oralig'idan o'tsa, darvoza zati etilgan hisoblanadi.

6. Agar to'p yon chiziqdan tashqariga chiqib ketsa, unda hammadan avval tega olgan o'yinchi to'pni chiziqni kesib o'tgan joydan, chiziqqa nisbatan to'g'ri burchak hosil qiladigan o'ynalishda to'pni qo'lda maydonga tashlab beradi. To'pni yerga tekkan zahoti o'yinga kirgan hisoblanadi.

7. O'yinchi zarba berayotgan paytda uning jamoasining zarba beruvchidan ko'ra raqib darvozasiga yaqinroq turgan hamma o'yinchilari o'yindan tashqari holatda hisoblanadi va ular to'pga tega olmaydilar yoki raqiblarga halaqit bera olmaydilar.

8. To'p darvoza chizig'idan tashqariga chiqib ketib, chiziqning nariyog'ida himoyalananayotgan jamoada o'yinchisi birinchi bo'lib unga tegsa, shu jamoada darvoza chizig'ining o'yinchi to'pga tekkan joy ro'parasidagi nuqtasidan to'p tepish huquqini oladi: bordi-yu hujum qilayotgan jamoada o'yinchisi to'pni birinchi to'pni tekkan joy ro'parasidagi nuqtasidan erkin to'p tepish huquqini oladi. Erkin to'p tepish paytida himoyadagi jamoa to'p tepilguncha qadar darvoza chizig'idan tashqarisida turadi.

9. Agar o'yinchi bshoqa o'yinchi zarbasidan uchib kelayotgan to'pni bevosita qo'li bilan ilib olsa, shu holat ro'y bergan joyni belgilab olib, o'sha joydan erkin tepishi mumkin.

10. O'yinchilar to'pni qo'llariga olib yugura olmaydilar.

11. O'yinchilarni chalish va urish man etildi, shuningdek o'yinchini qo'l bilan ushlab to'xtatib qolish yoki turtish man etiladi.

12. To'pni qo'l bilan uzatish man etiladi.

13. Maydon ichida to'pga qo'l tekkizish man etiladi.

14. Temir va guttaperchadan qiligan joylari turtib chiqqan poyavzallarda o'ynash man etilgan

Ko'rinib turibtki, 1863 yildagi qoidalar hozirgi qoidalrdan anchagina farq qiladi. Bu hozirga kungacha futbol qonun qoidalarini yillar o'tishi bilan o'zgaraganligini ko'rsatadi.

1866 yilda "o'yindan tashqari holat" qoidasi yengillashtirildi. Endi raqiblar sirt chizig'i bilan o'zi o'rtasida qarshi tomon o'yinchilaridan uch kishi bo'lsa, bu o'yinchi "o'yindan tashqari holat" bo'lmaydi.

1866 yilda yilda balandlikni cheklash uchun ustunlar orasiga arqon tortib qo'yildi.

1870 yili birinchi marta 11 o'yinchi maydonga chiqdi.

1871 yili birinchi marta darvozabonga o'ng qo'l bilan o'ynash ruxsat berildi.

1871 yildan uchrashuvlar 1.5 soat mobaynida o'tkazila boshlagan.

1872 yildan boshlab futbol bo'yicha halqaro uchrashuvlar tarixi boshlandi. Unda angliya va Shotlandiya terma jamoalari kurash olib borgan. Uchrashuv durrang 0:0 bilan yakunlangan.

1872 yili ko'pchillik jamoalar yig'ilib bir qarorga kelishdiki, to'p yumaloq va uning sferik aylanasi taxminan 68.6-70 sm bo'lishi lozim. Shu yili to'pning og'irligi va hajmi rasman tasdiqlangan.

1873 yili to'p himoyadagi o'yinchiga tegib, sirt chiziqdan maydon tashqarisiga chiqib ketganda burchakdan to'p tepish qoidasi kiritildi.


1873 yili aut to'pni qo'lda o'ynashga kiritish belgilangan.

1875 yili arqonli darvoza ustuni o'rniga 2.44m balandlikda yotqazilgan to'singa almashtirildi.

1875 yili darvozaga to'p kiritilgandan keyin tomonlar almashinish qoidasi o'rniga, o'yinchilar tanaffusdan qaytgandan keyin almashish qoidasi joriy qilindi.

1880 yili birinchi marta futbol o'yinida hakam ishtirok eta boshladi. Ungacha futbol jamolarining sardorlari o'yin qoidalariga rioya qilinishini kuzatib turganlar.

1883 yildan boshlab uchrashuv ikkita bo'limga bo'linib, o'sha 1.5 soat ikkiga bo'lingan (45 daqiqadan).



1884 yildan Britaniya orollarida birinchi halqaro rasmiy turnir o'tkazila boshlangan.

1891 yili birinchi marta sudya (hakam) ikkita yordamchisi bilan maydonga chiqdi.

1891 yili birinchi marta 11 metrlik penalti belgilandi.

1902 yilda darvozabonga ikkita qo'lda o'ynashga ruxsat etilgan.

1902 yili birinchi marta to'liq va to'g'ri maydon o'lchamlari chizildi.

1933 yili birinchi marta 1-11 gacha o'yinchilar raqamda chiqishdi.

1900 yildan futbol olimpiya sport turiga aylandi, ammo rasmiy jihatdan u Olimpiya o'yinlari dasturiga 1908 yilda kiritilgan.

1930 yili Birinchi jahon chempionati Urugvayda bo'lgan.

2.3. FIFAning tashkil topishi haqida ma'lumot.

1904 yili Belgiya, Gollandiya, Daniya, Fransiya, Shvetsiya, va Shvetsariya vakillari tashabbuskorligi bilan Halqaro futbol uyushmasi (FIFA) tuzildi. Bu uyushmaga 200 ortiq davlatlar a'zo bo'lgan. FIFAning tashkiliy negizini 6 qit'aning tashkilotidan iborat.

Bular:

- UEFA** – yevropa ittifoqi futbol uyushmasi
- KONKAKAF** – shimoliy va markaziy Amerika mamlakatlari hamda Karib dengizi havzasi mamlakatlarining futbol konfednratsiyasi,
- KONMEVOL** – janubiy Amerika mamlakatlari futbol konfederatsiyasi,
- KAF** – Afrika futbol konfederatsiyasi,
- AFK** – Osiyo futbol konfederatsiyasi,
- KFO** – Okeaniya futbol konfederatsiya-sidir.

FIFAning joriy faoliyatini ijroiya qo'mita bilan bir qatorda yana bir necha maxsus qo'mitalar boshqarib boradi. Ular quyidagilardir: favqulodda holatlar, moliyaviy, jahon kubogini utkazish bo'yicha, Olimpiya turnirlari, o'smirlar chempionatlari, hakamlik, texnik, intizom, tibbiy va h.k. qo'mitalardir.


FIFAning asosiy vazifasi hududlarda futbol rivojlanishini nazorat qilish va moddiy va uslubiy yordam ko'rsatish, nizom va qarorlar, o'yin qoidalarining buzilishini oldini olish bo'yicha kerakli choralar ko'rish, irqiy, siyosiy va diniy sabablarga asosan kamsitilishga yo'l qo'ymaslikdir.







1954 yili Osiyo futbol konfederatsiyasi (OFK) tuzilgan bo'lib, hozirda vaqtda 44 yaqin mamlakatlar birlashtirilgan.

1954 yili yevropa futbol ittifoqi (UeFA) tuzilgan.

1994 yili O'zbekiston O'zbekiston futbol federatsiyasi 1994 yil 21 mayda tuzilgan va ayni paytda 200 dan ortiq milliy federatsiyalarni birlashtirib turgan xalqaro futbol federatsiyalari uyushmasi (FIFA) bilan yaqindan hamkorlik olib boradi. Hududiy joylashuv jihatidan O'zbekiston futbol federatsiyasi Osiyo futbol konfederatsiyasi (OFK) tarkibiga kiradi.

FIFA prezidentlari.

No	Prezidentlar		Lavozimga o'tdi	Lavozim dan ketdi	Fuqoroligi
1		Rober Geren	1904	1906	■ ■ Fransiya
2		Deniel Vulfoll	1906	1918	+ Angliya
3		Jyul Rime	1921	1954	■ ■ Fransiya

4		Rudolf Seldreyers	1954	1955	Belgiya
5		Artur Dryuri	1955	1961	Angliya
6		Stenli Rouz	1961	1974	Angliya
7		Joao Avelanj	1974	1998	Braziliya
8		Zepp Blatter	1998	2015	Shveysariya
9		Djanni Infantino	2016		Shveysariya

2.4. Olimpiada o'yinlarida futbol sport turini kirib kelishi.

Futbol sport turi 1896 yil Afinada birinchi olimpiya o'yinida paydo bo'lib, Daniya va Gretsiya jamoalari o'rtasida ko'rgazmali o'yin sifatida bo'lib o'tgan. Bu o'yinda Daniya jamoasi 9:0 hisobi bilan g'alaba qozongan. Keyingi Parijdagi (1900 y) olimpiyada o'yinlarida Fransiya, Belgiya va Angliyaning havaskor jamoalari faqatgina ikkita o'yin olib borishgan. Dastavval, fransuzlar belgiyaliklarni 6:2 hisobi bilan g'alaba qozinishgan. "Epton Park" Londonliklar klubi fransuzlarning "Union Frans de Sporte Atletik" jamoasini 4:0 xisobida mag'lubiyatiga uchratgan. Sent-Luisdagi uchinchi olimpiyadada ham uchta jamoa ishtirok etdi. Ular amerikaliklardan ikkita jamoa ("Sent Luis Kickers" va "Kristien Broterz Kolledj") va bitta kanadaliklar jamoasi ("Golt FK" iz Toronto) edi.

Bu bahslarda omad kanadaliklarga kulib boqdi. Ular ikkala umumiy baxsda 11:0 hisobi bilan g'alaba qozonishgan. Ikkita bo'lib o'tgan turnirlar rasmiy emas ko'rgazmali hisoblanishadi. Misol uchun, 1904 yildagi olimpiya o'yinlariga futbol kiritilmagan. Kanadaliklarni tashabbusi bilan olimpiya o'yinlarini oxirgi kunlarida tashkilotchilar ruhsati bilan o'tkazilgan. Ko'p yillar davomida tarixchilar olimpiya o'yinlarida futbol sport turini 1908 yildan boshlab hisoblanadi. FIFA (1976 y) 40 chi kongressida bu vaziyatga oydinlik kiritilib, dastavval o'tkazilgan uchta olimpiya o'yinlaridagi futbol musobaqalarini tan olishga qaror chiqardi. Keyinchalik qarorga o'zgartirish kiritilib birinchi olimpiya o'yinlaridagi Daniya va Gretsiya o'yini ko'rgazmali bo'lganligi uchun tan olinmadi.

Olimpiada o'yinlarining sovrindorlari bo'lgan terma jamoalar.

Olim piada o'yinlari	Bo'lib o'tgan yili	O'tkazilgan joyi	Egallagan o'ринi		
			I - o'rin	II - o'rin	III - o'rin
I	1900	Parij	Angliya	Fransiya	Belgiya
II	1904	Amerika, Sent-Luis	Kanada	Amerika	-
III	1908	Angliya, London	Angliya	Daniya	Niderlandiya
IV	1912	Shvetsiya, Stokgolm	Angliya	Daniya	Niderlandiya
V	1916	o'tkazilmagan			
VI	1920	Belgiya, Antverpen	Belgiya	Ispaniya	Gollandiya
VII	1924	Fransiya, Parij	Urugvay	Shveysariya	Shvetsiya
VIII	1928	Gollandiya, Amsterdam	Urugvay	Argentina	Italiya
IX	1932	o'tkazilmagan			
X	1936	GermaniyaBerlin	Italiya	Avstriya	Norvegiya
XI	1940	o'tkazilmagan			
XII	1944	o'tkazilmagan			
XIII	1948	Germaniya Berlin	Shvetsiya	Yugoslaviya	Daniya
XIV	1952	Finlandiya Xelsinki	Vengriya	Yugoslaviya	Shvetsiya
XV	1956	Avstraliya, Melburn	SSSR	Yugoslaviya	Bolgariya
XVI	1960	Italiya, Rim	Yugoslaviya	Daniya	Vengriya
XVII	1964	Yaponiya, Tokio	Vengriya	Bolgariya	OGK (Birlashgan Germaniya Jamoasi)
XVIII	1968	Meksika, Mexiko	Vengriya	Bolgariya	Yaponiya, Mexika

Olim piada o'yiniari	Bo'lib o'tgan yili	O'tkazilgan joyi	Egallagan o'rini		
			I - o'rin	II - o'rin	III - o'rin
XIX	1972	GFR, Myunxen	Polsha	Vengriya	SSSR, GDR
XX	1976	Kanada, Monreal	GDR	Polsha	SSSR
XXI	1980	Moskva	Chexoslovakiya	GDR	SSSR
XXII	1984	Amerika, Los-Anjeles	Fransiya	Braziliya	Yugoslaviya
XXIII	1988	Koreya, Seul	SSSR	Braziliya	GFR
XXIV	1992	Ispaniya, Barselona	Ispaniya	Polsha	Gana
XXV	1996	Amerika, Atlanta	Nigeriya	Argentina	Braziliya
XXVI	2000	Avstraliya, Sidney	Kamerun	Ispaniya	Chili
XXVII	2004	Gretsiya, Afina	Argentina	Poragvay	Italiya
XXVIII	2008	Xitoy, Pekin	Argentina	Nigeriya	Braziliya
XXIX	2012	Angliya, London	Meksika	Braziliya	Janubiy Koreya
XXXI	2016	Braziliya, Rio - de Janeyro	Braziliya	Germaniya	Nigeriya
XXXII	2020	Yaponiya Tokio			

2.5. Jahon chempionati o'yinlari haqida ma'lumot.

1930 yildan boshlab futbol bo'yicha eng nufuzli musoboqa hisoblanmish jahon chempionati har to'rt yilda bir marta o'tkazilib kelinmoqda.

Chempionatlar		I - o'rin				II - o'rin				III - o'rin				IV - o'rin							
Yillar	O'tkazilgan joy	I - o'rin				II - o'rin				III - o'rin				IV - o'rin							
X	1974	GFR, Myunxen				GFR				Gollandiya				Polsha				Braziliya			
XI	1978	Argentina, Buenos - Ayres				Argentina				Gollandiya				Braziliya				Italiya			
XII	1982	Ispaniya, Madrid				Italiya				GFR				Polsha				Fransiya			
XIII	1986	Meksika, Mexiko				Argentina				GFR				Fransiya				Belgiya			
XIV	1990	Italiya, Rim				GFR				Argentina				Italiya				Angliya			
XV	1994	AOSh, Los - Anjeles				Braziliya				Italiya				Shvetsiya				Bolgariya			
XVI	1998	Fransiya, Parij				Fransiya				Braziliya				Xorvatiya				Gollandiya			
XVII	2002	Koriya Yaponiya				Braziliya				Germaniya				Turkiya				Koreya			
XVII I	2006	Germaniya				Italiya				Fransiya				Germaniya				Portugaliya			
XIX	2010	JAR				Ispaniya				Gollandiya				Germaniya				Urugvay			
XX	2014	Braziliya				Germaniya				Argentina				Gollandiya				Braziliya			
XXI	2018	ROSSYA				Fransiya				Xorvatiya				Belgiya				Angliya			

Futbol bo'yicha jahon chempionatlarida sovrindor bo'lgan terma jamoalar.

Chempionatlar	Yillar	O'tkazilgan joy	Egallagan o'rni			
			I - o'rinni	II - o'rinni	III - o'rinni	IV - o'rinni
I	1930	Urugvay, Montevideo	Urugvay	Argentina	AQSh (o'yin o'tkanay)	Yugoslaviya
II	1934	Italiya, Rim	Italiya	Chexoslovakiya	Braziliya	Avstriya
III	1938	Fransiya, Parij	Italiya	Vengriya	Shvetsiya	Shvetsiya
1942 yil o'tkazilmagan						
1946 yil o'tkazilmagan						
IV	1950	Braziliya, Rio - de Janeyro	Urugvay	Braziliya	Shvetsiya	Ispaniya
V	1954	Shveysariya, Bern	GFR	Vengriya	Avstriya	Urugvay
VI	1958	Shvetsiya, Stokgolm	Braziliya	Shvetsiya	Fransiya	GFR
VII	1962	Chili, Santago	Braziliya	Chexoslovakiya	Chili	Yugoslaviya
VIII	1966	Angliya, London	Angliya	GFR	Portugaliya	SSSR
IX	1970	Meksika, Meksiko	Braziliya	Italiya	GFR	Urugvay

III BOB. FUTBOL ANJOMLARI BO'YICHA TARIXIY MA'LUMOTLAR.

Ma'lum bir jamoaning belgilari, ramzi, gerbi tushirilgan kiyim, sharf, bayroq va hokazolarning majmuiga futbol anjomlari deyiladi. Bu anjomlarni ishlab chiqarish va sotish bevosita klub, jamoa mutasaddi rzhbarlari tomonidan amalga oshiriladi va futbol infrastrukturasi ajralmas bo'lagi hisoblanadi.

Jamoa rahbariyatidan tashqari futbol anjomlarini dilerlar ham sotishadi va ular klub, jamoa bilan shartnoma imzolab, foydaning ma'lum bir qsmi jamoaga to'lashadi.

Futbol madaniyati yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda, masalan: Buyuk Britaniya, Ispaniya, Italiya, Frantsiya, Portugaliya, va Germaniyada futbol jamoalarining sport anjomlari bilan savdo qilish ushbu jamoa byudjetining kattagina ulushini tasllkil etadi.

3.1 Futbolchining shaxsiy sport kiyimi.

Kiyim ust-boshi - bu o'yinchining yuzi, demak jamoa yuzidir. Ular Butsi, darvozabon qo'lqoplari, jamoa kiyimi yoki o'yinchi kiyimini o'z ichiga oladi. Bularning hammasi o'yinchi tomonidan sotib olinadi yoki bo'lmasa murabbiy tomonidan futbolchiga beriladi.



Futbol kiyimlari mehmondagi o'yin uchun, o'z uyidagi o'yin uchun va bo'lib o'tadigan mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

O'yin qayerda bo'lishiga qarab professional klublar, jamoalar u yoki bu kiyimlarini kiyishi mumkin. Mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan kiyimlar ob-havoga qarab kiyiladi. Agar havo bulutli bo'lib, yomg'ir yog'ish ehtimoli, tashqarida havo salqin bo'lsa, mashg'ulotlar kostyumini kiyish kerak. Unga mashg'ulot shimi va yengilgina nimcha (vetrovka) kiradi. Futbol to'pi, charmli bo'lishi kerak. Bu borada hozirgi vaqtda Derbystar va Select firmalari ishlab chiqarayotgan to'plar eng yaxshi tanlov bo'la oladi. Butsilar ham iloji bo'lsa charmdan bo'lishi ma'qul, chunki o'yin paytida Butsi yaroqsiz holga kelmasmikan degan fikrdan xoli bo'lish uchun bu eng ma'qul yechim. Zalda o'ynash uchun bamlar (qulay oyoq kiyimi) sotib olish maqsadga muvofiqdir. Ular baland va past poshnali bo'lishi mumkin. Bu esa bamlarning o'yinchilar oyoq ichida qanday qulay bo'lishiga bog'liq. Muhimi ularning unchalik og'ir bo'lmasligidadir. Bundan tashqari qo'lga tomir urishini o'lchaydiganni ham sotib olish mumkin, odatda undan o'yin va mashg'ulotlarda qo'lga taqib terini artish uchun foydalaniladi.

Futbol kiyimi tarixi.

Futbol kiyimi futbol taraqqiyotining butun tarixi davomida o'zgarib borib, qalin paxtali futbolka, sport shimlar (triko) va og'ir qattiq charmdan qilingan Butsi kiyimlar vaqt o'tib, XX asrga kelib qulay futbolka, kalta va yengil shortik va albatta, zamonaviy Butsilarga o'zgardi. XX asrda reklamaning taraqqiy etishi bilan homiyilar, ya'ni futbol klublariga moddiy yordam ko'rsatadigan tashkilot yoki firma belgilari futbolchilar kiyimida o'z aksini topdi. Bundan tashqari suvenir sifatida sotiladigan anjomlarning yodga qo'yilishi klublar, jamoalar moddiy, moliyaviy ahvolini bir muncha yaxshiladi.

Angliya qirolichasi Viktoriya davrida futbol anjomlari haqidagi: birinchi ma'lumotlar 1526-yilga taalluqlidir.



Angliya qiroli Genri VIII ning kiyim saqlaydigan xizmatchisi birinchi marotaba 1 juft Butsi haqida ma'lumot qoldirgan. Birinchi rangli kiyim haqidagi ma'lumot shaxsiy maktablar tarbiyalanuvchilaridan tashkil topgan jamoalarda uchraydi. Ya'ni masalan, 1840 - yilga qadar Vinchester kollejida bo'lib o'tgan futbol musobaqasi haqida ma'lumot berilib, unda shunday deyiladi:- "Bir jamoa qizil, ikkinchi jamoa kollej talabalari esa ko'k kiyimda". Ragbi shahrida 1845-1848 - yillarda o'tkazilgan futbol o'yinlarining ma'lumoti keltirilgan bo'lib, futbolchilar kamzul (sviter) va shapkalar rangi ajralib turishgani aytilgan.

1860-yilda futbol o'yinlari Angliya Futbol Assosiatseyasi rahbarligida o'tkazilgan bo'lib, jamoalar turli xil kiyimlarda o'yinga tushib bir-birlarini bosh kiyimi (shapka) rangidan va ularning kiyim turli xil lentalarining rangidan ajratishgan. Bu o'z navbatida bir qanqa noqulaylik tug'dirgan va 1867 yilda kiyim kiyish bo'yicha aniq qoida ishlab chiqilgan, ya'ni o'yindan oldin qaysi rangda maydonga tushish kerakligi kelishib olingan. Bu o'yinda bo'ladigan tushunmovchiliklarning oldini olishga qaratilgan edi.

Futbol kiyimlarining birinchi standartlari 1870-yillarga kelib paydo bo'la boshladi. Ko'pgina jamoalar o'z kiyimlari uchun rang tanlashda, jamoa paydo bo'lgan ma'lum maktab yoki boshqa sport tuzilmasidan asos olganlar. Masalan "Blekbem Roverz" jamoasi o'zlariga oq-qora yo'l-yo'l kiyimini klubga asos solgan

kishilarning ko'pchiligi Kembridj universitetida tahsil olganligi sababli shu klubni tanlashgan.

O'yindan-o'yinga jamoalar kiyimlari tubdan o'zgarib bordi, masalan, "Bolton Vanderers" maydonga pushti va oq ranglardagi kiyimlarda tushib, 1 yil davomida shu kiyimda maydonda to'p surishgan. Hozirgi zamon o'yinchilarining kiyimlaridan farqli o'laroq 1870 - yillarda futbolchilar uzun shim va qalin ko'ylak kiyishar edi. Futbolchilar kiyimida hech qanday raqamlar qo'yilmagan edi va o'yinchilarni ajratib olish imkoni yo'q edi. 1875-yilda Glazgo shahrida "Kvins Park" va "Vanderers" klublari o'rtasidagi o'yinda futbolchilarni bir-biridan shapka va getri ranglaridan ajratish mumkin edi. 1874-vil "Nottingem Forest" jamoa o'yinchisi Sam Veller Vidovson birinchi marta oyoqning tizzadan pastini himoya qiladigan futbol anjomini - qalqonchani kiyib chiqdi, u o'yinda kiyiladigan qalqonchani 2 ga bo'lib futbol getrisining ustidan kiydi.

Boshida bu holat unchalik yaxshi qarshi olinmadi, lekin vaqt o'tishi bilan qalqoncha futbolchilarning doimiy kiyadigan futbol anjomiga aylandi va XX asrning boshlarida qalqonchalar o'lehamlari kichrayib, getrilar qalqoncha ustidan kiyiladigan bo'ldi.

Zamonaviy davr.




1970-yillarga kelib klublar o'ziga hos kiyimlar yarata boshlashdi. 1975-yilda "Lids Yunayted" o'zining odatiy ko'k va oltin rang kiyimlarini "Real Madrid"ga taqlidan oq rangga o'zgartirgach (1960 yillarda) o'z kiyimini suvenir sifatida o'z ishqibozlariga sotishni boshlagan birinchi klub sifatida

tarixda o'rin egallagan. Tijorat maqsadini ko'zlab boshqa klublar ham "Lids Yunayted" klubi singari o'z kiyimlarini ishqibozlarga sotib boshladi. Bundan tashqari turli xil sport anjomlarini ishlab chiqaruvchilar belgilarini ham qo'shib berishgan. 1973-yilda Germaniya mamlakati klubi "Eintracht

Braunschweig” mahalliy spirtli ichimlik ishlab chiqaruvchi korxonaga “Jagermeister” bilan shartnoma imzolab, bu korxonaga nomi klub o'yinchilari futbolkasining old qismiga yoziladigan bo'ldi. Bir qancha vaqt o'tgach, boshqa nomdor klublar ham xuddi shunday yo'l tutishdi va bunday klublarni moddiy ta'minlagan korxonalar daromadi oshib ketdi. 2008-yilda Myunxenning “Bavariya” klubi Doyche Telekomdan 25 mln, evro miqdorida homiylik mablag'i olgan.

2005 - yilgacha Ispaniyaning “Atletiko Bilbao” va “Barcelona” klublarining futbolkasiga biron-bir korxonaga belgisining tasvirini tushirishga qarshi bo'lganlar. Hatto bugungi kunda ham “Barcelona” klubi kiyimida UNICEF (Birlashgan millatlar tashkilotining bolalar jamg'armasi) belgisining tasvirini tushirishga qarshi chiqishmoqda. Lekin ba'zi bir futbolchilarning o'zlari mustaqil ravishda boshqa brendlar (mashhur belgilar) bilan shartnoma imzolaganlar.

Masalan, 1974 - yil Gollandiya futbolchisi Yoxan Kruif terma jamoa libosini kiyishni rad etdi, chunki unda “Adidas” firmasining tasviri tushirilgan bo'lib, o'sha payt Yoxan Kruif “Ruma” firmasi bilan shartnoma imzolagan edi, Shu sababli Kruifga “Adidas” belgisi tushirilmagan libosda maydonga tushishga ruxsat berishgan. 1970-yilgi jahon chempionatida braziliyalik yulduz Pelega ham “Ruma” firmasi 120 ming dollar miqdorda pul to'lagach, Pele “Ruma” kompaniyasi Butsini kiyishga rozilik bildirdi va “Ruma” kompaniyasining talabiga ko'ra, o'yin boshlanishidan oldin Pele o'tirib Butsini bog'lashi kerak ediki, unda televizor orqali o'yinni tomosha qilayotgan muxlislar Butsidagi “Ruma” yozuvini ko'rib olsinlar.



1980-yillarda “Hummel” va “Adidas” singari kompaniyalar o'ziga hos bichimga ega kiyimlar ishlab chiqarishni boshlashdi, chunki yangi texnologiyalar fonli pechat va futbolkalarga mayin oq chiziqlarini yopishtirish imkonini berdi. “Hummel” kompaniyasining 1986-yilgi jahon futbol chempionatida

Daniya mamlakati futbol terma jamoasi uchun yaratgan kiyimini ommaviy axborot vositalarida katta shov-shuvlarni keltirib chiqargan.

FIFA o'z navbatida bu kiyimning tomoshabinlarga yomon ta'sir etishi yuzasidan o'z e'tirozini bildirdi. Futbol shortiklari 1970-yillarga qaraganda ham kaltalashdi va 80-yillarga kelib shortiklarning old qismida o'yinchi raqami aks ettirila boshlandi. 1990 - yillarda futbolchilar tuzilishi moslashgan shakl tashkil eta boshladi, o'zaro ranglar uyg'unlashishini kuzatish mumkin edi. Dizaynerlik yechimlar yaxshi va zamonaviy ko'rinish istagini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, asosiy maqsad mux-lislarda yaxshi taassurot qoldirish va ularning mehrini qozonish edi.

1996-yilda "Manchester Yunayted" klubi "Sautgempton" klubiga qarshi kechgan o'yinda o'zining yangi kulrang kiyimida o'yinga tushadi birinchi bo'limda va birinchi bo'lim 3:0 hisobida "Manchester Yunayted"

klubi mag'lubiyati bilan yakunlandi. Jamoa bosh murabbiyi Aleks Fer- gyuson ikkinchi bo'limda boshqa kiyimda o'z jamoasini maydonga olib chiqdi va raqib darvozasiga bitta to'p kiritib, o'z darvozasi daxlsizligini ta'minladi va bu holatga Aleks Fergyuson oydinlik kiritib, kul rang kiyim ishqibozlarga sovg'a qilish uchun yaxshi suvenir ekanligini ta'kidlab, birinchi bo'limdagi mag'lubiyatini o'yinchilar kulrang kiyimda bir-birlarini yaxshi ko'ra olmaganliklari bilan izohladi.



belgining tasvirini yozmasliklarini, bu qoidani buzgan

Yetakchi futbol klublari mavsumdan oldin har bir futbolchi mavsum oxirigacha qaysi raqamda o'ynashini aniq kelishib va belgilab oladilar. Ko'p hollarda futbolchilar har bir kiritilgan to'pdan so'ng o'z xursand- chiliklarini namoyon etish uchun futbolchilarini yechib, maykasida yozilgan shaxsiy, siyosiy yoki bo'lmasa, diniy qarashlarini ko'z- ko'z qilar edi. Shu sababli 2002-yilda Xalqaro Futbol Assosiatyasi futbolchilar maykalarida so'z, shior va

futbolchilarga sariq varoqcha, hatto jarima solinishini e'lon qilgan. 2004-yildan esa futbolchilar futbolkasini o'yinda sug'urganliklari uchun sariq varoqcha bilan jazolanadigan bodd.



Suvenir sifatida sotiladigan futbolklar bozori keskin darajada oshib, klub, jamoa moddiy ahvolini yaxshilash va qo'shimcha pul ishlash manbaiga aylandi.

Misol tariqasida Angliyada sovg'a futbolklar sotuvidan tushadigan mablag' 200 mln. funt sterlingni tashkil etgan. Ayrim klublar, jamoalar sun'iy usulda souvenir futbolklar narxini ko'targanliklari uchun ularga nisbatan jarima solingan.

Masalan, 2003-yilda Angliya raqobatga qarshi kurashish boshqarmasi "Manchester Yunayted" klub: mutasaddilarini klub souvenir futbolklarining narxini asossiz ravishda ko'targanliklari uchun ularga 1,65 mln. funt sterling jarima solishgan.

Ko'pgina mashhur klublarning souvenir futbolklari narxi qimmat bo'lganligi sababli, ko'pgina ishqibozlar Tayland, Malayziya davlatlaridan va boshqa joylardan soxta souvenir futbolklarni arzon narxda sotib olishlariga to'g'ri keladi. Shunga qaramay, ishqibozlarning sevimli o'yinchisi raqami tushirilgan futbolkani kiyish istagi, souvenir futbolka ishlab chiqaruvchi korxonalariga va ushbu sohaga katta daromad olib kelmoqda.

Chunonchi, birinchi marta 6 oy ichida Devid Bekxem "Manchester Yunayted" klubidan Real Madridga o'tgandan so'ng Bekxem ismi va raqami tasviri tushirilgan 1 mln. futbolka sotildi. Bundan tashqari, muhim uchrashuvlarda o'yinchilar kiygan futbolklar narxi ham o'sdi. Shunday futbolklar auksionlarda kolleksionerlar tomonidan sotib olindi va sotildi. Misol tariqasida, 2002-yilda mashhur futbol yulduzi Pelening 1970-yildagi jahon futbol chempionati finalida kiygan futbolkasi 150.000 funt sterlingga sotilgan.

2002-yilda Kamerun futbol terma jamoasi Malida Afrika kubogi uchun o'tkazilgan o'yinda birinchi marta "Puma" sport kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan yengsiz futbolalarda maydonga tushirilgan, keyinchalik FIFA bu futbolklar rasmiy

o'yinlarda kiyilmasligini va uni futbol kiyimi sifatida kiyish mumkin emasligini belgiladi.

Keyinchalik "Puma" kompaniyasi ushbu futbolkalarga halqina qora yeng qo'shgan bo'lsa ham, FIFA rasman bu kiyimni kiyimaslikni ta'qiqladi. Lekin, Kamerun futbol terma jamoasi bu qoidaga bo'ysunmay, jahon chempionati saralash o'yinlarida 2006-yilda yengsiz futbolda maydonga tushishdi va bunga javoban FIFA tomonidan Kamerun futbol terma jamoasidan 6 ochko olib tashlangan, keyinchalik apellyatsiyaga bergan Kamerun futbol terma jamoasiga 6 ochko qaytarilgan. Futbolchilar ishlab chiqaruvchi boshqa bir kompaniya "Karra" badanga yopishib turadigan futbolchalarni Italiya futbol terma jamoasi uchun ishlab chiqdi va bu futbol kiyimi boshqa futbol jamoalari orasida ham mashhur bo'ldi.

Futbol kiyimi tarixi.

Futbol kiyimi (ekipirovka). Ilk futbol jamoalarining tushgan rasmlarida ya'ni "Old Xarrovianz" va "Xempsted-Xitenz" jamoalarining tushgan rasmlarida ular jiddiy futbolchilardan ko'ra "Kichkina lord Fauntleroy" asarining qahramonlariga o'xshab ketishgan. Lekin o'n yilliklar o'tib, professional futbol tushunchasi rivojlana bordi. Endilikda Angliya mamlakati futbolida, shimoliy Angliya jamoalari yetakchilik qila boshladi, ularda esa asosiy qatlamni oddiy kishilar, ishchilar sinfi tashkil etardi.

Albatta, bunday jamoalarda kiyinish talabi boshqacha bo'lib, futbol kiyimi oddiy va arzon bo'lishi kerak edi. Hatto hozir ham, futbol tijorat turi bo'lib, katta mablag'lar keltiradigan bo'lsa ham, futbolchilarning kiyimi boshqa sport turlaridagi kiyimlardan ancha arzon bo'lib. Bunga sabab futbolning ommalashishiga, u bilan shug'ullanuvchilar sonining oshishiga ham turtki bo'lgan. Professional futbol I asr davomida mavjud bo'lgan bodisa hamki, o'yinchilarning kiyiladigan dizayni hech ham o'zgarimagan, texnologiyaning o'zgarishi bilan futbolchilar tikiladigan matolar va Butsilar matosida o'zgarishlar ro'y berdi.

Futbol kiyimining oddiyligi va ko'p mablag' talab qilmasligi bilan kishilarni o'ziga jalb qiladi. Futbol qoidasiga ko'ra to'rtinchi qoidada shunday deyiladi: "Futbol o'yinchisining kiyimi, kamzul yoki futbolka, shortik, getri, qalqonchalar va sport poyafzal

(Butsi) dan iborat bo'lgan. Darvozabon kiyimining rangi maydondagi o'yinchilar va hakam kiyimi rangidan farq qilishi shart".



1994-yilgi Shvetsiya futbol terma jamoasining kiyimi, reklamaning yaqqol misolidir. Chunki, uchta yo'l-yo'l chizig'li sport kiyimini ishlab chiqaruvchi firmaning markasi bo'lib, bunda jamoa urfodatlariga aloqador emasdi.



1909-yil - ilk futbol kalar qalin jundan ishlab chiqarilgan, lekin vaqt o'tib, ishlab chiqaruvchilar ancha qulay va arzon bo'lgan paxtadan foydalana boshlagan. Avval, futbol kalar yoqasi chiziqcha bilan bog'langan, bu xildagi futbol kani "Manchester Yunayted" klubi himoyachisi Djordj Steysi Angliya mamlakati futbol kubogida kiygan.



1911-yil (ikki yil o'tgach) chiziqcha o'rnini futbolda tugma egalladi.


1982-yil sintetik matolarning ixtiro qilinishi bilan paxtali formalar davri tugadi va futbol kiyimlari ishlab chiqarishda sintetik matolardan keng foydalanila boshlangan. Bu Braziliya futbol terma jamoasi futbolkasi bo'lib, havo almashinishini ta'minlab, yengil neylondan ob-havo issiq bo'lgan mamlakatlar uchun mo'ljallangan.



1936-yilda "Arsenal" klubi o'yinchilari uchun getrilarning vazni qariyb 1 kg bo'lgan. Buyuk Britaniyada bunday getri va futbol aslahalarining boshqa turlarini II Jahon urishida Savdo vazirligi tomonidan beriladigan maxsus kupon orqali sotib olish mumkin bo'lgan

1994-yilda futbol Butsilari ishlab chiqarilishiga katta mablag' sarflangan. Va bu o'z natijasini berdi. Hozirda eng sifatli Butsilar asosan kenguru teri- sidan tayyorlanmoqda, bunday Butsilarning tagcharmi plastmassadan bo'lib, cho'girlari alyumindan qilingan. Futbol aslahalari ishlab chiqarish texnologiyasining rivoji ko'proq Butsilar dizayni va ishlab chiqarilishida sezilarli bo'ldi. Hozirda Butsilar ishlab chiqarish rivojlangan sanoat bo'lib, fan-texnikaning eng oxirgi yutuqlaridan foydalanadi.





1936-yildagi Butsidagi shpilkalarni tayyorlaydigan asbob. 5 mm.li shpilkalar, yo'l-yo'1 charmdan qilinib, bu asbob bilan Butsiga tiqib, keyin mix qoqiladi shundan so'ng butsi shpilkasi tayyor bo'ladi.



1972-yil "Stai yu Matnmeyker" Butsilar shunday usulda ishlab chiqarilgan ediki, bu Butsilar futbolchilarning didiga va kiyinish usuliga to'g'ri kelishi shart bo'lib, bunday butsida birinchilardan bo'lib, Djordj Best o'ynagan, lekin bunday butsilar futbolchi oyog'ini himoya qilmagan, u ko'proq oddiy tufliga o'xshagan.



1930-yil XIX asrda futbolchilar oddiy oyoq kiyim (botinka) lariga shipalarni mix bilan o'rnatib, futbol o'ynashgan.



1936-yil Charmli qalaonchalar junli qobig' bilan dastavval paypoqlar ustidan kiyilgan. Bu qalaonchalar 1880-yillarda ishlab chiqarilgan edi.




1968-yil “Manchester Yunayted” klubining sardori Bobbi Charlton Yevropa chempionlari kubogi musobaqalarida sardorlik bog‘ichi bilan maydonga chiqar edi, lekin bunday bog‘ich asosan musobaqalarning yakuniy (zarur, juda muhim) o‘yinlarida kiyilar va bu hakamga maydonda jamoa sardorini ajratib olishga yordam berar edi.

Vaqt o‘tishi bilan barcha futbol anjomlari to‘plardan boshlab darvozabon qo‘lqoplarigacha o‘zgartirilib bordi. Terma jamoalar bosh kiyimi (shapka, kepka), medallar dizaynlari ham o‘zgartirilib bordi. Ammo bu yutuqlarga ko‘pchilik sazovor bo‘la olmagan.



1990-yil. Jahon birinchiligi o‘yinlaridagi to‘p. FIFA sertifikatasi bo‘yicha zamonaviy to‘pning og‘irligi II Jahon urushidan oldingi bo‘lgan to‘pdan 30 grammga og‘ir bo‘lsada. lekin zamonaviy to‘plar avvalgi to‘plardan yengil ko‘rinadi. Buning asosiy sababi plastmas qoplama va maxsus texnologiyaning qo‘llanilishidir.

Bu to‘pning suvni o‘ziga singdirmaslik xususiyatini oshirgan.



1992-yil.

Darvozabonlarning zamonaviy qo'lgoplari esa o'z navbatida sport ashyolarini ishlab chiqaruvchilarga daromad manbai bo'lishiga zamin yaratgan. 1970-yillar o'rtasigacha darvozabonlar qo'lgoplari paxta matosidan tayyorlangan.



1948-yil. Bog'ichli to'plar Angliya federatsiyasi kubogi o'yinlari ikkita finalida sifatsiz charmdan qilinganligi uchun yorilib ketgan. To'plar o'sha payt (1948-yillarda) II Jahon urushidan so'ng sport ashyolaridan qilingan matolardan ishlab chiqarilgan.

Futbol o'yini liboslari futbol tarixi davomida muntazam o'zgarib bordi. Bugungi kunga kelib u tenglashgan va qulaylik xususiyatiga ega bo'lib, hozirgi kunda futbolda allaqanday noqulay va beso'naqay kiyimda futbolchilarni tasavvur qilish qiyindir. Futbol kiyimi hozirgi ko'rinishni kasb etishi uchun bizning ajdodlarimiz ko'p ter to'kishgan.

Futbol kiyimi.

Futbolning haqiqiy o'yinchilarida turli xil maxsus anjomlar mavjud. Ularning eng asosiylaridan biri bu futbol kiyimidir. U juda ko'p vazifalarni bajaradi. Bu kiyimi futbolchilarga o'yin paytida maydonda o'z jamoasi va raqib jamoasi vakillarini tez ajratish imkonini beradi. Bundan tashqari futbol kiyimi ko'pgina xususiyatlarga ega bo'lib, butun o'yin davomida qulaylik yaratadi. Hozirgi vaqtda futbol kiyimi ko'p afzalliklarga ega. Masalan :

1. Kiyim futbolchi tanasi nafas olishiga imkon berib, yaxshi havo o'tkazadi, bu fanning oxirgi yutuqlaridan biridir;

2. Futbol kiyimlari nam o'tkazmaydi, ya'ni suvni o'ziga shimib olmaydi.

Futbol kiyimlarini turli xil toifadagi o'yinlar uchun ishlatishadi. Ularni oliy liga jamoalari va ko'chada to'p suradigan o'yinchilar ham kiyishadi. Darvozabon va hakamlar uchun alohida kiyim tikiladi. Sportchilarning futbol kiyimi ma'lum, aniq bir o'lchamlarga mos kelishi shart. Maydonga tushayotgan o'yinchining futbolkasi, albatta, yangi bo'lishi kerak. Bir jamoa uchun aynan bir rang tanlanadi (darvozabon ko'p hollarda boshqa rang kiyishi mumkin, o'yinchilardan ajralib turishi uchun).

Shortikning rangi futbolkaning rangi bilan bir xil bo'lishi shart emas. Futbolchining ichki kiyimi har doim shortik bilan bir rangda bo'lishi kerak. Bundan tashqari futbol ustalarining asosiy futbol kiyimlariga getri, qalqoncha, (himoya vositasi (oyoq uchun) va Butsilar (futbol oyoq kiyimi) kiradi. Qalqoncha, albatta, getri bilan to'liq qoplanadi va uning asosiy vazifasi futbolchi oyoq qismining tizzadan to to'piqgacha bo'lgan qismini himoyalaydi qalqoncha ko'p hollarda plastmassadan tayyorlanadi. Futbol hakamlari va darvozabonlarning orasidagi futbol kiyimida o'ziga hos farq mavjud. Ya'ni darvozabonlarga aviter va uzun triko kiyishga ruxsat berilgan. Bundan tashqari darvozabonlar qo'lqop kiyishlari mumkin (qoidaga binoan o'yinchilarga ham qo'lqop kiyishni ta'qiqlashmaydi).

Futbol qoidasi futbol kiyimini tashkil etuvchi qismlarga erkin munosabatdadir, Asosiysi, futbol kiyimining ajralmas qismi bo'lgan anjomlar maydondagi o'yinchilarga zarar yoki shikast yetkazmasligi kerak. Shunday ekan, futbolchilar futbol maydonida turli xildagi boylagich, tizza himoyagichlari kiyishlari mumkin. O'yinchilar, hatto o'yin paytida ko'zoynak ham taqishlari mumkin (agar ko'zoynak taqilishi muhim ekanligini bahotlay oladigan sabablari bo'lsa).

Bundan tashqari futbol qonun-qoidalarida futbolchilar boshlariga muloyim bosh kiyimi yoki kaska kiyishlari mumkinligi ham ta'kidlangan. Qat'iy ta'qiq o'yinchilarning zargarlik buyumlari va soat taqishlariga qaratilgan bo'lib, bu holat- larda ham ayrim futbolchilar uzuklarini yopishqoq yoki leykoplastr bilan yopib, o'yinga tushishadi. Hakamlar bunga ruxsat berishgan. Lekin bu ko'pincha istisnoga kiradi, bu odatiy

holat emas. Bundan tashqari rezina lentalarni ishlatish ham ta'qiqlangan. Futbolka tagida sportchi istalgan narsani kiyishi mumkin, lekin asosiysi, o'sha narsa ko'rinmasligi va boshqalarga xalaqit bermasligi kerak. Ammo kiyimida futbolga tegishli bo'lmagan so'zlar yoki reklamani ko'rsatish qat'iy ta'qiqlangan. Agar bu qoida buzilsa, futbol musobaqasi tashkilotchilari futbolchini katta miqdordagi jarima bilan jazolashadi.

o'yinchilarning o'yinga to'g'ri kiyinganligi zahiradagi hakam tomonidan nazoratga olinadi, Shuni ta'kidlash kerakki, zahirada o'tirgan o'yinchilar kiyimiga ham o'ziga hos talab belgilangan, ya'ni chigil yozdi (razminka qilayotgan) mashqlarini bajarayotgan zahiradagi futbolchining kiyimi o'yinda ishtirok etayotgan futbolchilar kiyimidan ajralib turishi kerak, aks holda o'yin hakam tomonidan to'xtatiladi.

3.2. Futbol butsilari.

Butsi - futbol o'yini uchun mo'ljallangan, charmdan tayyorlangan maxsus oyoq kiyimidir. Oddiy oyoq kiyimidan butsining asosiy farqi, butsida cho'gir va maxsus qo'njning bo'lganligidadir.

Xuddi futbol o'yinining tarixi kabi futbol Butsilarning tarixi ham juda uzoqqa borib taqaladi. Uning ishlab chiqarish texnologiyasi ham futbolning rivojlanishi kabi bir xil bo'lmagan.



1920 yilgi Butsi.

Futbol Butsilari o'zining uzoq rivojlanish tarixiga ega. Bu jarayonda ular oddiy oyoq kiyimidan hozirgi zamonaviy mahsulotga aylangan. Futboldagi oyoq kiyimi haqida birinchi

bo'lib, Angliya qiroli Genrix VIII davrida aytib o'tilgan. O'yin vaqtida jarohat olgan Genrix VIII o'zining shaxsiy etikdo'zi Komelius Djonsonga o'zi uchun maxsus oyoq kiyimi tikishiga buyruq beradi. 1526-yil qirolning garderoblar ro'yxatida futbol Butsilari katta garderoab ro'yxatida turardi. Afsuski, bugungi kungacha o'sha Butsilar saqlanmagan.

Futbol Butsilarining tarixini tahlil qiladigan bo'lsak, u 1800-yillarga borib taqaladi. XIX asrda futbolchilar og'ir oyoq kiyimini o'yinlarda ishlatishgan. U esa o'zining oldingi qismida metall (vstavka) va uzun bog'lagichda bo'lgan. Bunday oyoq kiyimi metallardan qilingan shikalardan iborat bo'lib, u oyoqlarga quvvat bergan. Futbol Assosiatyasi 1863-yilda bunday oyoq kiyimni o'yinchilarga jarohat yetkazmasligi uchun o'yinlarda ishlatishni ta'qiqlab qo'ygan.

1891-yil futbol qoidalariga o'zgartirishlar kiritilib, ushbu qoidaning 13-bandida cho'gir charm bo'lsa va uzun bo'lmasa, ulardan foydalanishga ruxsat berilganligi yozilgan edi. Aylana shakldagi cho'gir futbol Butsisining poshnasiga urilgan va bu kiyim maxsuslashtirilgan futbol oyoq kiyimi hisoblanib, u o'ziga hosligi bilan oddiy botinkalardan farq qilgan.

XX asr boshlari va II-jahon urushi oxirigacha futbol butsilariga deyarli o'zgartirishlar kiritilmadi. 1925-yildan boshlab ishlab chiqaruvchilar al-mashtiradigan (olib qo'yadigan) shikalardan foydalashni boshladilar. 1950-yil o'rtalarida butsi uchun rezkali, almashtiriladigan shikalar chiqishi hammani hayratga soldi. Bunday shikalarni almashtirish oson va qulay edi. Qolaversa, bu Butsilar har qanday ob-havo sharoitiga moslashgan mahsulotdan tayyorlangan edi. Lekin futbol butsilari hali ham vazn borasida og'ir, to'piq ustini yopadigan uzun himoyalovchi narsadan edi.


Futbol uchun oyoq kiyimlarini ishlab chiqaruvchilar odatdagiday uzun qoplamali va og'ir butsilarni chiqarayotgan bo'lib, Shimoliy Yevropada bu turdagi oyoq kiyimi uzoq vaqt davomida barchaga ma'qul deb qabul qilingan edi. Chunki ko'pincha futbolchilarning nam va og'ir futbol maydonlarida o'ynashiga to'g'ri kelar edi.

Janubiy Yevropa va Janubiy Amerikada ancha yengil va qisqa qoplamali futbol butsilari rivojlana boshlandi. Chunki bu yerda futbol o'yini maydoni nam va og'ir emas edi. 1960-yillarda

butsilarning dizayniga muhim o'zgarishlar kiritish boshlandi. Past qoplamali butsilar hamma joylarda qo'llanila boshlandi(bu oyoq kiyimi oyoqning to'piq qismini yopmaydigan edi).

Dizayndagi bundagi o'zgarishlar futbolchilarning maydonda tez ha- rakatlanishlariga yordam bergan. Futbol butsilarining texnologiyasi va dizaynida muhim mukammallikni 1990-yil "Adidas" kompaniyasi ishlab chiqardi. Bunday futbol butsilari modeli (shakl)ni ishlab chiqaruvchi sobiq "Liverpool" klubi futbolchisi Kreyg Djonson edi. Djonson "Adidas Predator" modeli (shakli)ni ishlab chiqardi, bu butsi esa futbol maydoni, chim (gazon) bilan yaxshi mutanosiblikda edi. Ya'ni bu butsi bilan maydonda o'yinchi yugurgan vaqtda ham, to'p urganda ham oson va qulay edi. Bugungi kunda futbol Butsilari tarixida "Adidas Predator" modeli juda ham muvaffaqiyatli modellardan hisoblanadi.

Yangi yuz yillikda yassi tekis shipali (yaxlit) poshnali Butsilar ham mashhur bo'ldi. Bunday futbol butsilari futbol maydoni yuza sirtida maksimal harakatlanish uchun juda yaxshi. Ammo oxirgi vaqtlarda futbolchilarning ko'plab jarohat olishini aynan shu butsilarning ishlatilishi bilan bog'laydilar. Angliyaning yetakchi klubi "Manchester Yunayted" klubi o'zining o'yinchilariga o'yinlarda bu butsilardan foydalanishni man etgan.



Futbol o'yini uchun oyoq kiyimi butsilarining rivojlanish takomillashish tarixi:

1526-yil: qirol Genrix VIII hukmdorligi davrida eng birinchi futbol Butsilari haqida yozilgan.

Qirol Genrix o'yinda jarohat olgandan keyin o'ziga alohida futbol uchun oyoq kiyimi tayyorlashga buyruq bergan.

1800-yil: bu vaqtlarda juda ham qo'pol o'ynaganlar. Futbol oyoq kiyimi sifatida charmli ishchi botinka, uzun shnurkali va barmoqlarni himoyalaydigan temirdan foydalanishgan.

1800-yil oxirida: futbol butsisi qalin va qattiq charmdan tayyorlangan. Himoya uchun ularda charmli shipa bo'lib, ularning og'irligi 500 gramm edi.




XIX asr oxiridagi futbol Butsisi.

1925-yil: olinib almashtiriladigan birinchi shipalar namoyish qilinib, shipalarning joylashishi ob-havo sharoitiga qarab ko'paytirilgan.

1940-yil: futbol butsilarini ishlab chiqaruvchilar yengil vaznli butsilarni tayyorlash, ishlab chiqaruvchilar oddiy himoya poyafzaldan ko'ra zarba va to'pni egallashga moslashtirilgan oyoq kiyimi, ya'ni butsilarni ishlab chiqarishga diqqatlarini qaratgan edilar.

1950-yil: futbol butsilari rezinali yoki plastikdan qilinadigan shipalari bilan poshnaga burib kirgizilib, almashtiradigan qilib ishlab chiqarildi.





1950-yil: Butsilar avvalgiday oyoqning to'piq qismini yopadigan, lekin bunda sintetik material qo'shib ishlab chiqilgan, bu esa Butsi vaznini ancha yengilroq holatga keltirgan.

1960-yil: dizaynda o'zgarish vaqti, endi birinchi marta oyoqning to'piq qismini yopmaydigan futbol butsilari ishlab chiqildi.

1970-yil: bu o'n yillik futbol butsilarni ishlab chiqaruvchilar o'yinchilarga homiylik qilishi bilan esda qolgan edi. O'yinchilarga o'yinda qaysi ishlab chiqaruvchi korxonalarining ishlab chiqargan butsilarini kiyishsa, ularga mablag' to'lanardi.



1970-yil: texnologik ishlab chiqarishlar futbol butsilarini oson tayyorlashga yordam berdi. O'sha yili birinchi oq rangli butsi tayyorlandi.

1990-yil: ayrim ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan oddiy butsi shiplari tig'ga o'xshash shipalarga almashtirildi, bu esa o'yinchilarga maydonda yanada mustahkamlik va turg'unlikni berardi.

2000-yil: futbol butsilarini ishlab chiqaruvchi (korxonalar, firmalar) yengil va o'yinchilar oyog'ini to'pig'idan quyi qismini himoya qiladigan butsilar ustida ish boshlaydilar.



Futbol Butsilari tasnifi.

SG (Soft Ground).

Nam va yumshoq futbol (gazonlari) maydonlar uchun. Bu turdagi Butsilar rezbali almashinadigan shipli bo'lib, kerak bo'lgan vaqtda shiplar boshqalariga osongina almashtiriladi. Futbol maydoni inobatga olinib, shiplarning kerakli kattaligidan va ishlatiladigan materiali tanlanadi.

FG (Firm ground).

Ko'pchilik tabiiy va qattiq futbol maydonlari uchun mo'ljallangan. Tekis va aylana shakldagi shiplar ko'pincha TPU (termoplastik uretan) yoki PU (poli uretan) materiallardan tayyorlangan. Ko'pchilik futbolchilar shu turdagi futbol butsilarini tanlaydi. Chunki bu oyoq kiyimi ochiq futbol maydonlarida yaxshi yuguriladi va oyoqqa turg'unlik beradi.

HG (Hard Ground).

Sun'iy yoki tabiiy maydonlar uchun mo'ljallangan. Bu turdagi butsi kalta shiplardan iborat bo'lib, butsining poshna qismida shiplar bir me'yorda joylashgan. Shiplar tekis va aylana shaklda bo'lib, ular maydonda yugurishni va mustahkamlikni ta'minlaydi.

FG (Firm ground).

Ko'pchilik tabiiy va qattiq futbol maydonlari uchun mo'ljallangan. Tekis va aylana shakldagi shiplar ko'pincha TPU (termoplastik uretan) yoki PU (poli uretan) materiallardan tayyorlangan. Ko'pchilik futbolchilar shu turdagi futbol butsilarini tanlaydi. Chunki bu oyoq kiyimi ochiq futbol maydonlarida yaxshi yuguriladi va oyoqqa turg'unlik beradi.

HG (Hard Ground).

Sun'iy yoki tabiiy maydonlar uchun mo'ljallangan. Bu turdagi butsi kalta shiplardan iborat bo'lib, butsining poshna

qismida shipalar bir me'yorda joylashgan. Shipalar tekis va aylana shaklda bo'lib, ular maydonda yugurishni va mustahkamlikni ta'minlaydi.

Futbol butsilari ishlab chiqaruvchi firmalar.

XXI asr boshlarida "Nike", "Puma", "Adidas" (2006-yilda "Adidas" va "Reebok" qo'shilishgan) kompaniyalarining ilmiy-tekshirish borasidagi yutuqlari ularning, jahon bozoridagi mavqelarini yanada mustahkamladi. Jahon bozorida sport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar "Diadora", "Lotto", "Mizuno", "Joma", "Nomis", "Kelme", "Hummel", "Demix"ning ham o'z hissalarini bor.

Bugungi kunda mashhurligi bilan quyidagi futbol butsi modellari mavjud:

- "Nike Mercurial Vapor V FG",
- "Nike Mercurial Superfly FG",
- "Adidas Copa Mundial FG",
- "Nike Total 90 Laser II FG",
- "Adidas Predator X FG",
- "PUMA vl. 10 FG",
- "Adidas adchizimchaURE II TRX FG",
- "Nike CTR 360 Maestri FG",
- "Nike Tiempo FG".

Oxirgi yillarda dunyoda "Nike" va "Adidas" firmalari sport kiyimlari ishlab chiqaradigan eng nufuzli korxonalar hisoblanadi. Futbolchilar orasida bu korxonalar mahsuloti ko'proq mashhur.

Butsi asrlar mobaynida.

O'tgan 300 yil davr vaqtida futbol va uning atributikasi rivojlanishi uchun ushbu davr omadsiz qora vaqtlar davri edi. O'sha davrdagi qoida bo'yicha barcha poshnali etiksimon butsilar ta'qiqlandi.

Ammo 1891-yil mavjud qonun qayta ko'rib chiqilib, futbol butsilariga shpilka ishlatilishiga ruxsat berildi. O'shanda ham agar u talab me'yori darajasida charmdan, yarim dyum uzunligi va material bilan mahkam bo'lib bir xil darajada bo'lsa.



1925-yil aqlli nemis aka-uka Dasslerlar (Adolf va Rudolf, keyinchalik Adidas va Puma formasiga chiqqan) almashinadigan shipalarni ixtiro qilishdi. Ularning oyoq kiyimi olti-yettita shpilkadan iborat bo'lib, o'yinlar vaqtida ob-havo sharoitiga qarab almashtirsa bo'ladigan edi. Aynan "Adidas" korxonasi 1954-yilda futbol butsilarini tayyorlashi bilan G'arbiy Germaniya dunyo kubogini qo'lga kiritdi va bu korxonadan hanuzgacha Germaniya futbol terma jamoasini o'zining sport tovarlari bilan ta'minlamoqda.

"Adidas" korxonasi uchun futbol butsisini ishlab chiqarishda 1960 - yillargacha raqobatchi bo'lmay, "Adidas" korxonasi savdo bozorida monopol edi (binobarin, uning nazorat kuchli edi). 1966-yilgi jahon kubogida 75% o'yinchilar "Adidas" korxonasi butsisini kiyib o'ynashgan. "Adidas"dan keyin yana futbol butsilarini ishlab chiqaruvchi oltita korxonadan paydo bo'di. Bular "**Gola**" (1905-yilda tashkil qilingan), "**Val-sport**" (1920), "**Hummel**" (1923), "**Mitra**" (1960), "**Joma**" (1965) i "**Asics**" (1964).

Ammo 1956 yil "Adidas" korxonasi futbol butsilarini ishlab chiqarishda ikkita voqea birinchi xomashyo ishlatishda yagona bo'lib charm o'rniga "poliamid"ni qo'shib, ikkinchisi esa kenguru tuki charmini yoki K - charmini (uni gohida shunday atashadi) ishlatishdi. Bunday oyoq kiyimlarining ustki qismini ishlab chiqaruvchilardan eng zo'ri edi. Qariyb 50 yil bu charm futbol butsilarini uchun eng yaxshi hisoblanib kelmoqda. Bundan oldingi butsilar yetakchi futbolchilar uchun butsi oyoq kiyimini olib yurish qiyinchilik tug'dirgan. Hozirgi davrda o'yinchilarning kiyishi jihatidan qulay va ularning maydonda yaxshi yugurishi uchun 12 shpilik butsilar ishlatiladi.

1997-yilda futbol butsilari olamida zo‘r Butsi - “Adidas Copa Mundial” nomli butsi paydo bodadi. O‘sha vaqtlarda esa “Lotto”, “Puma”, “Umbro”, “Diadora”, “Mizuno”, “Patrik”, “Kappa”, “A-Line”, “Reebok” va “Nike” butsilar ishlab chiquvchilar bozorida ko‘plab korxonalar bor edi.



«Followingdecade» futbol butsilari uchun rivojlanish yili bo‘ladi, shu bilan birgalikda, «Adidas Predator» ham.

Kelajakdagi butsilar orzusi.

“Adidas” va “Nike” futbol butsilarini ishlab chiqish va savdo bozorida peshqadamlik qilishda davom etayotgan bir paytda, ularning mashhurligi va xajmi uncha katta bo‘lmagan sport kiyimlarini ishlab chiqaruvchi “Puma”, “Diadora”, “Umbro”, “Mitre”, “Gummel”, “Kelme”, “Loto” va “Gola”dek korxonalar ma’qullashgan. Bu korxonalar esa “Reebok”, “Puma”, “Adidas” va “Nike” kabi korxonalar bilan raqobatlashishda maxsuslashtirilgan va ilg‘or texnologiyalarga tayanmoqdalar.

Kelajakdagi butsilar har bir o‘yinchiga mos individual usul, oyoq o‘lchamlari shishada olinib va o‘shanga mos qilib ishlab chiqariladi.

Zamonaviy butsilar.

Zamonaviy butsilar nafaqat tabiiy charmdan tayyorlanadi, balki ishlab chiqaruvchi korxonalar tabiiy materiallardan tayyorlashni afzalroq ko‘rishadi. “Nike” korxonasi esa bu yo‘nalishda haqiqiy yuksalishga erishib, butsini aniq

futbolchining mahoratiga taalluqli qilib ishlab chiqardi (tezlik, kuchli zarba, texnika). Bundan tashqari, bu korxonada maxsus po'shna (karbon) ishlab chiqardi bu esa futbol butsisining og'irligini 105 grammdan oshmasligini ta'minlaydi.

3.3 Futbol qalqonchalari.

Futbol qalqonchasi - bu futbol kiyimi (formasi)ning ajralmas anjomi hisoblanadi. Qalqonchalar birinchi navbatda oyoqqa jismoniy jarohat etishidan saqlash uchun mo'ljallangan.



Futbol qalqonchalari tarixi.

Taxminlarga ko'ra, Qalqonchadan birinchi foydalangan futbolchi Angliya "Nottingham Forest" klubi o'yinchisi Sem Ueller Uiddoson hisoblanadi. Bu futbolchi 1874-yilda oyoqni himoyalash uchun junli getri ustidan bir juft qalqonchani ishlagan. Boshida bu yangilik o'yinchilar tomonidan qabul qilinmadi, ammo keyinchalik futbolchilar qalqonchadan foydalana boshladi. Birinchi futbol qalqonchalari maydonda futbolchining erkin harakatlanishini qiyinlashtirgan va o'yin sifatini pasaytirgan. Keyinchalik, futbol qalqonchalarning qisqa variantidan foydalana boshlangan. Ammo bunday himoya variantlari oyoqning oldingi qismi jarohatlanishiga olib kelgan.

Mo'ljallanganligi.

Futbol qalqonchasi, birinchi navbatda, sportchi tomonidan olinadigan zarba, yuklamani butun yuza bo'yicha tarqatishga va oyoqqa olinadigan zarba kuchini kamaytirishga yordam beradi.

Materiallari.

Zamonaviy futbol qalqonchasi materiallari zarbani o'ziga yutib oladigan xususiyatlar va futbolchilar oyog'ini jarohatdan saqlaydigan xususiyatlarga ega. Futbol qalqonchalari quyidagi sintetik materiallardan ishlab chiqariladi:

Shishatola qattiq, mustahkam va yengil material;

Kichik g'ovakli rezina yengil, ammo shishatola materialidek og'ir va mustahkam material, u jarohat yetkazadigan zarbaga qarshi yaxshi himoyachi vazifasini bajaradi;

Plastik himoyalovchi darajasi katta bo'lmagan yengil material.

Futbol qalqonchalari qanday maqsadda ishlatiladi?



Katta boldir suyagining pastki va ustki qismi teriga yopishgan bo'lib, uni muskullar qayishqoqlik o'rab olmaganligi sababli yetishmaydi. Shuningdek, berilgan zarbalar natijasida katta boldir suyagi jarohatlanishi va shikastlanishiga moyil bo'ladi. Oyoq suyaklarida og'riqni sezuvchi to'qimalar ko'p bo'lganligi sababli bunday jarohatlanish juda ham ayanchli hisoblanadi

Futbol qalqonchalari turlari.

Futbol qalqonchalari himoyalovchi darajasiga qarab ikki turga bo'linadi: oyoqning to'piq qismi, axil payini va ularsiz. Birinchi turdagi qalqoncha ko'proq to'piqni himoyalash vazifasini ta'minlaydi. Ikkinchi turdagisi esa yengil, qulay, arzon, ammo bu turdagi qalqonchalar olinadigan jarohat va shikastlar yet- kazilishining oldinini kamroq oladi. Futbolchilar ko'pincha ikkinchi turdagi qalqonchalar bilan o'ynashni afzal ko'rishadi. Ammo sport shifokorlari o'rtoqlik o'yinlari bo'lsa ham oyoqlarni maksimal darajada himoyalashni maslahat berishadi, chunki bu o'yinlarda ham sportchi jiddiy jarohat olishi mumkin.



Shuningdek, qalqonchalar jipslashgan va ichiga qo'yiladigan kabi turlariga bo'linadi (yengillashtirganlari). Osonlashtirilgan qalqonchalar, asosan, yosh sportchilar tomonidan ishlatiladi.

Futbol qalqonchalari oyoqlarni bir qator jiddiy jarohatlardan saqlaydi. Zamonaviy professional futbolda ulardan foydalanish (taqish) zarur hisoblanadi.

3.4. Darvozabonlar kiyimi (futbolkasi).



Bu borada ham darvozabonlar qo'loqlari singari ham tanlash imkoniyatlari katta. Darvozabon kamzuli yoki futbolkasi uzun yoki kalta yengli bo'lishi mumkin va agar maydon yaxshi holatda yumshoq bo'lsa, yengli kalta kiyim kiyilishi yaxshi hisoblanadi, agar maydon sifati yomon bo'lib, buning ustiga toshloq bo'lsa, qo'llarning tirsakdan bilakkacha bo'lgan qismining jarohat olishi ko'proq yuzaga kelishi mumkin. Toshloq va sifati pastroq bo'lgan maydonda uzun yengli kamzulda o'yinga tushish maqsadga muvofiqdir. Ularni ikki turga: himoya vositasi (odatda himoya vositasi o'rniga porolondan yoki unga o'xshash matodan qilingan himoya vositalari) va himoyasiz vositalarga ajratsa bo'ladi.

Darvozabon o'ziga forma (sviter) tanlashda maydon holati va sifatini hisobga olishi kerak. Toshli maydonda himoya vositali forma kiyish maqsadga muvofiq, sun'iy qoplamali maydonda esa ham himoya vositali, ham himoya vositasiz bo'lgan forma kiya bo'laveradi. Boshqa bir variant ham bor, ya'ni tagidan kiyiladigan futbolkani himoya vositalisi tanlanib kiyiladi, ustidan esa o'yin uchun mo'ljallangan sviter kiyiladi. Ichki futbolkaning himoya

vositasi ekanligi shunisi bilan afzalki, u tana (qod, oyoq va tirsaklar)ni zich qoplab, himoya vositalari kerakli joyni himoya qila oladi, lekin forma (sviter)lar futbolkalarga qaraganda ancha keng qilib tikiladi va forma (sviter)lardagi himoya vositalari ko'p hollarda darvozabon to'pni qaytarish uchun sakraganda kerakli joyni himoya qila olmaydi, chunki u badanga bevosita qoplangan bo'lmaydi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, himoya vositalari asosan yiqilganda tananing ma'lum bir qismining shilinishi va zhandiqdan himoya qilinishi uchun ishlatiladi. Ammo ular tuyakning sinishi va qo'l-oyoqning chiqishi kabi jarohatlardan himoya qila olmaydi.

Agar darvozabon jarohat olishni xoxlamasa, o'zi ustida ko'proq ishlab, yiqilganda to'g'ri tusha bilishni mashq qilishi kerak, chunki to'pga sakraganda yerga to'g'ri tusha olmagan darvozabon jiddiy jarohat olishi mumkin, bunda hatto himoya vositalari ham yordam bera olmaydi. Darvozabon formalarini (sviter) tanlashda juda ham e'tiborli bo'lishi kerak.

Agar darvozabonning formasi (sviter) sintetik matodan qilingan bo'lsa, o'yinda darvozabon unda qizib ketadi, chunki tana sintetik mato ichida nafas ololmaydi. O'yin davomida u ho'l bo'lib, tanaga yopishadigan bodib qoladi. Hozirda buning oldini olish uchun ko'pgina texnologiyalar qo'llanilmoqda. Hamma yirik korxonalar ("**Adidas**", "**Nike**" va h.k.) sportchilar talabini inobatga olgan holda darvozabon forma (sviter)larini ishlab chiqarishmoqda. Mashg'ulotlar uchun ob-havoga qarab yangi uskun bo'lgan istalgan forma (sviter)larni ishlatish mumkin. Novuq havo uchun esa qalin paxtadan qilingan forma (sviter)lardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ayrim ishlab chiqaruvchilar sviterlarning ko'krak va yeng qismida silikon himoya vositasidan foydalanishni afzal ko'rishadi. Bu esa to'pni yaxshi ushlab olishga imkon beradi. Darvozabon sviterning o'rtacha narxi 35 - 100 \$ (dollar)ni tashkil etadi, bunda "**Nike**", "**Adidas**", "**Umbro**" korxonalarining sviterlariga asosiy e'tibor qaratish joizdir.

3.5. Darvozabon qo'lqopi.



Qo'lqoplar tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Hozirgi ko'rinishidagi qo'lqoplar miloddan avvalgi X-XVIII asrlarda paydo bo'lgan. Ungacha esa odatda qo'llar uchun xal-tachalar ishlatilib, ularda barmoqlar uchun bo'shliqchalar yo'q edi. Eng qadimgi qo'lqoplar qadimiy Misr fir'avni Tutankamon qabridan topilgan. Qadimgi rimliklar qo'lqoplardan o'ta og'ir mehnat bajarishganda, sovuqdan himoya qilish va ovqat tanovul qilganda foydalanishgan.

O'rta asr va Renessans davri (XI - XV asrlar) Yevropada qo'lqoplar ommalashuvi davri bo'ldi. Odatiy vazifasidan tashqari, qo'lqoplar hukmronlik belgisining ajralmas bo'lagiga aylandi, ya'ni qo'lqoplar qirol va qi-rolicha, sud hakamlari va ruhoniylar (yepiskoplar) kundalik hayotida odatiy bo'lgan edi. Qo'lqop ritsarlik etiketida katta o'ringa ega bo'lib, muhr singari katta kuchga ega bo'lib, qo'lqop egasining ijtimoiy hayotda qanday mavqeyga ega ekanligini ko'rsatib turar edi.



Qo'lqop taqib yurish davri XIX asr oxirigacha davom etdi, o'sha davrlarda qo'lqopsiz tashqariga chiqish odobsizlik sanalgan.

O'zini hurmat qilgan har bir ayol o'z kiyim javonida kamida o'n juft qo'lqopga ega edi. Keyinchalik XX asrda qo'lqoplar o'z ahamiyatini yo'qotdi va bezak sifatida ham qo'llanilmay qo'ydi. Qo'lqoplar endilikda o'zining odatiy vazifasini, ya'ni qo'llarni ovuqdan himoya qiladigan odatiy narsaga aylandi.

X asrning 60 - yillariga kelib odatiy charm qo'lqoplar o'z o'rnini sport qo'lqoplariga bo'shatib berdi. Biroq XX asrning 80-yillaridan jahon modasi qo'lqoplarni kiyadigan kishilar asosiy kiyim sifatida ular javonidan muhim o'rin egallagan. Charmdan qilingan bejirim qo'lqoplar ishlab chiqarilishi boshlandi. Hozirgi kunda zamondoshlarimizning kiyim javonidan uch juft qo'lqopning topilishi yoki topilmasligi katta so'roq ostida. Leldn XIX asrning boshida har bir erkak kishi kunida olti marotaba qo'lqopini almashtirishi majburiy sanalib, bu odatiy kundalik zarifaga aylangan edi. Birinchi qo'lqoplar bejirim ko'rinishga ega bo'lib.

Qo'l uchun xaltacha sifatida tikilgan va bilakka bog'lab qo'yilgan. Bunday qo'lqoplar qadimgi Misrda miloddan oldingi ming yillar oldin bo'lgan, deb olimlar takidlashgan. Keyinchalik o'sha qo'lqoplarda katta barmoq uchun alohida joy tikib, Misrlik ayollar ushbu qo'lqoplardan ovqat iste'mol qilish vaqtida foydalanishgan. Qo'lqoplarning eng qadimiysi Misr fir'avni Tutanaxamon qabridan topilgan bodib, Misr ayollari kiygan

qo'rqopdan farqli o'laroq, har bir barmoq uchun alohida joy ajratilgan. Qadimgi gretsiyaliklar qo'rqop kiyadigan odamlarni yoqtirishmagan, ularning fikricha, qo'rqop kiyadiganlar nozik kishilar bodib, ular ko'pchilik tomondan qoralangan. Bo'rqon yarim orolida ob-havo xuddi hozirgidek iliq bodib, qo'rqop kiyishga hojat bo'lmagan. Greklar, asosan, qo'rqopni jismoniy mehnat bajarishganda kiyishgan.

Hatto, grek yozuvchisi Gomerning "Odisseya" asarida qo'rqop haqida so'z yuritilgan. Biroq qadimgi rimda deyarli hamma odamlar qo'rqop kiyishgan. Rimliklar qo'llarini nafaqat sovuqdan turli xil chang-to'zondan, balki issiq ovqatdan ham himoya qilish maqsadida qo'rqop kiyishgan. Rimliklarning oshxonasida ovqatni olish uchun asboblari bo'lmagani sababli, ular qalin qo'rqoplarda issiq quyuk ovqat bo'laklarini olishgan, bu esa ular uchun ancha qulay hisoblanib, ovqat qo'lni kuydirmagan.

O'rta asrlarda qo'rqoplardan foydalanish ommalashdi. Qizig'i, qo'rqoplarda faqat katta barmoq va kaft qism bo'lib, alohida har bir barmoq uchun joy ajratilmagan va ular shaklan askarlar va ovchilar kiyadigan qo'rqoplarga o'xshab ketgan. Eng chiroyli va qimmat qo'rqoplar qirol va din peshvolariga tegishli bo'lib, ular kumush, oltin va qimmatbaho toshlar bilan tikilgan. Tarixchilar fikricha, qo'rqoplarning ommalashishi o'rta asrga to'g'ri kelgan bo'lib, aynan o'sha paytlarda qo'rqop insonlarning ajralmas kiyimlaridan biriga aylangan.

Birinchi navbatda qo'rqop kuch-qudrat ramzi bo'lgan. Ya'ni yepiskoplar lavozimga tayinlanganida, ritsarlar qasamyod qabul qilishganida va shahar vakillaridan biron-biri kengashga saylanganda, ularga kuch-qudrat ramzi sifatida qo'rqop berilgan. Misol uchun tijorat qilish va tanga zarb qilish huquqi qirol qo'rqopini olish bilan kuchga kirar edi. Hatto sud hakamlari ham o'z ishini qo'rqop kiyish bilan boshlashar edi. Albatta, qo'rqoplar o'rta asrlarda ritsarlar hayotida muhim o'ringa ega edi. Ya'ni, kishining yuziga tashlangan qo'rqop nafsoniyatga tegishning eng jiddiy usuli bo'lib, u orqali duelga chaqirishgan. Ayol kishidan olingan qo'rqop o'sha ayolning samimiy munosabatidan darak berib, odatda ritsarlar bunday qo'rqoplarni kechalari ham o'zlari bilan saqlab, bel yoki tomoqdagi maxsus ajratilgan xaltachalarda saqlangan. XII asrga kelib, Yevropada maxsus kasb qo'rqopi

paydo bo'ldi, bu kasb o'ta hurmat belgisi hisoblangan. Albatta, qo'lqopni qo'l o'lchamlariga moslab tikish va qimmatbaho toshlar yoki naqshlar bilan bezash uchun ko'p mehnat talab etilgan. Bunday san'at asarini o'sha paytlarda hamma ham o'ziga ep ko'ra olmagan. Shunday qilib, qo'lqoplar to'laligini to'kin - sochinlik belgisi sifatida qaray boshlashdi va qo'lqopni nafis va chiroyli ishlanganligi uning ko'payishining mavqeini belgilab bergan.

3.6. Futbol to'plari.

Futbol to'pi.

To'p aylana (sfera)ga ega bo'lgan charmdan yasalgan jismdir. Uning o'lchamlari futbol o'yinining ikki qoidasi bilan tartibga solinadi.

Tarixi.

Ilk futbol to'plari hayvonlarning siydik qovuqchalaridan qilingan bo'lib, unga qattiq zarba berilgach, yaroqsiz holga kelib qolar edi. Futbol to'pining ishlab chiqarish usuli 1838-yilda Charlz Gudier tomonidan vulkanizatsiyalashtirilgan kauchuk tutiro qilinishi bilan o'zgardi. 1855-yilda Gudier rezinadan ishlab chiqarilgan to'pni birinchi bo'lib omma e'tiboriga havola etgan. To'pga rezinani qoplash to'pning sakrash xususiyati va mustahkamligini oshiradi.

Yetti yildan so'ng, 1862-yilda boshqa bir ixtirochi Richard Lindon birinchi dam (havo) uriladigan rezinali kamerani kashf etdi, keyinchalik to'p uchun ixtiro qilgan rezina kameraga qo'shimcha sifatida nasos ixtiro qildi va Londonda bo'lgan bo'lgazmada uning ixtirosi medalni qo'lga kiritdi. Kauchukning tutiro qilinishi, dam uriladigan kameraning ixtiro qilinishi futbol to'plarini ishlab chiqarish uchun zaruriy texnik sharoitni yaratib berdi.



1863-vilga kelib, Angliya futbol assosiatsiyasiga asos solindi va u futbol qoidalarini tartibga solishga kirishdi. o'sha paytlar qoidalarda to'p haqida hech nima deyilmagan edi. 1872-yilda futbol to'pining aniq va qattiy hajmi va og'irligi belgilab qo'yildi.

Ungacha futbol o'yinida to'p og'irligi va hajmi o'zaro ikki tomonning roziligi bilan kelishilgan bo'lsa, endi qattiy qonunga binoan futbol to'pi aylana shaklda bo'lib, 68,6 dan 71,7 smgacha bo'lgan hajmga ega bodishi kerak. To'pning og'irligi esa o'rtacha 368 dan 425 gramm bo'lishi belgilab qo'yildi. 1937-yilda esa to'pning og'irligi 410-450 (396-453) gramm deb belgilab qo'yildi va shundan buyon bu qoida o'zgargani yo'q. 1888-yili Angliyada futbol ligasiga asos solindi. Bu liganing buyurtmasiga binoan futbol kompaniyalari bo'lmish "Mitre" (Mitre) va "Tomlinson" (Thomlinson) tomonidan ommaviy sur'atda to'plar ishlab chiqarila boshlandi. XX asrda to'pning sifati kauchukli kamera va pokrishka tufayli to'p katta bosimga ham chidamli bo'ldi. Pokrishka tabiiy teridan ishlab chiqarilib, 18 paneldan tashkil topgan bo'lib, ularning har bin chiziqcha (shnurki) bilan tikilar edi. 1960- yillarga kelib to'liq sintetikadan qilingan futbol to'plari ishlab chiqarila boshlandi. Tabiiy teri hali ham ishlatilar edi, lekin 1980- yillarga kelib, futbol to'plarini ishlab chiqarishda sintetikaga to'liq o'tildi.

Futbol to 'pining tarkibiy qismlari:

1. qoplama;
2. astar;
3. havo.

Qoplama - asosan, sintetikadan ishlab chiqariladi, chunki tabiiy teri namni o'ziga so'rib olib, to'pning og'irligini oshiradi. Hozirda sintetikaning tabiiy teriga qaraganda bir qancha afzalliklari bo'lganligi sababli tabiiy teri unchalik ishlatilmay qo'yildi. Odatda, PU (poliuretan), PVC (polivinilxlorid) pokrishka ishlab chiqarishda ishlatiladi, Ko'pchilik futbol to'plari mav o'tkazmaydigan 32 panellardan iborat bo'lib, panellarning 12 tasi beshburchak va 20 tasi oltiburchak shakliga ega. Panellarni mashinada yoki qo'lda tikishadi yoki bo'lmasa kley bilan yopishtirishadi.

Bu 32 panelli ko'pburchaklardan tashkil topgan shakli – ikonaedr sharga unchalik o'xshamaydigan geometrik shakl, faqatgina shu orqali bo'laklar orasida yetarlicha tikuv joyi qoldirilib, aylana (sfera) shakli esa havodonga berilgan dam hisobiga erishiladi.

Bu usulda birinchi to'pni 1950-yilda Daniya mamlakatida ishlab chiqishdi va uni "Select" kompaniyasi ommaga taqdim etdi. Bu to'p tez orada butun Yevropada mashhurlikka erishdi. 1970-yilgi jahon futbol chempionatida bu turdagi to'plar "Adidas" firmasi tomonidan ishlab chiqildi va undan avvalgi to'plar 18 panelli qismdan tashkil topgan bo'lib, chizimcha (shuurok) orqali bir-biriga birlashtirilgani uchun shakl va ko'rinish jihatidan zamonaviy voleybol to'plariga o'xshab ketgan.

2004-yil "Adidas" kompaniyasi Yevropa chempionati uchun "Roteiro" nomli to'plarini etiborga havola etdi. "Roteiro" to'plarining qismlari bir-biriga mutlaqo yangi usul bilan, ya'ni bosiqlik texnologiyasi usulida birikkan edi. 2006-yili Germaniyadagi Jahon chempionati finali "Teamgeist" nomli to'p bilan o'tkazilgan. Shu yili "Adidas" an'anaviy 32 panelli futbol to'pidan chekingan hol da 14 panelli ishlab chiqargan to'pni ommaga havola etdi. Panellar bir-biriga termal birikish usuli orqali yopishtirilgan edi.

2010-yilgi Janubiy Afrikada o'tkazilgan Jahon futbol chempionatining rasmiy to'pi sifatida "Adidas" korxonasi "Jabulani" nomli to'pni taqdim etdi. Futbol to'pi 8 ta termal birikish orqali yopishtirilgan qismlardan tashkil topgan edi.



Astar. Qoplama va havo o'rtasida qo'yiladigan material astar bo'lib, futbol to'pining sifati, asosan, o'sha podkladkaning qalinligiga bog'liq. Podkladka to'pning sakrash xususiyati va uning shaklini saqlashga xizmat qiladi. Uni ishlab chiqarishda poliester yoki bo'lmasa, presslangan paxta ishlatiladi. Zamonaviy futbol to'plar to'rt va undan ortiq qavatdan iborat bo'lishi mumkin.

Havodon - odatda, sintetik butil yoki bo'lmasa tabiiy lateksdan, gohida esa poliuretandan ishlab chiqariladi. Lateksdan qilingan havodonlarda dam butildan qilingan havodonlarga qaraganda kam vaqt saqlanadi. Lekin lateksdan qilingan havodonlarning butil yoki poliuretandan qilingan havodonlardan 3 asosiy o'lchamlari bilan ustundir: 1 - yumshoqlik; 2 - sakrash xususiyati; 3 - qayishqoqlik.

To'pning sifat vaxususiyatlari. To'p aylana (sfera) shakliga ega charm yoki shu maqsadda ishlatiladigan boshqa bir materialdan ishlab chiqariladi. Aylana uzunligi 70 sm dan oshmasligi va 68 sm dan kam bo'lmasligi kerak. To'pning o'lchami standart 5 (ingl Size 5) bo'lishi kerak.

O'yin boshida (396-453 g) 450 grammdan oshmasligi va 410 grammdan kam bo'lmasligi kerak (quruq to'p uchun);

0,6 1,1 atmosferaga teng keladigan bosimga (600 - 1100 g/kv. sm) dengiz sathida.

To'pning o'lchamlari. (1 dan 5 o'lchamdagi bo'lgan to'plarga tasnifi).

1 - o'lchamli to'plar. Bu turdagi to'plar, asosan, reklama maqsadida ishlab chiqarilib, biror-bir firmaning belgisi ostida sotuvga chiqariladi va odatda 32 paneldan tashkil topgan bodadi (12 beshburchak, 20 oltiburchak). Ularning aylana uzunligi 43 sm dan oshmaydi. Bu o'lchamdagi to'plar odatiy futbol to'plaridan faqatgina o'lchamlari jihati bilan farqlanadi.

2 - O'lchamdagi to'plar. Bu turdagi to'plar ham asosan reklama maqsadida va to'rt yoshgacha bo'lgan bolalarni mashq qildirish uchun ishlatiladi. To'p, asosan, sintetik moddalardan, plastik yoki polivinilxloriddan ishlab chiqariladi. Aylanasining uzunligi 56 smga teng. Bu to'pning og'irligi 283,5 grammdan oshmasligi kerak. Bu o'lchamdagi to'plar asosan mashqlar va to'pni ushlab turish malakasini oshirish uchun ishlatiladi. Bu to'p odatda 32 yoki 26 paneldan tashkil topishi mumkin. Gohida to'pda turli xildagi logotchizimchalar, belgilar va tijorat reklamalari tasvirlanadi.

3 - O'lchamdagi to'plar. Bu turdagi to'plar asosan, 8 yoshgacha bo'lgan bolalarni mashq qildirish uchun ishlatiladi. To'pning og'irligi 340 grammdan va diametri 61 smdan oshmasligi kerak. Odatda bu turdagi to'plar 32 ta tikilgan paneldan iborat bo'lishi va sintetik material yoki bo'lmasa polivinilxloriddan bo'lishi mumkin. Gohida bu turdagi to'plar 18 yoki 26 paneldan iborat bodishi ham mumkin.

4 - O'lchamdagi to'plar. Bu turdagi to'plar asosan mini-futbol sport o'yinlarida hamda 12 yoshgacha bo'lgan bolalarni mashq qildirish uchun ishlatiladi. FIFA qoidalariga ko'ra, bu to'p charm yoki boshqa shunga mos keladigan materialdan, og'rligi 369-425 g atrofida ishlab chiqarilgani belgilab qo'yilgan. Aylana uzunligi 63,5 - 66 smda bo'lishi kerak.

5 - O'lchamdagi to'plar. Bu turdagi to'plar FIFA tomonidan o'tkaziladigan barcha o'yinlarda qo'llaniladi. Undan 12 yoshdan va undan kattalarni mashq qildirish uchun foydalaniladi. Bu o'lchamdagi to'p futbolda juda ham keng qo'llanilib, boshqa barcha o'lchamdagi to'plarning hammasini qo'shganda ham 5 - o'lchamdagi to'p turining umumiy ishlab chiqariladigan miqdori kattadir.



Billur to'p futbolchiga futboldagi yaxshi o'yini uchun beriladi.

Yaroqsiz holga kelgan to'plarni almashtirish.

Agar to'p o'yin paytida yorilsa yoki yaroqsiz holga kelsa futbol o'yini to'xtatiladi. O'yin zahiradagi to'p bilan aynan oldingi to'p yaroqsiz holga kelgan joyda ikki raqib jamoa o'yinchilari o'rtasiga hakam tomonidan tashlab berish orqali davom ettiriladi (spomiy myach).

Agar to'p o'yin paytida emas, balki o'yin boshlanishida, darvozabon to'pni o'yinga kiritayotganda, jarima to'pi o'yinga kiritilayotgan vaziyatda, erkin zarbada, 11 metrlik nuqtada va to'pni o'yinga tashlab berilayotganda yorilsa yoki bo'lmasa yaroqsiz holga kelsa, to'p qaytadan o'sha vaziyatda o'yinga kiritiladi. To'p faqatgina bosh hakam buyrug'i bilan almashtirilishi mumkin.



Eski to'plar bir xil rangli (mono- xromniy), jigarrang, keyinchalik oq rangda bo'lgan. Keyinchalik aynan teletomoshabinlarga qulaylik tug'dirish maqsadida jahon orqali o'yinlarini namoyish etishda televideniya uchun qora beshburchak va oq oltiburchaldi panelli to'plar paydo bo'lgan. Bu shakldagi rang to'plar uchun odatiy tusga aylandi va o'ziga hos belgi bodib xizmat qildi.

«Total 90 Aerow» to'plari ham mavjud bo'lib, ular "Nike" sport korxonasi tomonidan ishlab chiqarilib, to'plarga doiralar tasviri tushirilgan bo'lib, bu darvozabonlar uchun to'p havolanib kelayotganda aniq ko'rish imkonini berar ekan. Ayrim futbol o'yini uchrashuvlari qorboronda yoki bo'lmasa qor yog'gan maydonda bo'lib o'tganida, odatda yorqin rangli to'plardan, ko'p hollarda qizil yoki och sariq rangli to'plardan foydalaniladi.

FIFA qaroriga ko'ra, rasmiy o'tkaziladigan o'yinlarda turli sildagi tasvir yoki reklamaning to'plarda aks ettirilishi taqiqlangan, bundan faqat quyidagilar to'plarda aks ettirilishi mumkin:

* musobaqa yoki musobaqani tashkillashtirgan tashkilot belgisi;

* to'pni ishlab chiqargan korxonaga belgisi.


To'plar sifati ustidan nazorat qilish.

FIFAning to'plar sifati ustidan nazorat amalga oshirish tuzilmasi talabiga ko'ra, FIFA nomidan o'tkazilayotgan barcha musobaqalarda to'plar FIFA APPROVED (FIFA tomonidan rozmat berilgan) va FIFA INSPECTED (FIFA tomonidan

tekshirishda o'tkazilgan) belgisini olishlari kerak. Faqat shundan so'nggina ushbu to'plar FIFA tomonidan o'tkazilgan o'yinlarda ishlatilishi mumkin, FIFA INSPECTED belgisini olish uchun to'plar o'z ichiga og'irlik, namlikni singdirish, sakrash, aylanalik, aylana uzunligi va bosimni nazorat qilish xususiyati tekshiruvlaridan o'tishi kerak. FIFA APPROVED belgisini olish uchun to'plar shakl va o'lchamlarni saqlash bo'yicha tekshiruvlardan o'tishi kerak.

To'plarni ishlab chiqarish bo'yicha Pokiston 80% ni (bu butun dunyoda 60% ni tashkil qiladi) shundan 75% i Sialkot shaxrida ishlab chiqariladi. Avvallari to'p ishlab chiqarishda asosan yosh bolalar mehnatidan foydalanilar edi, lekin 2004-yilgi Yevropa futbol chempionatidan so'ng bu borada ayrim maqolalar ro'znomalarda chop etildi va bu masala bo'yicha bir qancha bolalarni himoya qiladigan, ayniqsa, "YUNISEF" tashkiloti bunga jiddiy e'tibor qaratdi. Germaniyada o'tkazilgan jahon futbol chempionatida to'plar Tailand davlatida ishlab chiqarilgan edi. "Adidas" korxonasi 1970-yildan buyon birinchi bor to'plarni Sialkot shahrida emas, balki Tailand davlatida ishlab chiqargan. Lekin savdo uchun mo'ljallangan 60 mln. ta to'pning hammasi Sialkot shahrida ishlab chiqarilgan.

Jahon chimpionatlarida o'ynalgan barcha to'plar.



"T-Model" 1930 yil Urugvayda o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.



"Federale 102" 1934 yil Italiyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.

	<p>Allen" 1938 yil Fransiyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.</p>
	<p>"Super Duplo T" 1950 yil Braziliyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.</p>
	<p>"Swiss WC Match Ball" 1954 yil Shveysariyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.</p>
	<p>"TOP-STAR" 1958 yil Shvetsiyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.</p>
	<p>"MR. CRACK" 1962 yil Chilida o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.</p>
	<p>"Challenge 4-Star" 1966 yil Angliyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.</p>



Birinchi «rasmiy» to'p "Telstar" 1970 yil Meksikada bo'lgan jaxon chempionatida o'ynalgan. Qo'lda tikilgan, 32 elementdan -12 ta beshburchak, 20 ta oltiburchakdan iborat.



"Telstar Durlast" 1974 yil FRGda o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.



"Tango Riverplate" 1978 yil Argentinada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.



"Tango espana" 1982 yil Ispaniyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.



"Azteca Mexico" 1986 yil Meksikada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.



"vetrusco Unico" 1990 yil Italiyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.



"Questra" 1994 yil AQSh da o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.



"YEQT Tricolore" 1998 yil Fransiyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.



"Fevernova" 2002 yil Janubiy Korea va Yaponiyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.



"Teamgeist" 2006 yil Germaniyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.



"Jabulani" 2010 yilda Janubiy Afrikada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.



"Brazuka" 2014 yil Braziliyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.



"TELSTRA"2018 yil Rossiyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.

Izox: 1872 yili ko'pchilik jamoalar yig'ilib bir qarorga kelishdiki, to'p yumaloq va uning sferik aylanasi taxminan 68.6-70 sm bo'lishi lozim. Shu yili to'pning og'irligi va hajmi rasman tasdiqlangan.

Danny Milke. Football: Book-coach. New Holland Publishers 2015. 26 p

3.7. Futbol hushtagi.

Hushtak futbol hakamining eng muhim va ajratib bo'lmaydigan anjomi hisoblanadi. Hakamning kichik yordamchilari. Futbol o'yinchilaridan farqli o'laroq, futbol hakamlari yangi texnologiyalar bilan tez-tez uchrashib turadilar. 130 yil davr mobaynida futbol hushtagi evolyutsiyasi printsiptial o'zgarishlarga duch kelmadi. Angliyada birmengemlik (uncha boy bo'lmagan) usto Jozef Xadson tomonidan XIX asrda labli (gubnoy) hushtak ishlab chiqarilgan. o'zining tirikchiligi uchun Jozef cho'ntak soatidan to eski oyoq kiyim (botinka)larini tuzatish ishlarini bajargan. Lekin, o'zining bo'sh vaqtlarida Jozefning yaxshi ko'radigan ishi hushtaklarni yaratish va ularning yangi turlarini tajribadan o'tkazish bo'lgan. Ular esa birlarining ovozi bilan farqlanardi.



1860-1870 yillar mobaynida Jozefning labli turdagi hushtaklari yaratilgan edi. Ko'plab tomoshabinlar birinchi bor Xadsonning ixtirosini 1878-yili bilib olishgan. Aytishlaricha, Angliya mamlakati klublari "Nottingham Forest" - "Sheffield" o'rtasidagi o'yinda hakamlik qilgan paytida o'zicha, o'yin qoidasini buzgan futbolchilarning e'tiborini qaratish uchun ro'molchani silkitishdan charchagan va u hushtakdan foydalanishga qaror qilgan.

Ammo bu o'yin haqida biror xil tarixiy manba topilmagan. Jozef Xadson tomonidan tayyorlab berilgan hushtakni Yangi Zelandiyalik futbol hakami Uilm Etek 1884-yilda ishlatgan. Bir yil oldin esa Xadsonning bu xobbisi unga yetarli darajada moddiy tomondan muvaffaqiyat keltirgan. Skotland-Yardda politsiyachilarning qo'l (treshotkasi)ni almashinadigan narsa o'tarishar edi, Xadsonning futbol hushtagi London politsiyachilariga qo'l keldi. Politsiyachilar tomonidan Jozefga hushtak ishlab chiqarish borasida ulkan buyurtma kelgan. Jozef bu voqea bo'yicha maxsus politsiyachilar modeli "Metropolitan" nomli hushtaklarini yaratdi.

Qiziqarlisi shundaki, ixtirochi o'zining skripkasining yuzi (sim, tori) bilan yerga (polga) yiqitganida politsiya hushtagi qanday ovoz, tovush chiqarishini bilib olgan. Musiqa asbobi cho'ziq (dissoniruyushiy) tovush berganida Jozef politsiya hushtagiga aynan shu tovush mos keladi deb hisoblagan. Keyinchalik 1884-yili Xadson tarixda o'zining eng muvaffaqiyatli hushtagini ishlab chiqaradi.

Ko'pincha (qoida tarzda) futbol uchrashuvi o'yini qaysi hushtak ostida boshqarilishi va o'yin tugashini futbol hakamlarining o'zi tanlashi natijasida ma'lum bo'ladi.

Angliya mamlakatida futbol arbitrlari birinchi hushtakdan foydalanishgan. Hakamlar esa maydonda 1873-yili ko'rinishgan. O'sha davrda hakamlar o'zlarining tashabbuskorligi bilan o'yinga qo'shilishi kerak emas, deb hisoblangan. Hakamlarning vazifasi vaqtni kuzatish, o'yinda imo-ishora (pometka) qilish, o'yinchilarni chetlashtirish va tayinlash, shu bilan birgalikda, jamoa vakillari bir-biri bilan kelisha olmasa va bahs-munozara bo'lsa, ularni adolatli yechish hisoblangan.

IV BOB. O'ZBEKISTONDA FUTBOLNI RIVOJLANISHI.

4.1. Yuraklarni zabt etgan o'yin.

O'lkamizning shahar va qishloqlarida XX asr boshlarida avval «shayton uyini», keyinchalik «yovvoyi uyin» deb nom olgan uyinlar paydo bo'ldi. Garchand hozirgi futbolga unchalik o'zshamasa ham maydon va kuchalarni changitib tashkil etiladigan bu o'yin keng quloq yoza boshlagandi. Mahalliy yoshlar usha davrlarda chor Rossiyasining o'lkamizda xizmat burchini o'tayotgan harbiylari bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazishlari bilan qiziqar edilar. Ular ko'p vaqtlarini futbol o'yiniga bag'ishlashardi. Harbiy qismlar atrofidagi shahar va qishloqlarda istiqomat qiluvchi yoshlar bu borada anchagina omadli bo'lib, ular panjaralar ortida turib olib, askar yigitlar ijrosidagi uyinlarni kuzatish va ulardan zavq olish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Ana shuning ta'sirida bo'lsa kerak, yoshlarda ush bu o'yin bilan shug'ullanish istagi paydo bo'ldi. Biron bir maydon topish, unga darvozalar o'rnini belgilovchi ustunlar o'rnatish masalasi unchalik qiyin ish emasdi. Eng katta muammo to'p topish bo'lib, u dukonlarda sotilmasdi. Ishqibozlar ushbu muammoni ham hal etish yo'lini o'ylab topishdi. Ular latta-putta bilan to'ldirilgan churm to'plar bilan o'ynay boshladilar. Lekin bu to'plar birinchidan uncha chidamli bulmasa (tezda yirtilib ketardi), ikkinchidan ularda sakrovchanlik yo'q edi. Buning ham yo'li topildi: ikki eski do'ppi orasiga puflab shishirilgan kamera o'rnatilgan to'plar «ixtiro» qilindi. Garchand uning sakrovchanlik xususiyati ijobiy hal qilingan bulsada, bunday tuplar nihoyatda yengil edi.

Endi ular o'zaro pul tuplab, askarlardan haqiqiy to'plar harid qilib ola boshladilar. Shu tariqa Qo'qon shahrida 1912-yilda mahalliy yigitlardan tashkil topgan dastlabki jamoalar vujudga keldi va davrning o'ziga xos bu yangiligi tez kunlarda Farg'ona vodiysi shahar va qishloklariga, keyinchalik esa butun Turkiston o'lkasiga tarkaldi.

Shu tariqa Xusanxon, Kamolxon va Abdukodir Muxitdinovlar, Oxunjon, Akbarjon va Muminjon Boymatovlar, Polatxoji Xaydarov, Abdulla kushchi Soliev, Valixon Usarov,

Xoshimjon Aminov, Mirjalol Abdullaev, Ruzimat va Ismoil Niyozovlar, Melivoy Azizov, Karim Shoniyozov va boshqa o'nlab kishilar o'zbek futboliga birinchi tamal toshini qo'ygan insonlar sifatida tarix zarvaraqlaridan joy oldilar.

Xusanxon Muxitdinov xotiralaridan: «Barcha tengqurlarimiz bilan chopon va sallalarda masjidga borardik. U yerdan qaytayotganimizda esa o'zimiz hashar yuli bilan qurgan maydoncha yoniga to'planib, chopon va sallalarni yechib qo'yib (u paytda futbol kiyimlari haqida gapirishning o'zi ortiqcha *muallif*), o'yinga kirishib ketardik.

U davrlarda o'yindan oldingi chigal yozdi mashqlari haqida so'z ham bo'lishi mumkin emasdi, shuning uchun ham tez-tez, bo'lar-bo'lmas to'qnashuvlardan so'ng jaroxat oluvchilar ham ko'p bo'lardi. Bir gal to'p tepaman deb yerdan sal chiqib turgan katta toshni tepib yuboribman, oyog'imning yuzi yorilib, qon oqa boshladi. Tezda maydon chetiga chiqib, oyog'imning o'sha yeriga oftobda qizib yotgan tuproqdan sepib qonni to'xtatib, keyin latta bilan bog'lab maydonga tushib ketdim. Ko'pchiligimiz yalang'oyoq futbol o'ynardik. Oradan shuncha yillar o'tib ketgan bo'lsa ham o'sha vaqtdagi futbol o'yinini qo'msaymiz...»

4.2 «Muskomanda».

Biz yuqorida tabarruk nomlarini sanab o'tgan futbolimiz qaldirg'ochlari saflari kengaya bordi, jamoalarda yangi nomlar paydo bo'la boshladi.

Yuldoshxon Fayozov va Jo'ra Saidov (Quqon),

Qurbon Badaliy (Buxoro),

Musa Xujaev (Farg'ona),

Yoqub Valishoev,

Usmon Umarov,

Teshavoy Karimjonov (Toshkent)

va boshka fidoiy futbolchilarning nomlari el og'ziga tushdi. Kun sayin kupayib borayotgan charm tup muxlislari barcha futbolchilarga havas qilishar, qadrlashar va hurmatlashardi, yoshlar esa ularning izlaridan borishardi. Shu tariqa respublikamiz hududida mahalliy millat vakillaridan tashkil topgan «Muskomanda» («Musulmonlar komandasi») uchun asos solindi.

U terma jamoa tarzida yuzaga kelib, ko'plab shaharlar vakillarini o'z ichiga olardi. «Muskomanda» tarkibidan joy olish uchun kurash o'sha davrlarda barcha yoshdagi futbolchilar orasida o'ziga xos ko'rik tanloviga aylanib ketdi. Jamoa esa tobora shakllanib, o'z tarkibini yosh va iqtidorli futbolchilar bilan to'ldirib borardi. Biron bir shaharga «Muskomanda» a'zolari tashrif buyuradigan bo'lsa, u shahar o'sha kunlarda futbol maskaniga aylanib ketib, yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan ishqibozlar o'yingoh tomonga oshiqishardi. Hahiqatan ham «Muskomanda»ning obrusi kun sayin oshib borardi, u o'zining jozibali uyinlari bilan ko'pchilik keksayu-yoshlarni ochrab qo'ygandi.

Jamoa a'zolaridan Oxunjon Boymatov hamda Ruzimat Niyozovlarning biroz bo'lsa ham kosibchilikdan xabarleri bor edi. Ular asta-sekin to'p tepish sirlarini ham o'rgana boshladilar. Yuqorida aytib o'tilganidek, o'sha yillari to'plarga talab nixoyatda kuchli bo'lgan. Oxunjon va Ruzimatlar atroflariga shu soxaga moyil bo'lgan yoshlarni olib, to'p tepish ishiga astoydil kirishib ketdilar. Pishiq va bejirim to'plar barcha futbolvevarlarga yoqib qoldi, hatto Moskvadan ham 400 dona to'pga buyurtma olindi.

Shaharlarda yangi tuzilgan jamoalar o'rtasida qiziqarli uchrashuvlar o'tkazish yo'lga qo'yildi. 1912 yilda Skobelev (hozirgi Farg'ona) va Andijon jamoalari o'zaro kuch sinashishdi. Farg'onadagi dastlabki uchrashuvda maydon egalari 3:1 xisobida g'olib chiqishgan bo'lsa, Andijonda ham maydon egalari omadli bulishdi -3:2. O'sha yillari shuningdek, Toshkent, Samarkand, Quqon, Namangan jamoalari ham turli xil uchrashuvlarda qatnashganlar.

1915 yilda birinchi marta Turkiston birinchiligi tashkil etilib, unda «Skobelev futbolchilar to'garagi» jamoasi birinchi o'ringa sazovor bo'ldi. Jamoa tarkibini aka-uka Martinyuklar, Grenkel, Mukanov, Xolopov, Kulakov, Mishkevich, Lapshionov, Maslov, Ovecharov va boshqalar tashkil etishardi. 1995 yilda o'sha birinchi chempionatning 80 yilligiga bag'ishlab Farg'onada o'tkazilgan yubiley tadbirida futbolimiz faxriylaridan Musa Xo'jaev va Jo'ra Komazarovlar ham ishtirok etishdi.

Toshkentlik futbol faxriysi Pavel Juravlev xotiralaridan: «Bir kun tanaffus paytida bizning sinf rahbarimiz va nemis tili o'qituvchimiz Eduard Finger Berlin shahridan obuna orqali

kelgan jurnalda yangi sport o'yini futbol haqida o'qiganini aytib qoldi. Shu maqolaning yonida esa xohlovchilar firma nomiga sakkiz so'm yuborsalar, bu endi rasmga kirayotgan futbol o'yini uchun zarur to'p va anjomlar bilan ta'minlanadilar, degan e'lon ham chop etilgan ekan,

Sizning ikkinchi sinfingizda qirqta o'quvchi bor, jim bo'lib qolgan bolalarga diqqat bilan qarab dedi Finger. Har biringiz 20 tiyindan yig'sangiz bimalol anjomlarni bir to'plamiga yetadi. Aytilgan so'z otilgan o'q. Biz tezda sakkiz so'mni yig'ib jo'natdik va bir necha hafta o'tishi bilan (mana buni xizmat ko'rsatish desa bo'ladi) Berlindan zoriqib kutib yotgan posilkamiz ham yetib keldi. Uning ichida charm to'p, ikkita rezina kamera, ikkita hushtak, nasos hamda to'pni o'yinga qanday tayyorlash, hakamliknign tartib qoidalari va o'yin haqida ma'lumotlar yozilgan yullanma bor ekan».

1916 yilga kelib, Toshkentda hozirgi Mustaqillik maydoni o'rnida birinchi o'yingoh qurildi. Unda mashg'ulotlar olib boruvchi «Toshkent sport muxlislari jamiyati» jamoasida Motalev, Borovkov, Volkov, Makarov, Kokotkin, Novlyanskiy, Kurpin kabi o'yinchilar to'p surishardi.

«Muskomanda»ning kuplab a'zolari Kuxon yog' zavodila xizmat qilishardi. Abdulla Soliev sex brigadasi boshlig'i, Ismoil Niyozov qo'mita kotibi, Xo'ja Po'latov elektr ustasi, qolganlari esa oddiy ishchilar edi, ushbu jamoa ishtirokidagi uchrashuvlarni tomosha qilish uchun yog' zavodi, choy qadoqlash fabrikasi, «Zinger» firmasi ishchi va xizmatchilari, «Sar- jinchilik» o'tinchilar mahallasi hamda Qo'qonning boshqa mahallalaridan muxlislar yig'ilishardi. Ko'plab o'yinlarda ishtirok etib, anchagina tajriba orttirgan «Muskomanda» ilk bor qo'shni respublikaga tashrif buyurdi.

Xo'jand shahri terma jamoasi o'z maydonida mehmonlarni mag'lub etdi. Ushbu omadsizlik ko'pgina kamchiliklarni ruy-rost ochib tashladi. Birinchidan, jismoniy tayyorgarlik darajasi yetarli emasdi, ikkinchidan, darvoza yaqinida qulay vaziyatlardan foydalana olmaslik kasali o'yinchilarni hamon tark etmagandi va nihoyat, uchinchidan, to'pni uzoq; ma- sofaga oshirib berish xolatlarini puxta o'zlashtirilmagan edi. Jamoa rahbarlari o'zaro kelishib, Toshkentdan tajribali murabbiylardan biri Vladimir Doljenkovni «Muskomanda»ga bosh murabbiy lavozimiga taklif

otishdi. Endi o'yinchilar haqiqiy futbol texnikasi va taktikasi bilan yaqindan tanisha boshladilar, mashg'ulotlar ham yukori saviyada olib boriladigan bo'ldi.

Bu davrga kelib uchinchi avlod vakillari jamoa tarkibini to'ldirishdi, ularning eng epchil va chaqqon o'yinchilari bilan tanishang:

Mamajon Axmedov va Ilyos Kimegarov (CHUxon),
Yuldosh Kaxxorov (Andijon),
Axmad Askaraliev (Namangan),
Karimjon Xaydarov (Fargona),
Obidsho Xamidshoev (Buxoro),
Malik Mavlonov,
Pochchaxon Otaxonov,
Narimon Jalolov,
Isok Toshmuxamedov,
Axmad Toshpulatov,
Ma'ruf Akbarov,
Teshavoy Erchaev (Toshkent)
va boshqalar.

Jahonga mashhur olim va akademiklarimiz Ubay Oripov va Toshmuhammad Sarimsoqov, iste'dodli shoirimiz Usmon Nosirlar ham o'sha davrlarda qiziqarli futbol musobaqalarida ishtirok etganliklari diqqatiga sazovordir.

4.3. Tarixning qanoti bor.

1920 yilda birinchi O'rta Osiyo Olimpiadasi o'tkazilib, uning davlatlaridan o'rin olgan futbol bahslarida Toshkent shahri terma jamoasidan zafar quchdi. Futbol ko'pgina kiyinchiliklarga qaramasdan astasekin respublikamizda keng tarqalib va umumiy maviydashib borardi. Oradan bir yil o'tgach, Turkiston fronti umumiy majburiy ta'lim bo'limining namunali otryadi Moskva shahriga tashrif buyurib, ikkita uchrashuv o'tkazdi. Toshkentlik futbolchilar birinchi o'yinda kuchli jamoa «OLLS» bilan uchrashib, durang (0:0) natijaga erishdilar. Ikkinchi uchrashuvda esa Rogojnsk-Simonovsk klubi ustidan 1:0 xisobida g'alaba qozonishdi. Namanganda sport jonkuyari L. Vinnitskiy klubining bilan birinchi futbol jamoasi tuzildi, Farg'onada esa

A. Plotnikov va aka-uka Pijurinlar kabi zo'r futbolchilar yetishib chiqdi.

Shu o'rinda o'sha davrlarda yurtimizning turli hududlarida ketma-ket tashkil etilgan yangi-yangi jamoalar va ularning tarkibi haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz, demak:

1919 yil. Mamlakatda qashshoqlik, ochlik, ishsizlik hukm surayotgan davr bo'lishiga qaramasdan Toshkentda «Politot» jamoasi tashkil topdi. Uning mashg'ulotlarida K. Morozov, P. Xelvas, R. Kluna, L. Messerskiy, A. Bogorodskiy, P. Mixaylov, S. Suxanov, N. Aksyonov kabi futbolchilar ishtirok etishardi.

1924 yil. Farg'ona shahri terma jamoasi chiroyli va hujumkor o'yinlar ko'rsatib, muxlislar e'tiborini qozona boshladi. Jamoa G. Skripkina, M. Vlasevich, N. Ulasovets, M. Zotov, Aleksandr va Aleksey Pijurinlar, A. Sobolev, A. Djaxadze, M. Laktionovlardan iborat edi.

1925 yil. «Muskomanda» (Kukon) respublikamiz shaxar va kishloklarida ko'plab namunaviy o'yinlar o'tkazib, kun sayin obrosi oshib borayotgan inoq va ahil jamoa: M. Axmedov, M. Abdullaev, A. Muxitdinov, R. Niyozov, M. Boymatov, U. Shoniyozov, K. Muxitdinov, V. Usarov, O. Boymatov, A. Soliev, P. Xaydarov. 1926 yil Toshkent shahri terma komandasining shuhrati ham keng taraqladi. Uning saflarida S. Danielov, V. Volodenko, B. Fomin, L. Ostretsov, YE. Testelets, A. Fomin, V. Melnikov, V. Stets, G. Bogdanov, A. Tixonov va boshqalar to'p surishgan.

1927 yil Toshkentlik bir guruh tashabbuskor kishilar «Muskomanda»dan o'rnak olgan holda «Eski shahar» jamoasini tashkil etishdi va u o'sha davrda ko'pgina uchrashuvlarda qatnashish sharafiga muyassar bo'lgan. Umarov, Xamidov, Kuchkorov, Aminov, Abduraximov, Valishoev, Islomov va boshqalar jamoada to'p surishgan.

1928 yil Yangi bunyod etilgan «Metallist» (Toshkent) jamoasi ham o'zining chiroyli va hujumkor o'yinlari bilan muxlislar e'tiborini qozona boshladi.

Jamoaning eng chaqqon o'yinchilari:

A. Smirnov,
G. Bogdanov,
A. Neshto,
A. Borovkov,

G. Bokov,
P. Davidov,
A. Glyuba,
D. Slivin,
Jl. Baranov,
I. Zubarev.

Ushbu futbolchilardan I. Zubarev keyinchalik respublikamizning mashhur murabbiylaridan biri bo'lib elga tanildi.

1932 yil UzXO (paxtachilik uyushmasi) jamoasi tarkibini A. Kirillov, G. Sorvin, Y. Tolovin, A. Soldatov, A. Besednov, N. Rijikov, P. Kravchenko, A. Boboyev, S. Alferov, P. Petuxov, V. Lakoza kabi o'yinchilar tashkil etishardi. Bir necha yil o'tgach, ushbu o'yinchilardan A. Kirillov «ODO» jamoasiga murabbiylik qilgan bulsa, G. Sorvin O'zbekiston futbolchilari orasida birinchi bo'lib, «sport ustasi» unvoniga sazovor bo'ldi. Aynan o'sha yillari Georgiy Sorvinni muhlislar «Karagach» yoki boshqacha qilib aytganda «Kayrag'och», deb chaqira boshladilar. Gap shundaki, bu futbolchi nixoyatda kuchli zarbaga ega edi va kunlarning birida uning katta kuch bilan tepgan to'pi stadion chetidagi qayragoch daraxtiga tegib, uning shoxini sindirib yuborgan. Bu vaziyatni ko'rish baxtiga muyassar bo'lgan ishqibozlar avvaliga «dolg qotib qolishgan, keyin esa stadion qarsaklar ostida larzaga kelgan. Shu-shu mashhur uyinchimiz «Kayrag'och» bo'lib qolgandi.

Respublikamiz jamoalarida kamol topib, o'sib borayotgan ko'plab darvozabonlar orasida P. Xelvas, V. Lakoza, E. Muxitdinov, D. Berlin, K. Juraboevlar keyinchalik terma jamoa o'tkazgan o'yinlarda mahorat ko'rsatib, mashhur darvozabonlar bo'lib yetishishdi.

O'zbekistonlik hakamlarning ko'pchiligi ushbu sohani mukammal egallab, ko'plab o'yinlarni a'lo darajada boshqarishdi. Ular orasida V. Doljenkov birinchi bo'lib Butun Itifoq toifasidagi hakam» faxriy unvoniga sazovor bo'ldi.

O'sha davrlardagi Buxoro futboli haqida so'z borganida biz birinchi navbatda Qurbon Badaliy, Mixail Ezroxin, Odilsho Kamidshoev kabi ajoyib futbolchilarni eslaymiz. Ham yengil atletikaga, ham futbolga mehr qo'ygan Odilsho aka avval Toshkentdagi «Spartak» jamoasida mashhur murabbiy Dmitriy

Kazansev qo'l ostida shug'ullandi, keyinchalik u «Dinamo» jamiyatiga qabul qilindi. «Dinamo» (Toshkent) hamda «Lokomotiv» (Moskva) o'rtoqlik uchrashuvi chog'ida aynan Hamidshoev kiritgan yagona to'p respublikamiz futbolchilariga muhim g'alaba taqdim etdi.

Bu iste'dodli o'yinchi dastlab David Berlin, Boris Baklunov, Sergey Budagov, Aleksandr Adisman kabi futbolchilar safida respublika chempionati o'yinlarida qatnashdi. Keyinchalik mashhur futbolchi Georgiy Sorvin boshqarayotgan «Muskomanda» jamoasida Teshavoy Karimjonov, Kurbon Badaliy, Musa Xujaev, Isok Toshmuhamedov kabi futbolchilar bilan to'p surdi. Ular Farg'ona shahrida Moskvadan tashrif buyurgan mashhur VVS (Harbiy havo kuchlari) jamoasi bilan uchrashib, 6:1 hisobida zafar quchishgan, unda Hamidshoev uch, Musa Xo'jaev esa ikki to'p muallifi bo'lishgan.

O'tgan asrning yigirmanchi-o'ttizinchi yillariga kelib, respublikamizda futbol o'yini yanada ommaviylashib ketdi, yangi-yangi jamoalar tuzila boshladi, hashar yo'llari bilan ko'plab oddiy futbol maydonlari qurildi. Toshkentda birin-ketin «Dinamo» va Akmal Ikromov nomli (keyinchalik «Spartak») stadionlari qurilib, foydalanishga topshirildi, havaskor futbolchilar soni ham tobora ortib bordi. Garchand malakali mutaxassislar va murabbiylar, shuningdek, to'plar va chim yotkizilgan maydonlar yetishmasa ham futbolni chin dildan sevib qolgan yigitlar kupchilikni tashkil etardi. Usha yillardagi yoshlar katta sportning uch turiga futbol, merganlik va parashyutga ko'proq qiziqar edilar.

4.4. Mustaqillik va o'zbek futboli.

Millionlab charm to'p muxlislari Markaziy Osiyo mamlakatlarining eng kuchli klublari hamda terma jamoalari yer kurrasining barcha burchaklarida bo'lgani kabi, FIFA va OFK tasarrufidagi rasmiy musobaqalarda to'p surishlarini azal-azaldan orziqib kutar edilar. Bu orzu-umidlar serquyosh respublikamiz o'z mustaqilligiga erishganidan so'nggina ro'yobga chiqa boshladi. Necha-necha asrlar osha ajdodlarimiz va ota-bobolarimiz sabrsizlik va intizorlik bilan kutgan yorug'

kunlar, Yaratganga shukurlar bo'lsinkim, bizning yurtimizga ham yetib keldi.

1992 yildan boshlab O'zbekiston o'zining milliy chempionati va kubogi o'yinlarini o'tkaza boshladi. Mustaqil Vatanimiz futboli qisqa muddat ichida dastlabki sobit qadamlarini tashladi, respublikamizning ko'plab jamoalari xorijiy mamlakatlardagi yetakchi komandalar bilan uchrashish baxtiga muyassar bo'ldilar. Xalkaro o'yinlar qanchalik ko'p va sermazmun bo'lsa, undan ikkala tomon ham yutib chiqishi mumkinligi azal-azaldan barchamizga ma'lumdir.

1993 yilning dekabrda FIFAning Las-Vegas shahrida o'tkazilgan ijroiya qo'mitasi yigilishida Markaziy Osiyo mamlakatlari Xalkaro futbol uyushmasiga qabul qilinadigan bo'ldi. AQShda o'tgan XV jahon chempionati arafasida, ya'ni 1994 yil 16 iyun kuni Chikago shahrida bo'lib o'tgan FIFA 49-kongressi O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirgiziston va Qozog'iston mamlakatlarini ham FIFAg rasman to'laqonli a'zo sifatida qabul qildi.

Xalqaro futbol uyushmasiga qabul qilinishimiz biz uchun Osiyo futbol konfederatsiyasining eshiklarini ham ochib berdi. Kundi Markaziy Osiyo davlatlari klublari va terma jamoalari Osiyoning barcha rasmiy musobaqalarida, jahon chempionatlarida, Olimpiya o'yinlarida ishtirok etadigan bo'lishdi.

Eng asosiysi, biz futbol sohasidagi harakatni va har bir qadamni jahon miqyosidagi mezonlar bilan o'lchash zarurligini anglay boshladik. Davlatni va millatni dunyoga eng tez tanitadigan sport turi futbol ekanligi barchaga ayondir. Jahon darajasidagi mitti davlatlarni ham dunyo aynan futbol deb atalmish g'oyatda qiziqarli uyin tufayli tanishgani bejiz emas. Haqiqatan ham futbol xalqlarni va millatlarni bir biriga bog'lovchi buyuk vositadir.

O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zolari Hindistonga, Olimpiya terma jamoamiz esa Malayziyaga tashrif buyurishdi. Vahdillarimizdan birinchi bo'lib futbol vatani Angliyaga borishdek baxt «Paxtakor» futbol maktabi yosh o'yinchilariga nasib etdi. Iste'dodli bolalar murabbiylaridan Sergey Kovalev shogirdlari yetti uchrashuvning uchtasida zafar quchib, ikki o'yinni durang natija bilan yakunlab (to'plar nisbati 22:14) ingliz

mutaxassislarini xam dog'da qoldirishdi. Ushbu xalqaro turnir va uning yakunlari hakida Angliya ommaviy axborot vositalarida ko'plab fikrlar bildirildi, yosh futbolchilarimiz o'ziga xos imtihondan sharaf bilan o'tishgan ekan, biz ham unga batafsilroq to'xtab o'tadigan bo'ldik.

Turnir startidagi birinchi uchrashuv ko'pni kurgan ingliz futbol muxlislarini, ochig'ini aytish kerakki, dovdiratib qo'ydi. «Gogeshal Taun» «Paxtakor» 2:9. Ishkibozlar natijani radiodan eshitgach, unga ishonmasdan qaytadan so'ray boshladilar.

Keyin futbolchilarimizni «Kolchester» jamoasi imtihondan o'tkazdi 4:4. Fakatgina uchinchi uyinda inglizlar katta kiyinchiliklar bilan g'olib chikishdi, «Vivenoe Taun» «Paxtakor» 4:3. Toshkentlik futbolchilarning «Solchester Yunayted» o'yinchilari bilan uchrashivida hisob ochilmadi 0:0. Maydon egalari yana qiyin g'alabaga erishishdi: «Stenvi villa» «Paxtakor» 4:3 (shu kuni o'yinchilarimiz basseynida chumilib, biroz toliqib qolishgan edi).

Mehmonlar esa yana bir bor g'alaba nashidasini surdilar: «Vez yunayted» «Paxtakor» 0:1. Demak, paxtakorchilar 50% li natijaga ershdilar. Turnir tashkilotchilari nihoyatda do'stlik va birodarlik ruhida o'tayotgan uchrashuvlarning so'nggi kunida paxtakorchilarga qarshi «Royston Taun» jamoasini maydonga tushirdilar, bu bilan ular umumiy hisobda g'alaba qozonishga ishongan edilar.

Shu o'rinda o'yin natijasini e'lon qilishdan oldin Sharqiy Angliyadagi ushbu jamoa a'zolarining keyingi yillarda qo'lga kiritgan sovrinlari haqida muxlislarimizga axborot bermoqchimiz:

Raynlend mukofoti (Germaniya)	1987,
Xatters kubogi (Angliya)	1988,
Kanar Klassik (Angliya)	1988, 1993,
Xalqaro Eskaudpan (Fransiya),	1987, 1988, 1989
Almers mukofoti (Gollandiya)	1992, 1993,
Birshot Chelenj (Belgiya),	1993
Gollandiya kubogi (Amsterdam)	1991,
LKB Chelenj kubogi (Daniya)	1988, 1990, 1992, 1993,
Dana kubogi (Daniya)	1988, 1990, 1992
Dana kubogida eng yaxshi klub	1991, 1992, 1993,
Xalqaro Tartu (Estoniya)	1990,

Aros kubogi (Shvetsiya)	1993,
Eden Preriy turniri (AQSh)	1993,
AQSh kubogi (AQSh)	1993.

E'tiborli tomoni shundaki, shuncha ko'plab sovrinlarga ega bo'lgan bu mashhur komanda ham paxtakorchilar hujumlariga bardosh berolmadi. «Paxtakor» 2:0 hisobida zafar quchdi va umumiy hisobda ham g'alaba nashidasini surdi.

Futbol vatanidan sharaf bilan qaytgan «Paxtakor» futbol maktabi vakillari bilan tanishish:

Aleksey Kovalev,
 Mixail Meshcheryakov,
 Abbas Ahmadxujaev,
 Ramil Xansuvarov,
 Vitaliy Pochuev,
 Denis Shulga,
 Otabek Otaev,
 Mixail An,
 Stanislav Filyutin,
 Maksim Shatskix,
 Sergey Bakanov,
 Konstantin Vilchinskiy,
 Dilmurod Zokirov,
 Aleksandr Kovalev,
 Oybek Shayxov,
 Badodir Abduraimov.
 Bosh murabbiy: *Sergey Kovalev.*

Eslatma: Aleksey va Aleksandr Kovalevlar bosh murabbiyning o'g'illari, Mixail Ant «Paxtakor 79» sardori, yevropa chempioni Mixail Anning jiyani, Sergey Bakanov «Paxtakor 79» hujumchisi Konstantin Bakanovning, Bahodir Abduraimov esa XX asrdagi O'zbekistonning eng yaxshi o'yinchilaridan biri Birodar Abduraimovning o'g'illaridir. Ushbu ochrashuvlarda 12 marta to'p kiritib, maxsus sovringa sazovor bo'lgan Maksim Shatskix hozirgi kunda «Dinamo» Klev jamoasi vakili, Ukraina chempioni, O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zovidir.

Markaziy Osiyo davlatlari milliy terma jamoalari o'rtasidagi futbolro «Toshkent turniri» (11 19 aprel) zo'r muvaffaqiyat bilan

o'tkazildi. Katta futbol o'yinlarini g'oyatda sog'inib qolgan ishqibozlarimiz bir hafta davomida Markaziy Osiyo mamlakatlarining eng kuchli futbolchilari o'yinlarini miriqib tomosha qilishdi.

Muxlislarimiz e'tiboriga Xalqaro «Toshkent turniri» yakuniy jadvalini havola qilamiz:

O'zbekiston	4	3	1	0	9:1	7
Turkmaniston	4	2	1	1	7:5	
Qozog'iston	4	1	1	2	1:1	4
Tojikiston	4	1	2	1	2:4	3
Qirgiziston	4	0	3	1	1:9	1

Ushbu nufuzli musobaqada zafar quchgan O'zbekiston milliy terma jamoasi o'yinlarida ishtirok etgan futbolchilar bilan tanishing:

Berdax Olloniezov
Yuriy Sheykin
Murod Otajonov
Fevzi Davletov
Andrey Fedorov
Ulugbek Ruzimov
Aleksandr Tixonov
Ilxom Sharipov
Usmon Toshev
Abdukaxxor Ma'rufaliev
Nu'mon Xasanov
Vali Keldiev
Olim Tillaev
Shuxrat Maksudov
Rustam Durmonov
Rustam Abdullaev

«Orol» Nukus,
«Traktor» Toshkent,
«Paxtakor» Toshkent,
MXSK Toshkent,
«Neftchi» Farg'ona,
«Paxtakor» Toshkent,
«Neftchi» Farg'ona,
«Paxtakor» Toshkent,
«Nurafshon» Buxoro,
Paxtakor» Toshkent,
MXSK Toshkent,
«Navbaxor» Namangan
«Nurafshon» Buxoro,
«Paxtakor» Toshkent,
«Neftchi» Farg'ona,
MXSK Toshkent,

Bosh murabbiy: *Rustam Akramov.*

Oradan ko'p o'tmasdan milliy terma jamoamiz vakillari yana bir xalqaro turnirda g'alaba qozonishdi, Gollandiyaning ikki professional klublari «Vitess» va NeK hamda O'zbekiston chempioni «Neftchi» (Farg'ona) jamoalari ishtirok etgan «Mustadillik kubogi» bahslashuvlarida omad yana

Rustam Akramov shogirdlari tomonida bo'ldi. Bu nufuzli musobaqalar bizning asosiy jamoamizga bo'lajak XII Osiyo o'yinlari oldidan o'ziga xos imtixon rolini bajardi.

4.5. Xirosimadagi buyuk g'alaba.

Yaponiyaning Xirosima shahri qit'amizning eng muhim sport festivallardan biri XII Osiyo o'yinlari qatnashchilarni o'z bag'riga oldi. O'zbekiston deya atalmish jannatmakon o'lka yigit-qizlari bunday nufuzli musobaqalarda ilk bor ishtirok etishdi. Hoshqa sport turlari kabi futbol bo'yicha o'tkazilgan uchrashuvlar ham g'oyatda qiziqarli bo'ldi.

Markaziy stadionda O'zbekiston va Saudiya Arabistoni futbolchilari saf tortishadi, ko'pchilik mutaxassislar va muxlislar ushbu uchrashuvda saudiyalik o'yinchilar g'olib chiqishini bashorat qilishgandi. Chunki bu mamlakat terma jamoasi AQShda bo'lib o'tgan jahon chempionatida munosib ravishda ishtirok etgandi. Rustam Akromov va Birodar Abduraimovlar rahbarligidagi terma jamoamiz a'zolari esa ushbu o'yinda 4:0 hisobida (Lebedev, Qosimov, Shkvirin 2) zafar quchib, ushbu bashoratni qanchalar notug'riligini amalda isbotlab berishdi. Startdagi chiroyli g'alabadan ruhlanib ketgan futbolchilarimiz malayziyalik raqiblarini ham dog'da qoldirishdi 5:0 (R. Durmonov 2, Shkvirin 2, Fedorov). Endi o'zbekistonlik futbolchilarga boshqacha qaray boshladilar, ikki o'yinda 9 to'p kiritish barcha komandalarning qo'lidan ham kelmaydi-ku.

Uchinchi o'yinda Gonkong termasi zabt etildi 1:0 (Abduraimov), guruh g'olibligi deyarli hal etilgach, jamoamiz rahbarlari Tailand bilan bo'ladigan uchrashuvda zahiradagi barcha o'yinchilarimizni sinab ko'rishni ma'qul ko'rishdi. Birinchi taym yakunlangach, elektron tabloda 3:1 hisobi yonib turardi, lekin ikkinchi taym o'rtalarida hisob 4:4 bo'lib qoldi. Jamoamiz sardorining qoyilmaqom tarzda kiritgan goli navbatdagi muvaffaqiyatni ta'minladi 5:4 (Maksudov 2, Qosimov 1, Shkvirin). Chorak final biz uchun kutilmaganda oson kechdi: O'zbekiston Turkmaniston 3:0 (Shkvirin 2, Abduraimov).

Yarim finalda o'yinchilarimizni nihoyatda og'ir sinov qit'amizning eng kuchli jamoalaridan biri bo'lmish Janubiy Koreya termasi ko'tardi. O'sha vaqtlarda bu o'ziga xos jangovar

jamoaga mashhur murabbiylardan biri, 1988 yilda sovet futbolchilarini Olimp cho'qqisiga olib chiqqan Anatoliy Bishovetsus tozlik qilardi. Charchash nimaligini bilmaydigan, barcha kombinatsiyalarni nihoyatda katta tezlikda amalga oshira oladigan, jismoniy jihatdan a'lo darajada tayyorlangan koreyslar deyarli 90 daqiqa davomida Yuriy Sheykin darvozasini o'qqa tutishdi. O'sha kuni moxir darvozabonimiz xuddi Lev Yashin kabi haqiqiy qahramonlik namunalari ko'rsatib, muxlislar olqishlariga sazovor bo'ldi. Andrey Fedorov va Farxod Magomedovlarning to'p yulida qalqon bulishlari, Sergey Lebedev va Mirjalol Qosimovlarning himoyachi sheriklariga o'z vaqtida yordamga yetib kelishlari, barcha o'yinchilarimizning maydonda jon kuydirib harakat qilishlari termamiz darvozasi dahlsizligini saqlay oldi. Murabbiylar ko'rsatmalari a'lo darajada ado etildi.

Kamdan kam hujumlarimizning birida esa Azamat Abduraimov jarima maydoni yaqinida 3 4 o'yinchini aldab o'tib, to'pni zarb bilan darvoza tomon tepadi. To'p esa darvozabon ro'parasida yerga tekkach, o'z yulini o'zgartiradi. Bunday holatda esa darvoza qo'riqchisining qo'lidan hech narsa kelmaydi. Keyinchalik ushbu gol sport jurnalistlari tomonidan o'zbek futbolchilarining XX asrdagi eng chiroyli goli sifatida e'tirof etildi. G'oyatda keskin va shiddatli o'tgan ushbu uchrashuvda koreyslar darvoza tomon 27 marta to'p tepishgan bo'lsa, bizning futbolchilarimiz bunga bor yug'i 4 marta erishdilar.

XII Osiyo o'yinchilarining final uchrashuvi: Xitoy va O'zbekiston. Xitoylik futbolchilar guruhda birinchi o'rinni egallagach, chorak finalda Saudiya Arabistoni jamoasini 2:0, yarim finalda esa Valeriy Lobanovskiy shogirdlari bo'lmish quvaytlik futbolchilarni 2:0 hisoblarida mag'lub etishgan. Vatanimiz vakillari hal qiluvchi uchrashuvni ham hujumkorlik ruhida o'tkazib, 4:2 (Shkvirin, Lebedev, Abduraimov, Maqsudov) hisobida g'alabaga erishdi va hur o'lkamiz futbol muxlislariga katta shodiyona hadya etishdi.

O'zbekiston terma jamoasi XII Osiyo o'yinlari chempioni! Oltin medallar bilan taqdirlangan o'g'lonlarimiz sharafiga markaziy stadion uzra davlatimiz madhiyasi yangrab, bayrog'imiz hilpiradi. yetti o'yinda yetti g'alabaga erishgan jamoa a'zolari quyidagilardan iborat edi:

Yuriy Sheykin,
Berdax Olloniyo'zov,
Aleksandr Tixonov,
Andrey Fyodorov,
Farhod Magomedov,
Fevzi Davletov,
Ulugbek Ro'zimov,
Stepan Atoyan,
Sergey Lebedev,
Mirjalol Qosimov,
Abdusamad Durmonov,
Abduqahhor Ma'rufaliev,
Ilhom Sharipov,
Azamat Abduraimov,
Igor Shkvirin,
Shuhrat Maqsudov,
Rustam Durmonov.

Bosh murabbiy: *Rustam Akromov*,
Katta murabbiy: *Birodar Abduraimov*.

Yuriy Sheykin, Mirjalol Qosimov, Igor Shkvirinlar musobaqaning eng yaxshi o'yinchilari, deb e'lon qilindilar. Akromov Abduraimov juftligining bunday katta musobaqada jamoamizni shohsupaning eng baland pog'onasiga olib chiqqanliklarini ko'rib, bir vaqtlar sobiq sovet xokkeychilarini Olimpiada o'yinlarida, jahon va yevropa chempionatlarida olamshumul g'alabalarga boshlab borgan Chernishev Tarasov juftligi beixtiyor yodimga tushadi. Biri nazariyotda, biri amaliyotda dunyoda tengi yo'q murabbiylar doimo bir-birlarini to'ldirishardi.

Jamoani turli xil musobaqalari davomida shakllantirib borish, respublika chempionida so'nggi o'rinlarda borayotgan «Orol» (Nukus) jamoasi darvozaboni Berdax Olloniyo'zovni dadillik bilan jamoa a'zolari ruyxatiga kiritish, katta futboldagi o'yinlarni deyarli yakunlab bo'lgan Aleksandr Tixonovga to'laligicha ishonish, qiyinchilik bilan bo'lsa ham Igor Shkvirinni Isroildan chaqirtirib olish, barcha o'yinlar uchun to'g'ri ko'rsatmalar berish ularning barchasi Akromov Abduraimov juftligining eng muxim yutug'idir.

V. BOB. FUTBOL VA HAKAM HAQIDA.

5.1. Darvozabon hakamni ko'z shifokoriga yubordi.

Italiyalik darvozabon Grosso o'yin paytida hakamga ko'z oynak taqib yurishni tavsiya qildi va hakam uni bu gap uchun maydondan chetlatdi. Surishtirishlar natijasida aniqlandiki, darvozabon Grosso optik ko'zoynak sotiladigan do'kon egasi bo'lib, hakamning esa haqiqatdan ham ko'zi yaxshi ko'rmas ekan. Shu sababli ham tartibga chaqirish komissiyasi darvozabon Grossoning gaplarini haqorat sifatida emas, balki masiahat sifatida qabul qilish kerakligi haqida xulosa bergan. Hodisa darvozabonning kechirilishi va hakam tomonidan Grossoning do'konidan ko'z oynak sotib olishi bilan yakunlangan.

Hakam o'yinchini tahqirladi.

Germaniya mamlakati futbol chempionatidagi o'yinlarning birida "Ayntraxt" (Frankfurt) va Myunxenning "Bavariya" futbol klublari o'yinlarida yon hakam o'yinchini, ya'ni Yurgen Grabovskini haqoratladi, uning sha'niga yomon gaplar aytdi. Tartibga chaqirish komissiyasi qarori bilan hakam o'yinlardan chetlatildi.

Hakamlar uchun gurzi.

O'tgan asming 50 - yillarida Eronning Al Xarvas (Fors qo'ltig'iga yaqin joy) tumanida hokimiyat vakillari futbol hakamlariga cheklanmagan vakolatlar berishgan. Ular hakamlarga maydonga nafaqat hushtak, balki rezina gurzi olib chiqishga ruxsat berib, kezi kelganda hakamlar futbolchilarni nafaqat ogohlantirishi yoki maydondan chetlatishi kabi jazolarni, balki rezina gurzidan foydalanish huquqini ham berishgan. Bu tuman paytida futbol qoidalariga qat'iy amal qilinishiga yordam beradi.

Hakam o'yinchiga gapirish qobiliyatini qaytargan.

1967-yil Tunis mamlakatining bir o'yinohiga yig'ilgan muxlislar o'zi- ga hos antiqa voqeaga shohid bolishgan. Maydondan hakam tomonidan chetlatilgan o'yinchi juda ham baxtiyor edi. O'yinning aynan ma'lum bir vaqtida, yoshligidan saqov bo'lgan o'yinchi,

hakam qaroridan shunchalik norozi bo'lganki, ko'nglidan (ichidan) hakamga haqorat so'zlar va gaplar aytayotganida to'satdan o'yinchining tilidan chiqa, eshitila boshlandi va bu kutilmagan voqea bo'lgani uchun o'yinchi hakamni ovoz chiqarib haqoratlay ketgan, albatta hakam bunday holatda o'yinchini maydondan chetlatishi zarur bo'lgan. O'yinchi esa maydondan chetlatilganidan hech ham xafa bo'lmagan edi, chunki u yana gapira olar va eshitar edi.

Hakamlar futboli.

Otgan asrning 50 -yillarida Italiya mamiakatining Siena shahrida futbol hakamlari futbol jamoalariga bodinib, futbol o'ynashga qaror qilishgan. Yigirma ikkita hakam ikki jamoaga bolinib, futbol o'ynashni boshlagach, dastawal hammasi risolagidek ketayotgan edi, lekin bahsga sabab boluvchi to'p darvozaga kiritilgach, vaziyat izdan chiqdi. Futbol qonun - qoidalarini juda yaxshi bilgan 22 hakamning har biri gol kiritilgan vaziyatga o'zining nuqtai nazarini bildirishga harakat qilib, oxir-oqibat bu bahs o'zaro katta to'qnashuvga sabab bolgan va faqat politsiyachilarning aralashuvi bilan vaziyat o'z yechimini topgan.

Har bir o'yinchiga varoqcha.

Kamdan-kam kuzatiladigan holat Ispaniyaning ikkinchi liga klublari San Isidro" va "Olimpiko Karrante" futbol klublari ortasidagi uchrashuvda ro'y bergan. o'yin tugashiga uch daqiqa qolganida ikki klub o'yinchilarining hammasi hakam qaroridan norozi bolib, uni qurshab olishganida va o'z shikoyatlarini so'z, bahoralar, xatti-harakatlar, kuch ishlatib hakamga bir nimalarni uqtirmoqchi bolishganida, hakam xotirjamlik bilan shoshilmay cho'ntagidan qizil kartchkani olib maydondagi 22 futbolchining barchasiga ko'rsatib jazolagan!

Gretsiya mamlakatidagi kulgili xodisa.

1978-yilgi Gretsiya mamlakati futbol birinchiligida "Etnikos" Lebi o'z maydonida "PAOK" klubini qabul qilgan edi, mehmonlar

"40 JC" futbol klubi "Etnikos" klubi darvozasiga to'p kiritib, o'z hursandchiliklarini butun tarkib bolib, zahira o'rindig'ida

o'tirganlar bilan birga nishonlashga tushib ketishganida, hakam allaqachon to'pni o'yinga kiritish uchun ruxsat bergan va hushtak chalgan edi, lekin 1-- JK" futbol klubi o'yinchilari hali ham jamoa bo'lib kiritilgan to'pni nisholayotgan edi, bundan mezbonlar "Etnikos" klubi o'yinchilari». o'yinni boshlab, mehmonlar darvozasiga gol kiritib, hisobni tenglashtirganlar.

5.2. Futbol o'yinlarida eng ko'p qatnashgan o'yinchilar.

Milliy terma jamoa safida rekord o'yinlarda ishtirok etish bo'yicha g'oliblik Saud Arabistoni terma jamoasi safida 1978-1994-yillarda 147 uchrashuvda maydonga tushgan Madjid Abdullo Muhammadga tegishlidir.

Britaniyalik darvozabon Piter Shilton 1390 marotaba maydonga tushib, shulardan 1005 tasini milliy liga o'yinlarida o'ynagan.

Futbol tarixida eng yosh sardor.

2010-yilgi jahon futbol chempionatida Argentina terma jamoasi guruhdagi uchinchi, Gretsiya futbol terma jamoasi bilan bo'lgan uchrashuvda Argentina terma jamoasi sardori Xaver Maskeranoning bayrami bo'lganligi sababli Diego Maradona Messiga sardorlik bog'ichini ishon- di. Jahon futbol chempionati va Argentina futbol tarixida sardorlik bog'ichini 23 yoshli o'yinchi olib chiqqanligi futbolda kamdan kam bo'ladigan holat. Haqiqatdan ham yosh bo'lganiga qaramasdan, Messida sardorlik bog'ichini olib yurish malakasi bor edi. "Barselona" klubi safida Messi o'rtoqlik uchrashuvlarida sardorlik bog'ichida klubni olib chiqqan.

Futbol jamoalari.

Eng birinchi tashkil etilgan futbol klubi - "Sheffield" FK, uning tashkil etilishi 1850-yillarning o'rtalarida sodir bo'ldi. 1863-yiida birinchi futbol assosiasiyasining asos solinishiga qadar 12 ta futbol klubi paydo bo'lgan edi. Bizning davrimizga kelib 1000 dan oitq futbol klublari mavjud.

Ma'lum bo'lishicha, "Manchester Yunayted" klubi eng ko'p mux- lislarga ega bo'lgan klub sanaladi. Klubning rasman

ro'yxatdan o'tgan muxlislar soni 152 ming bo'lib, 45 ming muxlis mavsumiy chiptalar sohibidir. Ijtimoiy so'rov shuni ko'rsatdiki, "Manchester Yunayted" klubining 2001-2002-yildagi mavsumda ko'rsatgan o'ynini butun dunyoda o'rta hisobda 50 mln muxlis tomosha qilgan.

Chexiyaning "Bogemians" klubining laqabi "Kenguru" garchi bu klub Avstraliyadan 13 ming km. uzoqlikda joylashgan bo'lsada. Gap shundald, 1927-yilda "Bogemians" klubi Avstraliyaga tashrif buyurgan- da, ular ikkita tirik kengurularni o'z bog'iga qilishgan, ular keyinchalik bu kengurularni Pragadagi hayvonot bog'iga topshirishgan. Klubga esa ko'krak ramzi sifatida kenguru tasvirini idiyimlariga tushirishgan.

Ayrim mashhur klublar kiyimlarining ranglari ular tashkil topgan paytda boshqa rangda bodgan. Masalan, hozirda Italiyaning "Yuventus" klubining asosiy o'yin kiyimi oq-qora yo'l-yo'l kiyim bodsa, avvallari, klub tashkil topgan ilk yillarda ular o'yin kiyimining rangi pushti rang bodgan.

"Liverpul" klubining birinchi besh yillikdagi o'yin kiyimi qizil rangda emas, balki ko'k-oq rangda bodgan, ular bu rangda 1960-yilga qadar o'ynashgan.

"Lids Yunayted" klubining rasmiy kiyimi ko'kimtir-sarghsh rangda bodgan va klub menejeri Don Rivi bu rangni keyinchalik o'z rangga o'zgartirgan.

Nomlardagi o'zgarish

1996-yilda "Llansantfreyd" klubi Uels kubogini qodga kiritib, keyinchalik o'zining bosh homiysi bodgan "Total Netuork Solyushn" nomiga klub nomini o'zgartirgan. U hozirda Uels futbol chempionatida o'vnay- di va 2005/2006-yilgi chempionlar ligasi o'yinlarida "Liverpul" klubiga o'yinni yutqazgan.

Shunaqa fikr mavjudki, "Dayel Skver", "Nyuton Xels" va "Temz Ayron Uork" klublari nomi hozirgi - Angliyaning mashhur "Arsenal", "Manchester Yunayted" va "Vest Xem Yunayted" klublarining ilk nomlari bodgan.

Pul katta ahamiyatga ega 1899-yilda Angliya Futbol Assosiatseyasi futbol klublariga o'yinchi- larning bir klubdan boshqa futbol klubiga odish transferini 10 funt sterling deb belgilagan edi. Ammo, 102 olgach Frantsuz futbolchisi Zinedin Vidan "Yuventus" klubidan "Real" klubiga 45,6 mln funt sterling

pul evaziga o'tganida, bu o'ziga hos rekord hisoblangan. Futbol - ulkan biznesga aylandi, unda eng zo'r jamoalar xuddi yirik korxonalarni boshqargan kabi boshqariladi.

1963-yilda "Everton" futbol klubi Angliya futbol chempionatida g'olib boddi, bunga asosiy sabab klubning 1962-yilda 100 ming funt sterlingga futbolchilarni xarid qilgani uchun, klub "chempionlikni chek kitobchasi orqali egallagan", - deb atashgan, vaholanki, 2004-2005-vilgi mavsumda Angliya futbol chempionatida g'alaba qozongan "Chelsi" klubining egasi Roman Abramovich faqatgina klubga futbolchilar xarid qilish uchun o'sha mavsumda 200 mln. funt sterling mablag' sarflagan.

Italiyadagi kichik bir qishloqda ("Peskichi") 1998-yilda lotoreya o'yinida 23 mln funt yutishgan. Qishloq fuqarolari o'sha zahoti braziliyalik mashhur futbolchi Luis Ronaldoni sotib olishga qaror qilishdi. ular Ronaldoning qishloq sharafini himoya qilayotgan mahalliy klubda o'ynashini istashgan.

2000-yilda Milanning "Inter" klubi o'yinchi Freddi Adu uchun 500 ming funt sterling berishini ma'lum qildi. lekin, Adu ota-onasi "Inter" klubi taklifini rad etdi, chunki Adu endigina 10 yoshga kirgan edi.

1993-yilda Albaniya futbol federatsiyasi futbolchilarga Ispaniya futbol terma jamoasi bilan bo'lgan uchrashuv oxirida o'zaro futbolka almashtirishni ta'qiqlagan, chunki terma jamoada qo'shimcha futbolka xarid qilish uchun mablag' bo'lmagan.

2005-yil Ruminiyaning "Universitaty Krayova" klubi egasi Din Stayku o'z klubini teldnga shahar kengashiga berish istagi borligini bildirdi, chunki u keyinchalik klubini auktsionda sotib olmoqchi edi.

2002-yilda Daniyaning "Lyungbyu" FK o'zini bankrot deb e'lon qildi. Klub mamlakatdagi ikki futbol divizioniga, pastga tushib ketdi va klub havaskor klubga aylandi.

Transferlar.

Sanoqli futbolchilar 10 mln. funt sterlingga bir klubdan ikkinchisiga sotiladi. Lekin ko'pgina oddiyfutbolchilar kamroq pniga erkin agent sifatida bir klubdan ikkinchisiga o'tishi mumkin, ayrim hollarda futbolchilar bepul ham bir klubdan ikkichisiga o'tishlari mumkin, hattoki mazmunan kulgili bo'lgan

shartnomalar imzolangan holatlar ham kuzatilgan.

1979-yil Daniel Alende Urugvayning "Sentral Espanol" klubi bilan unga 550 ta bifshteksni haftasiga 25 donadan berilish sharti bilan shartnoma imzolagan.

1982-yilda Toni Kaskarino FK "Krokenxill" dan "Jellingem" klubiga berildi, evaziga klub bir nechta metall panell oldi, ular stadionning remonti uchun juda zarur edi. Keyinchalik Toni "Aston Villa" va "Marsel" klublari safida ham o'ynadi va Irlandiya futbol temia jamoasi tarkibida eng ko'p may donga tushgan futbolchi bo'ldi. U 88 uchrashuvda Irlandiya futbol terma jamoasi tarkibida may donga tushgan.

"Manchester Yunayted" klubi eng qimmat transferni amalga oshirgan klub bo'lib, 2002-yilda Rio Ferdinanddek futbolchini sotib olishi uchun klub 30 mln. font sterling sarflagan.

Maydon (stadion)lar.

Maydon (stadion) – futbol o'yinlari o'tkaziladigan joydir. Braziliyadagi "Marakana", Italiyadagi "San-Siro" va Ispaniyadagi "Non Kamp" o'yingohlari eng mashhur futbol o'yingohlari bo'lib, butun dunyoga mashhurdir. Yangi o'yingoh qurish uchun katta mablag' kerak.

1910 yilda "Old Trafford" o'yingohining qurilishini tugatish uchun 60 ming font sterling kerak bo'lgan.

Ma'lum bo'lishicha, yangi "Uembli" o'yingohini qurib bitkazish uchun 757 mln. font sterling mablag' zarur edi.

Angliyaning shimoliy konferentsiyadagi o'yinlar o'tkaziladigan o'yingohlari ichida Drill Filddagi "Norvich Viktoriya" eng eski. o'yin-gohlaridan biri sanaladi, u 1874-yili qurilgan.

Ozarboyjon milliy o'yingohi 1966-yilda Angliya futbol terma jamoa-sining final o'yinida kiritilgan uchinchi golni hisobga olgan qanot hakami Tofik Baxramov nomiga qo'yilgan.

Avstriyaning "Shturm" klubi o'z uyidagi o'yinlarni Arnold Shvarts-negger nomi bilan ataladigan o'yingohda o'tkazishadi.

"Uayt Xaret Leyn" "Tottenxem Xotspur" klubining o'yingohi bo'lib, urush vaqtida bu stadionda protivogaz ishlab chiqaradigan zavod bo'lgan.

Germaniyaning "Borussiya" (Doyimund shahri) klubi o'yinda tashrif buyuruvchilar sonining yuqori ekanligi bilan

faxrlanadi. 2004-2005 yilgi mavsumda o'rtacha hisobda ichki chempionatda "Borussiya" o'yinlariga o'rtacha hisobda 77 353 ta tomoshabin o'yinga tashrif buyurgan. "Borussiya" klubi raqibi "Shalke 04" klubida esa bu ko'rsatkich mavsumda 61 241 kishiga teng.

Tomoshabinlar eng ko'p tashrif buyurgan jahon futbol chempionati final o'yini "Marakana" o'yingohida 1950-yilda qayd qilingan (199850 kishi).

Eng kam futbol ishqibozi tashrif buyurgan o'yin 1921-yildagi "Stok- port Kaunti" va "Lester Siti" klublari o'rtasidagi o'yinda kuzatilgan, atigi 13 kishi.

Jahon futbol chempionati o'yinlaridagi eng kam tomoshabin tashrif buyurgan o'yin 1930-yilda Ruminiya va Pern (3:1) futbol terma jamoalari o'rtasida bo'lgan. Unda faqat 300 ta tomoshabin tashrif buyurgan.

Angliya Futbol Assosiatseyasi 1930-yilda o'yingohlarda yoritgichlardan foydalanishni ta'qiqlab qo'ydi va bu ta'qiq 1950-yilgacha amal qilgan.

1995-1996 yilgi mavsumda Angliyaning "Blekpul" klubi zahirada oriiradigan o'z futbolchilari uchun o'rindiqlarda isitish moslamasini o'matishi natijasida zahiradagi mezbolar o'yinchilari ham sovuq havoda o'zlarini yaxshi his qilishar edi, lekin mehmon jamoa zahira o'yinchilari uchun mo'ljallangan o'rindiqlar esa sovuq va qattiq holatda qolgan.

1976-yili Vankuverdagi jahon futbol chempionatida Kanada va AQSh futbol terma jamoalari o'rtasidagi saralash o'yini birinchi marta sun'iy qoplamli maydonda o'tkazilgan.

Maydonlar tuzilishi.

1880-yilda Buyuk Britaniyadagi "Aberdina" - "Pittodri" o'yingohi mamlakatda o'yinni o'tirib tomosha qilish uchun to'liq o'rindiqlar bilan jihozlangan birinchi o'yingoh bo'ldi. Bir yil origach, "Koventri Siti" klubining o'yingohi "Xayfiled Roud" Angliyadagi oriindiqli birinchi o'yingoh bo'ldi.

Braziliyada sun'iy yoritish vositalaridan ilk bor 1923-yil 23 - iyundagi AA "Respublika" va SE "Linyas e Kabush" klublari o'rtasidagi o'yinda foydalanilgan. O'yin vaqtida maydon tramvay faralari orqali yoritilib, Braziliyada haqiqiy proyektor bilan

ilozlangan o'yingoh bu - "Vasko Da Gama" klubining o'yingohidir.

Futbol maydonidagi korrida.

Ispaniyaning Fuente shaxrida mahalliy futbol jamoasi "Gonsha" futbol jamoasini qabul qilayotganda, bir necha daqiqa o'rgan borisa ham mehmonlar "Gonsha" futbol jamoasi 0:2 hisobida oldinda borayotgan edi. Shu payt allaqayerdan korrida o'yinlarida foydalanadigan buqalar birin- ketin maydonga kirishdi. Hakamlar va o'yinchilar buqalami koriishlari bilan maydondan chiqib xavfsiz joy qidira boshlashgan. O'yin shu ahoti torixatilgan. Keyinchalik orikazilgan surishtiruv shuni ko'rsatdiki, konida musobaqasi uchun tayyorlab qo'yan buqalami mezbonlar jamoasining ashadiy muxlislaridan biri jamoasi yirik hisobda mag'lubiyatga uchramasligi uchun maydonga korrida buqalarini qo'yib yuborgan.

Futbolchilarning o'g'irliklari.

Senegal futbol terma jamoa o'yinchilariga 2002-yilgi jahon futbol chempionatida liar bir uchrashuvdagi g'alaba uchun mukofot to'lashlarini va'da qilganlar. Ammo terma jamoaning bu muvaffaqiyatiga barcha o'yinchilar ishonmagan shekilli. Ayrim futbolchilar pul ishlashning boshqa usulini axtarishdi. Koreya politsiyachilari tomonidan senegallik yarimhimoyachi Xalilu Fudiga yuvelir magazinidagi oltin taqinchoqni o'g'irlaganligida aybdor deb hisoblagn. O'g'irlik Fransiya futbol terma jamoasi bilan o'yin oldidan sodir etilgan edi va o'yinchining qamoq jamoasi bilan jazolanishiga sal qolgan edi. Ammo koreys huquq organlari "qiymati arzimaydigan o'g'irlik" uchun jinoyat ishi qo'zg'atmaslikka qaror qilgan.

1970-yil Meksikadagi jahon futbol chempionatida Angliya futbol terma jamoasi sardori Bobbi Mur ham yuvelir magazinidagi o'g'irlikda gumon qilingan edi, lekin keyinchalik u ajabsiz deb topildi.

Ob - havo injiqliklari.

1973/1974-yilgi futbol mavsumida Shotlandiya mamlakatining "Inverness Tyostl" va "Falkirk" futbol klublari o'zaro 30 marotaba kuch sinashga harakat qilishgan, 29 marta

o'yin ob-havo tufayli futbol o'ynashga imkon bermagani uchun ham to'xtatilgan ekan. So'nggi o'ttizinchi uchrashuvda klublar maydonga tushishgan va "Falkirk" klubi 4:0 hisobida g'alaba qozongan.

1945-yilda Angliya mamlakatining "Arsenal" klubi o'z maydonida Moskvaning o'Aha paytdagi eng kuchli "Dinamo" klubini qabul qilgan. O'yin boshlanishi bilan maydonga qalin tuman tushib, maydonda ko'rish imkoni yomonlashdi, lekin o'yin davom ettirildi. Aytishlaricha, "Arsenal" klubining maydondan chetlatilgan o'yinchisi maydonga qaytib o'yinda ishtirok etgan. "Dinamo" esa zahiradagi o'yinchilarini maydonga tushirgan va 3:2 hisobida g'alaba qozongan.

"Tumanli" futbol.

Britaniya orollarida tuman odatiy holdir. Lekin, Shotlandiya mamlakati futbol klublarining o'zaro o'yinida bir qiziq voqea ro'y bergan. Tuman maydonda shunchalik qalin bo'Tib, tushganki, o'yinchilar uzoq vaqt davomida to'pni, jamoadoshlari va raqiblarini qidirishgan.

O'yinning ma'lum bir daqiqasida hakamga maydonda o'yinchilarning soni ko'paygandek tuyulgan. Hakamning birinchi qilgan ishi j'amoalarning zahira o'rindig'ini tekshirgan va shu narsa ma'lum bodganld, ikki jamoaning zahira o'rindig'i bo'sh bodgan, ya'ni maydonda 22 futbolchi emas 30 ta futbolchi to'p surayotgan bo'lib, hakam shu zahoti o'yinni to'xtatgan.

Qorbo'roni.

Angliya mamlakati futbol birinchiligida "Nottingham Forest" va "Lester Siti" futbol klublari o'rtasidagi o'yinda qorbo'ron borgan sari kuchayib, maydonni ko'rish ilojiumumanyo'qolgach. o'yinni boshqargan hakam ikkinchi bo'lim boshida o'yinni to'xtatishga majbur bodgan.

Odatlar.

Odatlar - avval orttirib olgan qandaydir o'zgarishning tirik mavjudotlar tomonidan saqlanishi va qayta ko'rsatishini bajarishdir. Odatlar o'rgatish va ko'rsatish mahsuli bodishi mumkin. Ko'pincha odatlar bir maqsadda va ataylab qilinadi, kamdan - kam holda to'satdan sodir qilinadi. Odatlar turlarga

bo'linadi: ular foydali va zararli, doimiy va vaqtinchalile, umumiy yoki bo'lmasa takrorlanmas bodishi mumkin. Tirik jonzotlarda odat faol xususiyatga ega.

Qandaydir o'zgarish odatni odatiy yoki takrorlanib turishi odatni mustaqil ravishda qayta ko'rsa- tishga undaydi. Jismoniy odat - muskullardagi tez-tez qisqarishlar bilan bogdiq bodsa, aqliy odat - takrorlanib turadigan o'xshashlik bilan, xususiy odat esa - takrorlanib turadigan harakat bilan bogdiqdir. Har bir insonda o'ziga hos qandaydir odat mavjuddir. Menda odat bodsa, albatta, sizda ham odat bodadi, futbolchilar ham odat xususiyati bodishidan xoli emas.

Futbolchilari'da ko'pincha ikki xil odat bodadi:

- 1) har doimgi (odtacha);
- 2) boshqalarga yoqmaydigan.

Masalan, futbolchilarning maydonda burun qoqishlari odamlarni asabiylashtiradi, jahlni chiqaradi. Nahotki, ular bunday qilishdan uyalmasa. axir millionlab odamlar ularga ko'z tikib turgandi-ku?!

Shunday odatlar borki, ular futbolchilarga o'yin paytida yordam beradi.

Masalan: argentinalik mashhur darvozabon Serxio Goykochea mashhur futbolchi Maradona bilan birga o'ynagan paytida, 11 metrlik jarima to'plarini qaytarish bo'yicha eng tajribali darvozabon sanalib, uning gazetalarga bergan intervyusida buning siri - u har safar 11 metrlik jarima berilganda, hech kimga bilintirmasdan kichik hojatini maydonda chiqargan va hech kim buni sezmagani.

Chunki u bu odatini ishni hech kim ko'rmaydigan usulda qilgan va uning bu odati unga 11 metrlik penaltilarni qaytarishga yordam bergan.

Ayrim futbolchilarda qo'pollik qilish boshqa futbolchining nafsoni-yatiga tegadigan gaplar aytish odatlari ham bor. Ko'pgina odatlar ruxiyat bilan yoki borimasa miyaga kislorod tanqisligi bilan bog'liqdir. Agar miyada qandaydir shikastlanish bo'lsa, zudlik bilan shifokorgamurojaat qilish kerak. Asabiy odatga futbolchi Rivining o'yinda har doim yengini shimarib o'ynashi misol bo'lishi mumkin chunki, hatto qishda ham u yengini shimarib futbol maydoniga tush ar edi.



Keling, endi futbolchilarning yaxshi odatlari haqida aytib o'tamiz.

Endi futbolchilar gol urganda golni nishonlash odatlari haqida aytib o'tamiz. Gol urgan har bir o'yinchi uni o'zgacha odatda nishonlaydi. Rossiya mamlakatida golni nishonlash odatini Andrey Arshavin olib kirdi. U bu odatni bir necha yillar oldin ishlatar edi. A.Arshavin o'zining usulida to'p kiritganda ko'rsatkich barmog'ini labi ustiga qo'yar edi.

Muxlislar Arshavinning bu odatini turlicha talqin qilishgan. Ularning fikricha, u bu odati bilan muxlislardan to'p kiritilish usulidan unchalik ajablanmaslik kerak, deb aytmog'chi deb hisoblashishgan, lekin keyinchalik Arshavin bergan intervyusida shuni aytib o'tdiki, uning odatida hech qanday ma'no yo'q, bu faqatgina odatdir.

"Manchester Yunayted" klubida to'p surgan mashhur o'yinchi Erik Kantona esa bir safar gol urganda golni nishonlash uchun futbolkasining yoqasini ko'targan va bu unga odat bo'lib, har safar o'yinga tushganda yoqasini ko'targan holda o'yinda ishtirok etadigan bodgan.

Muxlislarga ham bu ma'qul bo'lib, fransiyalik Erik Kantana va "Manchester Yunayted" klubi ishqibozlari faqat ko'tarilgan yoqalarda yuradigan boldilar.



Ayrim hollarda esa muxlislar ba'zi bir futbolchilarning golni nishonlash odatlarini qoralab, ularga o'z e'tirozlarini bildirishadi.

Masalan: "Liverpool" klubining hujumchisi Piter Krauch kiritgan to'plarini "robot yurish" sifatida nishonlashini muxlislar e'tiqchasiga yoqtirishmagan. Ko'pchilik muxlislarning fikricha, Piter Krauchning harakatlarini bachkana va g'alati deb baho berishgan bo'lsa, OAV (ommaviy axborot vositalari) uning bu harakatlarini "mazmunsiz va ahmoqona harakat" deb atadi.

FIFA qoidasi bo'yicha golni nishonla- ganda, o'yinchi futbolkasini yechib tashlasa, sariq varoqcha bilan jazolana- di. FIFA futbolchilarning maydonda o'yin vaqtida tanasini ko'z- ko'z qilish larini yoqtirmaydi. Ispaniya futbol terma jamoasi o'yin- chisi Inesta ham gol urganda ehtirosla- rini jilovlay olmasligini bilib, bir necha qavat kiyim kiygan.

Mashhur "Barselona" klubi o'yinchisi Leonel Messi esa to'p kiritganda, osmonni barmoqlari bilan ko'rsatib. Olohh unga madadkor ekanligini ko'rsatadi.

Do'stlar, yomon odatga o'rganib qolmang, agar sizda yomon odat bodsa, darhol uni bartaraf qilishga harakat qiling. Shu mavzuga doir yaxshi bir naql (tsitata) bor: odat bu insonning ikkinchi qiyofasidir.

VI. BOB. FUTBOL O'YIN QONUN QOIDALARI VA MUSOBAQALARNI TASHKIL ETISH.

6.1. Dastlabki futbol o'yini qonun qoidalari.

Bizgacha yetib kelgan dastlabki qoidalar esa 1863 yili 26 oktyabr Londonda Angliya futbol uyushmasining tashkil etilishi paytida bu o'yinning 13 moddadan iborat bo'lgan ilk rasmiy qoidalari tasdiqlangan keyinchalik bu qoidalar boshqa barcha milliy uyushmalar uchun futbol o'yinining asosi bo'lib qoldi. 1863 yili, 8 dekabrda bu qoidalar e'lon qilingan.

1. Maydonning bo'yi 200 yard (183m) dan, eni 100 yard (91.5m) dan oshmaydi. Maydonning burchaklariga bayroqchalar o'rnatiladi. Ustiga to'sin yotqizilmagan darvoza 8 yard (7.32 m) oraliqda o'rnatilgan bo'lib, ikkita ustundan iborat.

2. Kim qay tomondan o'ynashi qur'a tashlab hal qilingan. Qur'ada yutqazgan jamoada maydon markaziga qo'yilgan to'pni tepib, o'yinni boshlab beradi. Ikkinchi jamoa o'yinchilari to'p tepilgunga qadar unga 10 yard (9.1m) dan yaqin kela olmaydilar.

3. Darvozaga to'p urilgandan keyin, jamoalar tomonlarini almashtirganlar.

4. To'p qo'lda uloqtirilmay, qo'lda zarba berilmay yoki qo'lda ko'tarib kirilmay, ikkita ustun oralig'idan o'tsa, darvoza zabt etilgan hisoblanadi.

5. Agar to'p yon chiziqdan tashqariga chiqib ketsa, unda hammadan avval tega olgan o'yinchi to'pni chiziqni kesib o'tgan joydan, chiziqqa nisbatan to'g'ri burchak hosil qiladigan yo'nalishda to'pni qo'lda maydonga tashlab beradi. To'pni yerga tekkan zahoti o'yinga kirgan hisoblanadi.

6. O'yinchi zarba berayotgan paytda uning jamoasining zarba beruvchidan ko'ra raqib darvozasiga yaqinroq turgan hamma o'yinchilari o'yindan tashqari holatda hisoblanadi va ular to'pga tega olmaydilar yoki raqiblarga halaqit bera olmaydilar.

7. To'p darvoza chizig'idan tashqariga chiqib ketib, chiziqning narigi betida himoyalalanayotgan jamoa o'yinchisi birinchi bo'lib unga tegsa, shu jamoada darvoza chizig'ining o'yinchi to'pga tekkan joy ro'parasidagi nuqtasidan to'p tepish huquqini oladi: bordi-yu hujum qilayotgan jamoa o'yinchisi to'pni birinchi tekkan joy ro'parasidagi nuqtasidan erkin to'p

tepish huquqini oladi. Erkin to'p tepish paytida himoyadagi jamoa to'p tepilgunga qadar darvoza chizig'idan tashqarisida turadi.

8. Agar o'yinchi boshqa o'yinchi zarbasidan uchib kelayotgan to'pni bevosita qo'li bilan ilib olsa, shu holat ro'y bergan joyni belgilab olib, o'sha joydan erkin zarba berishi mumkin.

9. O'yinchilar to'pni qo'llariga olib yugura olmaydilar.

10. O'yinchilarni chalish va urish man etiladi, shuningdek o'yinchini qo'l bilan ushlab to'xtatib qolish yoki turtish man etiladi.

11. To'pni qo'l bilan uzatish man etiladi.

12. Maydon ichida to'pga qo'l tekkizish man etiladi.

13. Temir va guttaperchadan qiligan joylari turtib chiqqan poyavzallarda o'ynash man etilgan.

Ko'rinib turibdiki, 1863 yildagi qoidalar hozirgi qoidalardan ancha farq qiladi. Bu hozirgi kungacha futbol qonun qoidalarini yillar o'tishi bilan o'zgarganligini ko'rsatadi.


1 - QOIDA: Uchrashuv o'tkaziladigan maydon.

O'yin o'tkaziladigan maydon to'rt burchak xolatda bo'lishi zarur. Maydoning yon tomoni (yani bo'yi) darvoza ortidan (yani enidan) katta bo'lishi kerak.

Bo'yiga: minimum 90 m, maksimum 120 m. **Eniga:** minimum 45 m, maksimum 90 m.

Xalqaro o'yinlar uchun:

Bo'yiga: minimum 100 m, maksimum 110 m. **Eniga:** minimum 64 m, maksimum 75 m.



144 – rasm.

Maydondagi chiziqlar.

O'yin o'tkaziladigan maydon chiziqlari bilan belgilanadi va ushbu chiziqlar xam maydon tarkibiga kiradi. Ikkita uzun maydonni ajratuvchi chiziqlar-yon chiziqlar, ikkita kichkina chiziqlar esa – darvoza chizig'i deb ataladi. Maydon markazidagi chiziq o'yin o'tkaziladigan maydonni teng ikkiga ajratib turadi. Ushbu markazdagi chiziqning o'rtasida markaziy belgi mavjud. Ushbu markaziy belgidan radiusi 9,15 m bo'lgan aylana chiziladi.

Darvoza maydoni.

Maydonning xar ikki tomonida darvoza maydoni mavjud bo'lib, u quyidagicha joylashgan: Darvoza chizig'idan 5,5 metr masofada darvozani xar bir ustunining ichki tomonidan parallel chiziq tortiladi. Bu chiziqning uzunligi xam 5,5 metr bo'ladi. Bu uzunlikdagi chiziqning oxiri perpendekulyar tarzda darvoza chizig'i bilan tutashadi. Shu shakildagi to'rtburchak darvoza maydoni deb ataladi.

Jarima maydoni.

Maydonning xar ikki tomonida jarima maydoni mavjud bulib, u quyidagicha joylashgan:

Darvoza chizig'idan 16,5 metr masofada darvozani har bir ustunining ichki tomonidan parallel chiziq tortiladi. Bu kesmaning uzunligi ham 16,5 metr bo'ladi. Bu uzunlikdagi chiziqning oxiri perpendekulyar tarzda darvoza chizig'i bilan

tutashadi. Shu shakldagi to'rtburchak jarima maydoni deb ataladi.

Har ikkala maydonlar o'rtasida darvoza chizig'idan 11 metr masofada hamda darvoza ustunlaridan teng masofada 11-metrlik belgi qo'yiladi. Har bir jarima maydoni chizig'i tashqarisidan radiusi 9,15 metr bo'lgan yarim aylana chiziladi va uning markazi 11-metrlik nuqta vazifasini o'taydi.


Maydon burchagidagi bayroqlar.

O'yin o'tkaziladigan maydonning xar bir burchagiga uzunligi 1,5 metrdan oshmagan ustunlar o'rnatiladi. Bu ustunning tepa uchi o'tkir bo'lmasligi va ustunga qalin matoli bayroq ilingan bo'lishi shart. Ushbu bayroqlar yana maydon markazini ajratib turuvchi chiziqning oxirlariga, maydondan tashqariga va yon chiziqdan 1 metr uzoqlikgacha o'rnatilishi xam mumkin.

Burchak sektori.

Xar bir maydon burchagidagi bayroq asosida oysimon chiziq o'tkaziladi, ushbu chiziq burchakdagi bayroqdan 1 mert radiusdagi o'lchamda chiziladi.

Darvoza



145 - rasm.

Xar ikki darvoza chizig'ining o'rtasiga darvoza o'rnatiladi. Darvoza ikki vertikal ustundan iborat bo'lib, maydon burchagidagi bayroqlardan teng masofada joylashgan. Ushbu ikki ustunni bitta gorizintal joylashgan to'sin birlashtirib turadi.


Darvoza ustunlarining orasi 7,32 mert, darvoza to'sini yerdan 2,44 mert masofada joylashgan bo'lishi kerak. Ikkala ustun va to'sin xam bir xil kenglikda (12 sm gacha) bo'lishi zarur.

Darvoza ichidagi chiziq xam ustunlar va to'sinning kengligida chizilgan bo'lishi zarur. Darvozaga va darvoza ichiga darvozabonlarga xalaqit qilmaydigan qilib darvoza to'rlarini o'rnatish kerak.

Darvoza ustunlari va to'sini oq rangda bo'lishi zarur.

Xavfsizlik.

Darvozalar yerga maxkam o'rnatilgan bo'lishi kerak, ko'chma darvozalar esa yuqoridagi talablarga javob bersagina foydalanish mumkin.



146 – rasm.



147 – rasm.

Shaxar: Pxenyan, Shimoliy Koreya

Jamoa: KXDR

Sigimi: 150 000

Tashkil topgan yil: 1989

Muxlis sig'imi bo'yicha dunyodagi eng katta stadion. Ushbu stadion 1989 yilda yoshlar va talabalar festivaliga qurib bitqazilgan. Stadion 16 ta arkli, doira shaklida, magnoliya guli shakliga o'xshab ketadi. Stadiongga «1 may» nomi berilgan.



148 – rasm.

"Paxtakor" Markaziy stadioni

Qurilish davri: 1954-1956

Ochilgan yili: 1956

Ta'mirdan chiqarilgan muddati: 1996, 2008

Chimi: tabiiy

Me'mor: Mitxat Bulatov

Sig'imi: 34000

Izox: Dastlab Maydonning bo'yi 200 yard (183m) dan, eni 100 yard (91.5m) bo'lgan. Maydonning burchaklariga buyroqchalar o'rnatiladi. Ustiga to'sin yotqizilmagan darvoza 8 yard (7.32 m) oraliqda o'rnatilgan bo'lib, ikkita ustundan iborat.

1866 yilda yilda balandlikni cheklash uchun ustunlar orasiga arqon tortib qo'yildi.

1875 yili arqonli darvoza ustuni o'rniga 2.44m balandlikda yotqazilgan to'singa almashtirildi.

2 - QOIDA: To'p.

To'p uchun xom-ashyo va texnik ma'lumotlar.

To'p:

- dumaloq shaklda bo'lishi;
- teri yoki shunga o'xshash xom-ashyodan tayyorlangan bo'lishi;
- xajmi 70 sm kubdan ko'p yoki 68 sm kubdan kam bo'lmasligi;
- uchrashuv boshlanish arafasida 410 gr dan 450 gr gacha bo'lishi;
- to'p ichidagi bosim meyori 0,6-1,1 atm(600-1100 g/sm) ga teng bo'lishi kerak.

Yaroqsiz xolatga kelgan to'pni almashtirish.









Agar to'p o'yin paytida o'z xolatini yo'qotsa, unda:

Uchrashuvni to'xtatish zarur, to'p almashtirilgandan so'ng o'yin to'xtagan nuqtadan «baxsli to'p» orqali davom ettirish zarur.

Agar to'p o'z xolatini: maydon tashqarisiga chiqib ketganda, jarima to'pi belgilanganda, burchak to'pi tepilayotganda, 11-metrli jarima to'pi tepilayotganda, yon chiziqdan o'yinga kiritilayotgan paytda yo'qotsa, unda:

To'p almashtirilgandan so'ng o'yin to'p kiritilishi bilan davom ettirilishi ko'zda tutiladi.

**O'yin paytida hakamning ruxsatisiz to'pni almashtirish mumkin emas.
Jaxon chempionatlarida o'ynalgan barcha to'plar.**

	
<p>"T-Model" 1930 yil Urugvayda o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.</p>	<p>"Federale 102" 1934 yil Italiyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.</p>
	
<p>"ALLEN" 1938 yil Fransiyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.</p>	<p>"Super Duplo T" 1950 yil Braziliyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.</p>
	
<p>"Swiss WC Match Ball" 1954 yil Shveysariyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.</p>	<p>"TOP-STAR" 1958 yil Shvetsiyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.</p>
	
<p>"MR. CRACK" 1962 yil Chilida o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.</p>	<p>"Challenge 4-Star" 1966 yil Angliyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.</p>



Birinchi «rasmiy»
to'p "Telstar" 1970 yil Meksikada
bo'lgan jaxon chempionatida
o'ynalgan. Qo'lda tikilgan, 32
elementdan -12 ta beshburchak, 20
ta oltiburchakdan iborat.



"Telstar Durlast" 1974 yil
FRGda o'tkazilgan jaxon
championatida o'ynalgan to'p.



"Tango Riverplate" 1978 yil
Argentinada o'tkazilgan jaxon
championatida o'ynalgan to'p.



"Tango Espana" 1982 yil
Ispaniyada o'tkazilgan jaxon
championatida o'ynalgan to'p.



"Azteco Mexico" 1986 yil
Meksikada o'tkazilgan jaxon
championatida o'ynalgan to'p.







"Etrusco Unico" 1990 yil
Italiyada o'tkazilgan jaxon
championatida o'ynalgan to'p.



"Questra" 1994 yil AQSH da
o'tkazilgan jaxon chempionatida
o'ynalgan to'p.



"EQT Tricolore" 1998 yil
Fransiyada o'tkazilgan jaxon
championatida o'ynalgan to'p.

	
<p>"Fevernova" 2002 yil Janubiy Korea va Yaponiyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.</p>	<p>"Teamgeist" 2006 yil Germaniyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.</p>
	
<p>"Jabulani" 2010 yilda Janubiy Afrikada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.</p>	<p>"Brazuka" 2014 yil Braziliyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.</p>
	
<p>"Telstar" 2018 yilda Rasiyada o'tkazilgan jaxon chempionatida o'ynalgan to'p.</p>	

Izox: 1872 yili ko'pchilik jamoalar yig'ilib bir qarorga kelishdiki, to'p yumaloq va uning sferik aylanasi taxminan 68-70 mm bo'lishi lozim. Shu yili to'pning og'irligi va hajmi rasman tasdiqlangan.

3 - QOIDA: O'yinchilar soni.

O'yinchilar.

O'yinda ikkita jamoa xar birida 11 tadan ortiq bo'lmagan o'yinchi qatnashadi. 11 o'yinchidan bittasi darvozabon bo'lishi kerak. Agar jamoalarda 7 tadan kam o'yinchi bo'lsa, unda uchrashuvni boshlash mumkin emas.



149 – rasm.

Rasmiy uchrashuvlar.

FIFA, qit'a konfederasiyalari yoki milliy assosiatsiyalar tomonidan o'tkaziladigan uchrashuvlarda uchtagacha o'yinchi almashtirishga ruxsat etiladi. Agar musobaqa reglamentida ko'proq o'yinchi almashtirish mumkin bo'lsa, unda yettitagacha o'yinchi almashtirish mumkin.

Boshqa uchrashuvlar.

Boshqa uchrashuvlarda quyidagi shartlarga asosan 5 tagacha o'yinchi almashtirish mumkin:

Ikki uchrashadigan jamoa maksimal darajada o'yinchi almashtirishga kelishganda, bosh hakam ushbu kelishuv xaqida uchrashuv boshlanguniga qadar ogox etilsagina. Agar uchrashuv hakami kelishuv xaqida o'yin boshlanguniga qadar ogoxlantirilmasa yoki ikki jamoa maksimal darajada o'yinchi almashtirishga kelisha olmasa, uchrashuvda 3 tagacha o'yinchi almashtirish mumkin.

Barcha uchrashuvlar uchun.

Barcha uchrashuvlarda o'yin boshlanguniga qadar zaxira o'yinchilari ism-shariflari uchrashuv bayonnomasidagi ro'yxatga kiritilgan bo'lishi lozim. Uchrashuv bayonnomasidagi ro'yxatga kiritilmagan futbolchi o'yinda qatnasha olmaydi.

O'yinchi almashtirish xolati.

O'yinchi almashtirish uchun quyidagilarni bajarish zarur:

- bosh hakamni o'yinchi almashtirilishi to'g'risida ogoxlantirish zarur,
- zaxiradagi o'yinchi maydonga bosh hakam ruxsati va almashayotgan o'yinchi maydonni tark etgandagina tushishi mumkin,
- zaxiradagi o'yinchi maydonga tushgandan so'ng almashtirish xaqiqiy deb xisoblanadi,
- shu vaqtdan boshlab zaxira o'yinchisi asosiy tarkib o'yinchisi xisoblanmaydi,
- almashtirilgan o'yinchi ushbu o'yinda boshqa qatnasha olmaydi, hakam zaxiradagi barcha o'yinchilarga (maydonga tushgan tushmaganligining axamiyati yo'q) bir vaqtning o'zida ogoxlantirish ko'ristish xuquqiga ega.

Darvozabonni almashtirish.

Maydondagi xar qaysi o'yinchi darvozabon bilan vazifalarini almashishi mumkin, qachonki.

Uchrashuv bosh hakami oldindan ogoxlantirilgan bo'lsa, darvozabonni almashtirish faqat o'yin to'xtatilganda yuz berishi mumkin.

Qoida buzarlilar, jarimalar.

Zaxiradagi o'yinchi hakamning ruxsatisiz maydonga tushsa, unda:

O'yinni to'xtatish zarur, bosh hakam qoidabuzarni sariq kartochka bilan ogoxlantirib, o'yinchidan maydonni tark etishini talab qiladi. .

O'yin to'xtatilgan joydan «baxsli to'p» orqali davom etirilishi zarur.

Agar maydondagi o'yinchi bosh hakamni ogoxlantirmasdan darvozabon bilan almasha, unda:

Uchrashuvni to'xtatish zarur emas. To'p maydonni tark etgandan so'ng qoidani o'yinchini sariq kartochka bilan ogoxlantirish kerak.

Boshqa barcha 3-qoida buzilgan xollarda.

Qoidani buzgan o'yinchi sariq kartochka bilan ogoxlantirilishi zarur.

O'yinni davom ettirish.

Agar o'yinni bosh hakam faqat asosiy tarkib o'yinchisini o'gohlantirish uchun to'xtagan bo'lsa, unda:

O'yin raqib jamoa tomondan erkin to'p tepish orqali uchrashuvlar to'xtatilgan joydan davom ettiriladi.

Asosiy tarkibdagi va zaxiradagi o'yinchilarni maydondan chetlatish.

O'yin boshlanishiga qadar chetlatilgan o'yinchi o'rniga uchrashuv bayonnomasida qayd etilgan zaxira o'yinchisi maydonga tushishi mumkin.

Uchrashuv bayonnomasiga kiritilgan zaxira o'yinchisi uchrashuv boshida yoki oxirida maydondan chetlatilsa, uning o'rniga bayonnomaga boshqa zaxira o'yinchisini kiritish mumkin emas.

Xalqaro kengash qarori.

Qaror 1.

Agar hakamning nizomiga asosan «7 tadan kam o'yinchi bo'lsa, unda uchrashuvni boshlash mumkin emas» degan qoidaga amal qilinsa va 3-qoidaning qolgan barcha shartlariga amal qilingan olda o'yindagi jamoalar futbolchilarining minimal sonini milliy assosiatseyalar aniqlash xuquqiga ega.

Qaror 2.

O'yin davomida murabbiy yoki rasmiy shaxslar texnik maydon chegarasidan chiqmagan xolda maydondagi futbolchilarga taktik ko'rsatmalar berishi mumkin.

Izox: 1870 yili birinchi marta 11 o'yinchi maydonga chiqdi.

1933 yili birinchi marta 1-11 gacha o'yinchilar raqamda chiqishdi.

4 - QOIDA: O'yinchilar kiyimi (ekipirovka).

Xavfsizlik.

O'yinchi kiyimida o'ziga yoki bironvga xavf soladigan predmentlarni olishi yoki taqishi qattiqan man etiladi (bularga xar xil yuvelir buyumlar xam kiradi).

O'yinchining asosiy kiyimi:

Futbolka yoki ko'ylak,



150 – rasm.

Short (agar shortning ichida ichki kiyim bo'lsa, bu xam shortning rangida bo'lishi zarur)



151 – rasm.



152 - rasm
Getralar



**153 – rasm.
Ximoya vositlari (Shitki).**




**154 – rasm.
Oyoq kiyim**

Ximoya vositasi getra bilan to'liq berkitilgan bo'lishi, Rezina, plastmassa yoki shunga o'xshash xom-ashyodan tayyorlangan bo'lishi, Yuqori darajadagi ximoyani ta'minlash kerak.

Darvozabon kiyimi.





156 – rasm.

Darvozabon kiyimi rangi maydondagi o'yinchilardan, bosh hakam yordamchilari kiyimi rangidan ajralib turishi kerak.

Qoida buzarlklar, jarimalar.

Xar qanday 4- qoida buzilganda:

- O'yinni to'xtatish shart emas,
- Bosh hakam qoidani buzgan o'yinchiga kiyimi xaqida e'tiroz bildirishi,
- Agar qoidabuzar o'z kiyimini to'g'irlab olmagan bo'lsa, to'p maydonni tark etganda u o'z kiyimini to'g'irlash uchun maydonni tark etishi zarur,
- Kiyimni to'g'irlab olish uchun maydonni tark etgan o'yinchi faqat bosh hakam ruxsat bergandan so'nggina maydonga tushishi mumkin,
- Maydonga qaytishdan oldin hakam o'yinchining kiyimini ko'zdan kechirishi lozim,
- To'p maydondan chiqib ketgan vaqt kiyimini to'g'irlab olish uchun maydonni tark etgan o'yinchiga maydonga tushishga ruxsat beriladi.

Agar 4-qoidalar asosida maydondan chetlatilgan futbolchi bosh hakamning ruxsatisiz maydonga qaytsa, unda qoidabuzar karyiq kartochka bilan ogoxlantirilishi kerak.

O'yinni davom ettirish.

Agar o'yinni bosh hakam qoidabuzarni ogoxlantirish uchun to'xtatgan bo'lsa, unda:

O'yin raqib jamoa tamonidan erkin to'p tepish orqali uchrashuv to'xtatilgan joydan davom ettiriladi.

5 - QOIDA: Bosh hakam.

Xar bir o'yin futbol qonuni qoidalari asosida boshqarish uchun hakamlar tayinlanadi.



157 – rasm.

Xuquq va majburiyatlar.

Hakam:

Uchrashuvda qonun-qoidalarni nazorat qilish ;

Uchrashuvni yon hakamlar va 4-hakam bilan birgalikda nazorat qilish:

2 – qoida talablariga asosan to'pni nazorat qilish:

4 – qoida talablariga asosan o'yinchilarning kiyimlarini nazorat qilish:

Uchrashuvni qayd etib borish:

Xar qanday qoida buzarlklarda uchrashuvni to'xtatish, uzib qo'yish yoki butunlay to'xtatish o'yindagi bosh hakam qarashiga bog'liq:

- bosh hakam uchrashuvni xar qanday tashqi muxitning aralashuvida to'xtatish yoki butunlay tugatish mumkin:
- bosh hakam fikriga ko'ra maydondagi o'yinchi qattiq jaroxat olganda yoki o'yinchilarni maydondan evakuatsiya qilish zarur bo'lganda uchrashuvni vaqtinchalik yoki butunlay to'xtatish mumkin;

- bosh hakam fikriga ko'ra o'yinchi yengil jaroxat olganda to'p maydonda chiqib ketmaguncha uchrashuv davom ettiriladi;

- xar qanday o'yinchining jaroxatidan qon chiqsa, ushbu o'yinchini maydon tashqarisiga chiqishini taminlash xamda ushbu o'yinchi maydonga qaytayotganda qon oqishi to'xtaganiga ishonch xosil qilgandan so'nggina unga ruxsat berilishi;

- o'yin qoidasini buzgan jamoa darvozasi tamon xujum bo'layotgan bo'lsa o'yinni to'xtatish zarur emas, xujum tugagandan so'ng yoki to'p maydondan chiqqandan qoidabuzarni ogoxlantirish zarur;

- qoidabuzar yoki ogoxlantirilgan o'yinchi yana bir bor qoidani buzsa, o'yinchi shu xaxoti qattiq ogoxlantirish bilan jazolanishi kerak;

- agar uchrashuvda qoida buzilsa, hakam to'p maydonni tark etgandan so'ng qoidabuzarni albatta ogoxlashtirish zarur;

- jamoalardagi o'zini tuta olamyotgan rasmiy vakillarga nisbatan maydondan, xaxira o'rindig'idan chetlatilishi yoki ularga jazo qo'llashi mumkin;

- bosh hakam yo'l qo'yilgan qoidabuzarlikni ko'rmay qolgan vaziyatlarda uning yordamchisi yetkazgan ma'lumotlar asosida jazo qo'llashi mumkin;

- maydonga futbolchilardan boshqalarini tushirmaslikni nazorat qilish;

- o'yin to'xtatilganda davom ettirish;

- o'yin bayonnomasi(bayonnomaga uchrashuv atrofida, uchrashuv boshlanishiga qadar, uchrashuv davomida, uchrashuvdan so'ng bo'lib o'tgan barcha voqealarni yozma ravishda)ni to'ldirish va uchrashuv tashkilotchilariga taqdim etish zarur.

Hakam qarori.

Xar qanday o'yin xolatida faqat bosh hakam yakuniy qaror chiqara oladi.

Agar hakam yordamchilari bilan maslaxatlashib noto'g'ri qaror qabul qilinganini tan olsa, unda faqat o'yin to'xtatilgan vaziyatda o'z qarorini o'zgartirishi mumkin.

Xalqaro kengash qarori.

Qaror 1.

Hakam (shu bilan birga, vaziyatga qarab hakam yordamchilari yoki to'rtinchi hakam) quyidagi xolatlarda javobgarlikdan soqit qilinadi:

Jamoa futbolchilari, rasmiy vakillar yoki muxlislar tamonidan olingan xar qanday jaroxatlardan;

Xar kimning mulkiga zarar yetishidan;

Hakam tamonidan o'yin doirasida qabul qilingan xar qanday qaror natijasi xususiy shaxslar, klub, kompaniya, assosiatsiya yoki boshqa tashkilotlarda yuzaga kelgan boshqa yo'qotishlardagi javobgarliklardan.

Hakam quyidagi xolatlarda javobgar:

- maydon va unga qo'shimcha asbob – uskunalar borasidagi hakam qarori, ob-xavo sharoitida o'yin o'tqazishga to'sqinlik qilish – qilmasligi;

- ob – xavo sharoitidan kelib chiqib o'yinni bekor qilishda;

- maydonga qo'shimcha asbob- uskunalarining yaroqsizligi borasidagi hakam qarori, jumladan, darvoza ustunlari va to'sinlari, burchak bayroqlari shuningdek, to'plar talabga javob bermasa;

- muxlislarning maydonga tushib ketganda yoki muxlislar bilan bog'liq vaziyatlardagi o'yinni to'xtatish yoki to'xtatmaslik borasidagi hakam qarori;

- futbolchi jaroxat olgan vaqtda tibbiy yordam ko'rsatish uchun o'yinni to'xtatish yoki to'xtatmaslik borasidagi hakam qarori;

- futbolchi jaroxat olgan vaqtda tibbiy yordam ko'rsatish uchun uni maydondan tashqariga olib chiqish yoki chiqmasligi borasidagi hakam qarori;

- futbolchining o'zida yoki libosida bazi predmentlarni osishga ruxsat berish yoki bermaslik borasidagi hakam qarori;

- bazi shaxslarni, jumladan, jamoa raxbarlarini, maydon ishchilarini, qo'riqlash xizmati xodimlarini, fotomuxburlarni yoki boshqa ommaviy axborot vositalari vakillarini maydonning yaqiniga yo'latish yoki yo'latmaslik borasidagi hakam qarori;

- qolgan barcha qarorlarda, yani futbol qoidalariga yoki o'zining vazifasi doirasi asosida, fifa nizomlariga, qita

konfederatsiya, milliy assosiatziyalar va proffesional liga reglamentlariga asosan qabul qilingan qarorlarda hakam javobgardir.

Qaror 2.

Agar musobaqa yoki turnirlarning xar bir o'yiniga to'rtinchi hakam tayinlansa, unda uning xuquq va majburiyatlari Xalqaro kengash tamonidan tasdiqlangan instruksiyaga mos kelishi lozim.

Qaror 3.

O'yin bilan bog'liq bo'lgan faktlar, yani to'p darvozaga kiritilganmi yoki yo'qmi va o'yin natijasi.

Izox: 1880 yili birinchi marta futbol o'yinida hakam ishtirok eta boshladi. Ungacha futbol jamolarining sardorlari o'yin qoidalariga rioya qilinishini kuzatib turganlar.

6-QOIDA: Bosh hakam yordamchilari.

Majburiyatlar.



158 – rasm.

Xar bir uchrashuvga bosh hakamga ikkita yordamchi tayinlanadi va ular bosh hakamga quyidagi (bosh hakam bilan kelishgan holda) hollarda o'z bayroqchasini ko'targan holda signal beradi:

- to'p maydonni to'liq tark etganda;
- to'pni qaysi jamoa o'yinga kiritishi, burchakdan to'p tepishi, yon chiziqdan o'yinga kiritish;

- jamoa o'yinchisi o'yindan tashqari xolatda bo'lganda;
- o'yinchi almashtirish zarur bo'lganda;
- bosh hakam ko'rmagan vaqtda o'yin qoidasi buzilgan vaziyatlarda yordam beradi.

Yordamchilarning bosh hakamga yordamlari.

Uchrashuvni o'yin qoidalari asosida o'tishi uchun yordamchilar bosh hakamga yordam berishi zarur.

Agar hakam uning ishiga aralashishi yoki o'zini nomaqul tutsa, yordamchi hakamlikdan bosh tortishi mumkin va maxsus raportni uchrashuv tashkilotchilarga taqdim etishi shart.



159 – rasm.

Izo: 1891 yili birinchi marta hakam ikkita yordamchisi bilan maydonga chiqdi.

7 - QOIDA: Uchrashuvning davom etishi.

Agar baxslashayotgan jamoalar o'yinning davomiylik vaqtini kelishib olmagan bo'lsalar, xar bir o'yin 45 daqiqadan ikki bo'lim davom etishi zarur.

O'yin bo'limlari vaqtini (masalan, 40 daqiqadan, qorong'u tushib qolgan vaziyatlarda) o'zgartirishga kelishib olish, o'yin boshlanguncha amalga oshirilishi kerak. Bunday kelishuvlar faqat musobaqa reglamentida belgilangan xolatlardagina yuz berishi mumkin.

Bo'limlar orasidagi tanaffus.

O'yinchilar bo'limlar orasida tanaffusga chiqish xuquqiga ega.

Bo'limlar orasidagi tanaffus 15 minutdan ko'p bo'lmasligi zarur.

Bo'limlar orasidagi tanaffus musobaqa reglamentida belgilangan bo'lishi zarur.

Bo'limlar orasidagi tanaffus vaqtini faqatgina hakam bilan kelishgan xolda o'zgartirish mumkin.

Yo'qotilgan vaqtlar uchun qo'shimcha vaqt.



160 – rasm.

Xar bir bo'limga quyidagi xollarda yo'qotilgan vaqtlarga qo'shimcha vaqt qo'shish mumkin:

- o'yinchilar almashtirilganda;
- o'yinchi jiddiy jaroxat olgandagi vaqt uchun;
- jaroxat olgan o'yinchini maydon tashqarisiga tibbiy yordam ko'rsatish uchun olib chiqqan vaqt uchun;
- o'yin vaqtini ataylab cho'zganda;
- va boshqa sabablar uchun;

- yo'qotilgan vaqtga qo'shimcha vaqt faqat bosh hakam qo'shishi mumkin.

11-metrli jarima to'pi.

Bo'limning so'nggi daqiqalarida yoki qo'shimcha vaqtning oxirida belgilagan 11 metrli jarima to'pini bajarish uchun vaqt berilishi shart.

Qo'shimcha bo'limlar.

Musobaqa reglamentiga ko'ra kerakli vaziyatlarda qo'shimcha yana 2 ta bo'lim o'tgazilishi mumkin. Ushbu bo'limlarda 8- qoidaga rioya qilgan xolda o'tqazish ko'zda tutilgan.

To'xtatilgan uchrashuv

To'xtatilgan uchrashuv qaytatdan to'liq o'tkaziladi, agar musobaqa reglamentida boshqacha qaror qabul qilinmagan bo'lsa.

Izo: 1871 yildan uchrashuvlar 1.5 soat mobaynida o'tqazila boshlagan.

1883 yildan boshlab uchrashuv ikkita bo'limga bo'linib, o'sha 1.5 soat ikkiga bo'lingan (45 daqiqadan).

8 - QOIDA: Uchrashuv boshlanishi va o'yinni davom ettirish.

Uchrashuv boshlanishi arafasida.

Xar bir uchrashuv boshlanish arafasida ikki jamoa sardorlari orasida tanga orqali qura tashlanadi va qurada g'olib chiqqan sardor jamoa uchun (birinchi bo'limda) darvoza tanlash xuquqini qo'lga kiritadi.

Raqib jamoa esa o'yinni boshlab beradi.

Qurada g'olib chiqqan jamoa esa ikkinchi bo'limni boshlab beradi.



161 – rasm.

Ikkinchi bo'limda jamoalar o'z darvozalarini almashtirishadilar.

Boshlang'ich zarba.

Boshlang'ich zarba uchrashuv boshlanganlik yoki uni davom ettirishni anglatib, u quyidagi hollarda yuz beradi:

- uchrashuv boshlanishida,
- har bir urilgan goldan so'ng,
- ikkinchi bo'lim boshlanishida,
- agar qo'shimcha bo'limlar belgilangan bo'lsa, ushbu qo'shimcha bo'limlarning boshlanishida.
- boshlang'ich zarba orqali bevosita to'pni darvozaga kiritish mumkin.

Boshlang'ich zarbani amalga oshirish tartibi:

- ikkala jamoa ham o'zlarining yarim maydonida turishlari shart,
- boshlang'ich zarbani amalga oshirmayotgan jamoa o'yinchilari boshlang'ich zarba amalga oshmaguncha to'pdan 9,15m radius masofada uzoqlikda turishlari shart,
- to'p maydon markazida xarakatsiz holda turishi kerak,

- boshlang'ich zarba hakamning xushtagidan so'ng o'yinga kiritiladi,
- oyoq bilan to'pga zarba berilgandan so'ng to'p joyidan surilsa, to'p o'yinga kiritilgan deb hisoblanadi,
- boshlang'ich zarbani bergan o'yinchi to'pga boshqa jamoadoshi kelib tegmaguncha yana zarba berishi mumkin emas.

To'p darvozaga kiritilgandan so'ng, to'p o'tkazib yuborgan jamoa boshlang'ich zarbani amalga oshiradi.

Qoida buzarliklar, jarimalar.

Agar boshlang'ich zarbani bergan o'yinchi to'pga boshqa jamoadoshi kelib tekkunga qadar yana zarba bersa, unda:

O'yin raqib jamoa tomonidan erkin to'p tepish orqali qoida (ikkinchi zarba berilgan) buzilgan joydan davom ettiriladi.

Bundan boshqa barcha vaziyatlarda, boshlang'ich zarba kayta tepiladi:

Boshlang'ich zarba qaytariladi.

«Baxsli to'p».

«O'yin qoidalari»da ko'rsatilmagan hollar qoida buzilsa va uchrashuv vaqtinchalik to'xtatilsa, uchrashuvni «baxsli to'p» orqali davom ettirish kerak.

«Baxsli to'p» quyidagicha amalga oshiriladi:



162 – rasm.

Bosh hakam to'p tashab bergan holda uchrashuv to'xtatilgan joydan «baxsli to'p»ni amalga oshiradi

To'p erga tegishi bilan o'yin qayta boshlandi deb hisoblanadi.

Qoida buzarliliklar, jarimalar:

- to'p quyidagi xollarda qayta tashlanadi:
- agar biror jamoa o'yinchisi to'p yerga tushmasdan to'pga teginsa,
- to'p yerga tushgandan so'ng, hech kimga tegmay maydon tashqarisiga chiqib ketsa.

Eng muxim jixatlar quyidagicha.

Erkin yoki jarima to'pi ximoyalananayotgan jamoa foydasiga o'zining jarima maydoni ichida yuz bersa, o'yinni jarima maydonining xoxlagan nuqtasidan davom ettirish mumkin.

Agar erkin to'p hujum qilayotgan jamoaning foydasiga raqib darvozasi maydoni ichida ro'y bersa, o'yinni qoida buzilgan joyga eng yaqin darvoza maydoni chizig'idan o'yinga kiritish zarur.

Agar «baxsli to'p» ximoyalananayotgan jamoaning darvoza maydoni ichida tasodifiy sabab tufayli buzilsa, o'yinni qoida buzilgan joyga eng yaqin darvoza maydoni chizig'idan to'p qaytatdan tashlanadi.

9 - QOIDA: To'p o'yinda va o'yindan tashqari holatlarda.


To'pning o'yindan tashqari holatda bo'lishi:

- to'p quyidagi holatlarda o'yin holatida bo'ladi:
- to'p maydon chizig'ini yerda yoki xavoda to'liq kesib o'tsa;
- bosh hakam xushtagini chalib o'yinni to'xtaganda.

To'pning o'yinda bo'lishi.

Yuqoridagi holatlardan tashqari barcha vaziyatlarda to'p o'yindan tashqari holatda bo'ladi:

- darvoza ustuni, to'sini yoki maydon burchagidagi bayroqqa tegib maydonga qaytsa;
- bosh hakamga yoki uning yordamchilariga tegib maydonda qolsa.



163 – rasm.

10 - QOIDA: To'p darvoza to'ridaligini aniqlash usullari.

To'p darvoza to'rida.


To'p darvoza chizig'ini, to'sin osti va ustunlar orasini to'liq kesib o'tsa va to'p kiritgan jamoa o'yinchilari to'p kiritilgunga qadar hech qanday qoidani buzmagani xollarda to'p darvoza to'rida deb hisoblanadi.

G'olib jamoa.

Uchrashuv davomida ko'proq to'p kiritgan jamoa g'olib jamoa deb topiladi. Agar ikkala jamoa ham o'yin davomida bir xil to'p kiritsa yoki umuman to'p kirita olmasa o'yin durang deb hisoblanadi.

Musobaqa reglamenti.

Keyingi bosqichga bitta jamoa yo'l olishi kerak bo'lsa-yu, lekin uchrashuv durang bilan yakunlansa, unda Halqaro kengash tomonidan tasdiqlangan musobaqa reglamentiga ko'ra qo'shimcha bo'limlar yoki boshqa choralar ko'rilishi kerak.



164 – rasm.

Izox: 2014 yil Braziliyada o'tkazilgan jaxon chempionatida «Brazuka» to'piga maxsus chip o'rnatilib, to'pni darvoza to'ridaligini aniqlashda hakamni soatiga bevosita signal beriladi.

11 - QOIDA: «O'yindan tashqari» holat.

«O'yindan tashqari» holatni aniqlash

O'yinchining «o'yindan tashqari» holatda qolishi o'yin qoidalarini buzilishidir.

O'yinchi «o'yindan tashqari» holatda deb topiladi, agar:

O'yinchi raqib darvoza chizig'iga raqibning so'nggi o'yinchisidan yaqinroq holatda tursa, unda ushbu o'yinchi o'yindan tashqari holatda deb hisoblanadi.

O'yinchi «o'yindan tashqari» holatga tushmaydi, agar:

- o'z jamoasining yarimmaydonida bo'lsa,
- raqib jamoasining so'nggi o'yinchisi bilan bir xil darajada bo'lsa,
- raqib jamoasining so'nggi va so'nggisidan bitta oldin turgan o'yinchisi bilan bir xil darajada bo'lsa.

Qoidabuzarlik.

«O'yindan tashqari» holatda qolgan futbolchini hakamning fikriga ko'ra jamodoshlaridan bironta sherigi to'pga teginish vaqtida o'yinga aktiv tarzda halaqit qilsa, jazolash mumkin, ya'ni:

- to'p bilan harakat qilishda bevosita ishtirok etsa,
- raqib harakatlariga halaqit qilsa,
- o'zining egallab turgan pozitsiyasidan yaxshiroq vaziyatga chiqishga urinsa.



165 - rasm

Qoidabuzarlik yo'q.

«O'yindan tashqari» holatda qolgan o'yinchini jazolash kuzatilmaydi, agar u bevosita to'pni quyidagi holatlarda qabul qilib olsa:

- darvozadan erkin to'p tepilgandan so'ng,
- yon chiziqdan tashab berilganda,
- burchak to'pi tepilganda.

Qoidabuzarlik, jarimalar.

Har bir «o'yindan tashqari» holat bilan bog'liq qoidabuzarlikda hakam qoida buzilgan nuqtadan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilashi kerak.

Izox: 1866 yilda “o‘yindan tashqari holat” qoidasi yengillashtirildi. Endi raqiblar sirt chizig‘i bilan o‘zi o‘rtasida qarshi tomon o‘yinchilaridan uch kishi bo‘lsa, bu o‘yinchi “o‘yindan tashqari holat” da bo‘lmaydi.

12-QOIDA: Qoida buzilish holatlari va qoidaga zid xatti-harakatlar.

O‘yinchilar tomonidan qo‘llangan qoidaga zid va tartibsiz harakatlar quyidagicha jazolanadi:

Jarima to‘pi.

Uchrashuv hakamining fikriga ko‘ra, o‘yinchi raqibiga nisbatan qo‘pol va xavfli tarzda o‘ynab, quyidagi oltita holatlardan birini qo‘llagan vaziyatlarda raqib jamoa foydasiga jarima to‘pi belgilanadi:

- raqib o‘yinchiga oyog‘i bilan zarba berish yoki bunga harakat qilsa;
- raqib o‘yinchini chalib yiqitsa yoki bunga harakat qilsa;
- raqib o‘yinchi ustiga sakrab chiqib olsa;
- raqib o‘yinchiga nisbatan xavfli hujum uyushtirsa;
- raqib o‘yinchiga qo‘li bilan zarba bersa yoki bunga harakat qilsa;
- raqib o‘yinchini qo‘pol tarzda turtib muvozanatdan chiqarib yuborsa.

Shuningdek, o‘yinchi quyidagi 4 qoidabuzarlik holatidan biriga yo‘l qo‘ygan holatlarda raqib jamoa foydasiga jarima to‘pi belgilanadi:

- to‘p uchun kurasha turib, oldin raqib o‘yinchisi oyog‘iga tegib, keyin to‘pga o‘ynasa;
- raqib o‘yinchini qo‘llari yoki tanasi bilan ushlab qolsa;
- raqib o‘yinchiga qarata tupursa yoki bunga harakat qilsa;
- to‘pni atayin qo‘li bilan o‘ynasa (darvazabonlar o‘z jarima maydonchasi ichida qo‘llari bilan o‘ynashlari mumkin).

Jarima to‘pi maydonning o‘yin qoidasi buzilgan joyidan amalga oshiriladi.



166 - rasm

11-metrli jarima to'pi.

Agar o'yinchi, to'p qayerda ekanligidan qat'iy nazar (faqat o'yin holatida bo'lishi kerak) o'z jarima maydonchasi ichida yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoida buzilishlarning istalgan biriga yo'l qo'ysa, raqib jamoa foydasiga 11-metrlik jarima to'pi belgilanadi.

Erkin zarba.

Agar darvozabon o'z jarima maydonchasi ichida turgan holda quyidagi 4 qoida buzilishi hollarining biriga yo'l qo'ysa, raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi:

- to'pni qo'lidan chiqarib, hali to'pga xech kim teginmasdan turib yana to'pni qo'lga olsa;
- o'z jamoadoshi tomonidan atayin etkazib berilgan to'pni qo'llari bilan tegsa yoki egallab olsa;
- o'z jamoadoshi tomonidan bevosita yon chiziqdan yetkazib berilgan to'pni qo'llari bilan tegsa yoki egallab olsa;
- o'yinni cho'zishga qaratilgan taktik xatti-harakatlarni amalga oshirsa.

Shunindek, uchrashuv hakamining fikriga ko'ra, o'yinchi quyidagi qoida buzilishi holatlarining sodir bo'lishida aybdor deb topilsa, raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi:

- raqib o'yinchisiga nisbatan xavfli o'ynasa;
- raqib o'yinchisining harakatlanishiga xalaqit qilsa;

- raqib jamoa darvozabonining to'pni qo'li bilan o'yinga kiritishiga xalaqit qilsa;

- 12-qoidada ko'rsatib o'tilmagan boshqa qoida buzilish holatlari qayd etilganda, uchrashuv hakami o'yinchini ogoxlantirish (sariq kartochka) yoki o'yindan chetlashtirish (qizil kartochka) maqsadida o'yinni to'xtatsa.

Erkin zarba maydonning qoida buzilgan joyidan o'yinga kiritiladi.

Intizomiy jazolar.

Ogoxlantirish ko'rsatish bilan jazolanuvchi qoida buzilish holatlari.

Agar o'yinchi quyidagi 7 qoida buzilish holatlarining birini sodir etsa, hakam tomonidan sariq kartochka ko'rsatish orqali ogoxlantiriladi:

- sport qoidalariga xilof ravishda harakat qilsa;
- so'zlari yoki harakatlari orqali hakamning qaroriga norozilik bildirsa;

- o'yin qoidalarini doimiy ravishda buzsa;
- sun'iy ravishda o'yinni davom etishiga halaqit qilsa;
- burchak, jarima to'pi yoki erkin zarba amalga oshirilayotgan paytda masofaviy joylashishni buzsa;
- hakamning ruxsatisiz maydonga chiqsa yoki maydonga qaytsa;

- hakamni ruxsatisiz ongli ravishda maydonni tark etsa.

Maydondan chetlatish bilan jazolanuvchi qoida buzilish holatlari.

Agar o'yinchi quyidagi yettita qoida buzilish holatlarining birini sodir etsa, hakam tomonidan qizil kartochka ko'rsatish orqali ogoxlantiriladi:

- o'ta qo'pol va xavfli harakatni amalga oshirsa;
- o'zini juda betartib holda tutsa;
- raqib o'yinchisi yoxud boshqa kimsaga nisbatan tupursa;
- to'pni atayin qo'li bilan ushlab qolish orqali raqib jamoa o'yinchilarining to'pni darvozaga kiritishiga xalaqit qilsa (darvozabon o'z jarima maydonchasi ichida to'pni qo'li bilan o'ynashi bundan mustasno);

- erkin zarba, jarima to'pi yoki 11-metrlik jarima to'pi belgilash bilan jazolanuvchi qoida buzilishi holatini sodir etgan

holda zarba berish holatiga chiqayotgan raqib o'yinchisini to'xtatib qolsa;

- xaqoratli, odobsiz so'z va iboralarni ishlatlsa;
- bir o'yinda ikki marta sariq kartochka bilan ogoxlantirilsa.

Halqaro kengash qarori.

Qaror 1.

Agar darvozabon o'z jarima maydonchasi ichida qo'lidagi o'yin holatidan chiqmagan to'p bilan raqib jamoa o'yinchisiga zarba bersa yoki bunga harakat qilsa, uchrashuv hakami 11-metrlik jarima to'pi belgilashi kerak.

Qaror 2.

Ogoxlantirish yoki maydondan chetlatish bilan jazolanuvchi qoidabuzarlikka yo'l qo'ygan o'yinchi, qoidani qaerda (maydonda yoki maydon tashqarisida) va kimga nisbatan (raqib o'yinchiga, jamoadoshiga, bosh hakamga, yordamchi hakamlarga yoki boshqa shaxsga) nisbatan buzganligidan qat'iy nazar, o'yin Qoidalariga binoan jazolanishi kerak.

Qaror 3.

Darvozabon to'pni egallab oldi deb hisoblash uchun, u to'pga qo'lining istalgan qismi bilan to'pga tegib turgan vaziyatda bo'lishi kerak. Bundan tashqari, darvozabon o'zi tomon harakatlanayotgan to'pni oyoqlari bilan qisib olgan holatda ham to'pni darvozabon egallab oldi deb xisoblanadi. Lekin, hakamning fikriga ko'ra, to'p tasodifan darvozabonning qo'llaridan chiqib ketsa, masalan darvoza tomon yo'naltirilgan zarbani qaytarishda darvozabon to'pni qo'llarida ushlab qola bilmasa, darvozabon to'pni egallab oldi deb hisoblanmaydi.

Darvozabon to'pni 5-6 sekunddan uzoq vaqt davomida qo'llarida yoki tanasiga qisgan holda ushlab tursa, o'yin vaqtini cho'zganlikda ayblanadi.

Qaror 4.

12 – Qoidaning ko'rsatmalariga binoan o'yinchi to'pni boshi, ko'kragi, tizzasi va x.k. orqali o'z darvozaboniga etkazib berishi mumkin. Biroq, hakamning fikriga ko'ra, agar o'yinchi o'yin paytida ongli ravishda 12 – Qoidada belgilab qo'yilgan cheklovlarni oshib o'tishga harakat qilsa, u sport qoidalariga xilof ravishda harakat qilganlikda ayblanadi.

Bunday hollarda o'yinchi sariq kartochka ko'rsatish orqali ogohlantirilib, raqib jamoa foydasiga o'yin Qoidasi buzilgan joydan erkin zarba belgilanadi.

Jarima yoki erkin zarbani amalga oshirish vaqtida 12-qoidaga asosan cheklashlarni aylanib o'tish maqsadida akrobatik harakatlar amalga oshirilsa, o'yinchi hakam tomonidan sariq kartochka bilan ogohlantirishi va zarba qaytatdan ijro etilishi lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan holatda keyinchalik darvozabonning to'pga tegish yoki tegmasligi axamiyat kasb etmaydi. Chunki bunday hollarda o'yin Qoidasini darvozabon emas, balki o'yinchi buzgan deb topiladi, ya'ni u 12 – Qoidaga rioya kilmaganlikda ayblanadi.

Qaror 5.

To'pni orqadan raqib o'yinchiga jaroxat etkazish xavfi bilan egallab olish uchun harakat qilish qo'pol qoida buzilishi sifatida jazolanishi kerak.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan 5 – Qarorda, bunday qoida buzilishga yo'l qo'ygan o'yinchi 12 – Qoidaning 1-bandi, ya'ni «Maydondan chetlatish» bandiga asosan maydondan chetlatilishi (qizil kartochka) kerakligini anglatadi.

13 - QOIDA: Jarima to'pi va erkin zarba.

Rus va o'zbek tillaridan boshqa barcha tillarda ushbu zarbalar erkin (free kick), jarima zarbasi esa to'g'ri erkin zarba (direct free kick), erkin zarba esa to'g'ri bo'lmagan erkin zarba (indirect free kick) deb ataladi. Penalti (penalty-kick) 11 metr dan beriladigan jarima zarbasiga nisbatan ishlatiladi.

Maydonning turli nuqtalaridan beriladigan zarbalar turlari.

Maydonning u yoki bu nuqtasidan ijro etiladigan zarba erkin yoki jarima zarbasi bo'lishi mumkin.

Erkin yoxud jarima zarbasi ijro etilayotganda to'p harakatsiz holda bo'lishi shart. Zarba ijro etuvchi futbolchi to'p boshqa bir futbolchining oyog'iga tekkandan so'nggina to'pni tepishi mumkin.

Jarima zarbasi.

Agar jarima zarbasi ijro etilganidan so'ng to'p futbolchilardan hech biriga tegmasdan raqib darvozasi to'riga borib tushsa, "darvoza ishg'ol etilgan", deb hisoblanadi.

Agar jarima zarbasidan so'ng to'p futbolchilardan hech kimga tegmay, o'z darvozasiga borib tushsa, raqib komanda foydasiga burchak to'pi belgilanadi. (Ya'ni, AVTOGOL hisoblanmaydi!).



167 – rasm

ERKIN ZARBA

Majburiy ishora.

Erkin zarba berilishi oldidan hakam qo'lini boshi uzra ko'tarib, zarba berilgach, to'p o'yinchilardan biriga tekkuncha, yoki maydonni tark etguncha qo'lini tushirmaydi.

To'p darvozaga borib tushdi.

Erkin zarba yo'llangandan keyin faqatgina to'p o'yinchilardan biriga tegib, darvozaga borib tushgan holdagina gol inobatga olinadi.

Agar erkin zarbadan so'ng, to'p hech kimga tegmasdan raqib darvozasi to'riga borib tushsa, gol hisoblanmaydi va to'p darvoza maydonchasidan o'yinga kiritiladi.

Agar erkin zarba ijro etilgandan so'ng to'p hech bir o'yinchiga tegmasdan, o'z darvozasi to'riga borib tushsa, raqib komanda foydasiga burchak to'pi belgilanadi.

Maydonning turli nuqtalaridan zarba ijro etish.

Jarima maydoni ichidan jarima yoki erkin zarba ijro etish.

Erkin yoki jarima zarbasi ijro etilayotganda himoyalananayotgan jamoa o'yinchilari:

- to'pdan kamida 9,15 m masofada turishadi;
- to'p o'yinga kiritilgunga qadar, raqib jamoa o'yinchilari jarima maydoni tashqarisida turishi kerak;
- to'pga oyoq bilan zarba berilgach, hech bir o'yinchiga tegmasdan jarima maydonini tark etgan lahzadan boshlab, to'p o'yinga kiritilgan deb hisoblanadi;
- darvoza maydonchasi ichida qayd etilgan qoida buzilishi uchun belgilangan erkin yoki jarima zarbasi bu maydonchanning istalgan nuqtasidan amalga oshiriladi.

Hujum qilayotgan jamoa tomonidan erkin zarba ijro etilganda:

- raqib jamoa o'yinchilarining barchasi to'p o'yinga kiritilgunga qadar, to'pdan kamida 9,15 m masofda turishi kerak, bunda ular o'z jamoasi darvozasi ustunlari orasida darvoza chiziqlari ustida turishiga ham ruxsat etiladi;
- to'pga oyoq tegib joyidan siljishi bilan, to'p o'yinga kiritilgan deb hisoblanadi;

Darvoza maydonchasi ichida qayd etilgan qoida buzilishi uchun belgilangan erkin zarba, darvoza maydonchasini belgilab beruvchi, darvoza chizig'iga parallel chiziq ustidan, qoida buzilgan joyga maksimal yaqin nuqtadan ijro etiladi.

Jarima maydoni tashqarisidan erkin yoki jarima zarbasi ijro etish:

- raqib jamoaning barcha o'yinchilari to'p o'yinga kiritilgunga qadar, undan kamida 9,15 m masofda turishadi;
- to'pga oyoq tegib joyidan siljirilishi bilan, o'yinga kiritilgan hisoblanadi;
- erkin yoki jarima zarbasi qoida buzilgan nuqtadan ijro etiladi.

Qoida buzilishi, jazolar.

Agar erkin yoki jarima zarbasi ijro etilishidan avval raqib jamoa o'yinchilaridan biri to'pgacha belgilangan masofadan yaqinroq joylashgan bo'lsa:

- zarba qayta ijro etiladi.

Agar himoyalananayotgan jamoa o'yinchisi o'z jarima maydonchasi ichidan erkin yoki jarima zarbasi ijro etganda to'p o'yinga kirmasa:

- zarba qayta ijro etiladi.

Maydondagi o'yinchi tomonidan erkin yoki jarima zarbasi ijro etilishi.

To'p o'yinga kiritilgach, erkin yoki jarima zarbasini ijro etgan o'yinchi to'p boshqa o'yinchiga etib bormasdan yana to'pga tegsa (faqat qo'li bilan emas):

- raqib jamoa foydasiga qoida buzilgan joydan erkin zarba berishi belgilanadi (to'pga ikki marta tegish).*

Agar to'p o'yinga kiritilgandan so'ng erkin yoki jarima zarbasini ijro etgan o'yinchi to'p o'yinchilardan biriga borib tegmasdan avval to'pni qo'li bilan qasddan ushlasa:

- qoida buzilgan joydan raqib jamoa foydasiga jarima zarbasi belgilanadi; *

- agar qoida buzilishi zarbani ijro etgan o'yinchi jarima maydoni ichida yuz bergan bo'lsa, 11- metrlik jarima to'pi belgilanadi.

Darvozabon tomonidan ijro etilgan erkin yoki jarima zarbasi.

Agar to'p o'yinga kiritilgandan so'ng erkin yoki jarima zarbasini amalga oshirib bergan darvozabon to'p o'yinchilardan biriga borib tegmasdan o'zi ikkinchi bor to'pga tegsa (qo'li bilan emas):

- raqib jamoa foydasiga qoida buzilgan joydan erkin zarba belgilanadi (to'pga ikki marta tegish).*

Agar to'p o'yinga kiritilgandan so'ng erkin yoki jarima zarbasini ijro etgan darvozabon to'p o'yinchilardan biriga borib tushmasdan avval to'pni qo'li bilan qasddan ushlasa:


- agar qoida buzilishi jarima maydoni tashqarisida yuz bersa, qoida buzilgan joydan raqib jamoa foydasiga jarima to'pi belgilanadi;
- agar qoida buzilishi darvozabon jarima maydoni ichida yuz bergan bo'lsa, qoida buzilgan joydan raqib jamoa foydasiga erkin jarima to'pi belgilanadi.

14-QOIDA 11-metrlik jarima to'pi.

O'z jarima maydonchasi ichida 10 xil qoida buzilish holatlaridan biriga yo'l qo'ygan o'yinchi jamoasi, qoida buzgan jamoa darvozasi tomon 11-metrlik jarima to'pi bilan jazolanadi. Bunda to'p o'yin holatida bo'lishi kerak.

To'p bevosita 11-metrlik jarima to'pidan kiritilsa, gol xisoblanadi.

Taym yoki qo'shimcha vaqt so'nggida 11-metrlik jarima to'pi belgilansa, uchrashuvga ushbu jarima to'pi amalga oshirilishi uchun qo'shimcha vaqt qo'shilishi kerak.



168 – rasm.

To'pning o'rnatilishi va o'yinchilarning joylashishi. To'p:

- 11-metrlik nuqtaga o'rnatiladi.

11-metrlik jarima to'pini amalga oshiruvchi o'yinchi:

- sezilarli darajada aniqlangan bo'lishi va ajralib turishi kerak.

Ximoyalananayotgan jamoa darvozaboni:

- zarba berilgunga qadar darvoza to'sinlari orasidagi chiziq ustida zarba beradigan raqibiga yuzma-yuz holatda turishi kerak.

Jarima to'pini amalga oshiruvchi va himoyalananayotgan jamoa darvozabonidan tashqari qolgan barcha o'yinchilar:

- maydonda;
- himoyalananayotgan jamoa jarima maydonchasi tashqarisida;
- 11-metrlik jarima nuqtasi orqasida;
- 11-metrlik jarima nuqtasidan 9,15 metrdan kam bo'lmagan masofada joylashishlari kerak.

Hakam.

- barcha o'yinchilar 14-Qoidada ko'rsatilgan tartibda joylashmagunga qadar 11-metrlik jarima to'pini amalga oshirish uchun xushtak chalinmasligi kerak.

- 11-metrlik jarima to'pi amalga oshirilishi yakunlanganligi to'g'risida qaror qabul qilishi kerak.

Jarima to'pini amalga oshirish tartibi va yo'l-yo'riqlari:

- o'yinchi, jarima to'pini amalga oshirishda to'pni faqat oldinga yo'naltirishi kerak;

- u zarba bergandan so'ng, to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib, ikkinchi marta tegishga xaqqi yo'k;

- oyoq bilan zarba berilgandan so'ng to'p nuqtadan oldinga qarab siljisa, to'p o'yinga kirgan deb hisoblanadi.

11-metrlik jarima to'pi amalga oshirilgandan so'ng, uchrashuvning asosiy vaqti yoki jarima to'pini amalga oshirish uchun qo'shib berilgan vaqt davomida to'p darvoza to'sinlari orasidagi va darvoza ustuni ostidagi chiziqni to'liq kesib o'tsa, gol xisobga olinadi:

- to'p bir yoki bir necha marta darvoza to'sinlari, ustuni yoki darvozabonga tegib darvoza chizig'ini to'liq kesib o'tadi.

Qoida buzarlklar, jazolar.

Agar uchrashuv hakami 11-metrlik jarima to'pi belgilasa va to'p o'yinga kiritilgunga qadar quyidagi vaziyatlardan biri sodir etilganda qabul qilinishi kerak bo'lgan qarorlar:

11-metrlik jarima to'pini amalga oshiruvchi o'yinchi o'yin qoidasini buzsa:

- hakam jarima to'pi amalga oshirilishi natijasini kutib turadi;

- agar to'p darvozaga kiritilsa, zarba qaytadan amalga oshiriladi;

- agar to'p darvozaga kiritilmasa, zarba qayta amalga oshirilmaydi.

Himoyalananayotgan jamoa darvozaboni o'yin qoidasini buzsa:

- hakam jarima to'pi amalga oshirilishi natijasini kutib turadi;

- agar to'p darvozaga kiritilsa, gol xisobga olinadi;

- agar to'p darvozaga kiritilmasa, zarba qaytadan amalga oshiriladi.

Zarba beruvchi o'yinchining jamoadoshi jarima maydonchasi ichiga kirib olsa yoki darvoza chizig'iga 11 metrdan yaqinroq yoki 11-metrlik nuqtaga 9,15 metrdan yaqinroq masofaga joylashib olsa:

- hakam jarima to'pi tepilishiga ruxsat beradi;

- agar to'p darvozaga kiritilsa, zarba qaytadan amalga oshiriladi;

- agar to'p darvozaga kiritilmasa, zarba qayta amalga oshirilmaydi.

- agar to'p darvozabon, darvoza ustuni yoki to'sinlariga tegib maydonga qaytsa va ushbu o'yinchi to'pga tegsa, hakam o'yinni to'xtatadi va himoyalananayotgan jamoa foydasiga erkin zarba belgilaydi.

Ximoyalananayotgan jamoa darvozaboni jamoadoshi jarima maydonchasi ichiga kirib olsa yoki darvoza chizig'iga 11 metrdan yaqinroq yoki 11-metrlik nuqtaga 9,15 metrdan yaqinroq masofaga joylashib olsa:

- hakam jarima to'pi tepilishiga ruxsat beradi;

- agar to'p darvozaga kiritilsa, gol xisobga olinadi;
- agar to'p darvozaga kiritilmasa, zarba qaytadan amalga oshiriladi.

Ikkala jamoa o'yinchilari ham bir vaqtda o'yin qoidasini buzsa:

- zarba qaytadan amalga oshiriladi.

Agar, 11-metrlik jarima to'pi amalga oshirilgandan so'ng:

Jarima to'pini amalga oshirgan o'yinchi to'pga boshqa o'yinchi teginmasdan turib, ikkinchi marta tegsa (faqat qo'li bilan emas):

- o'yin qoidasi buzilgan joydan himoyalananayotgan jamoa foydasiga erkin zarba belgilanishi kerak (to'pga ikkinchi bor teginani sabali). *

Jarima to'pini amalga oshirgan o'yinchi to'pga boshqa o'yinchi teginmasdan turib, atayin to'pni qo'li bilan o'ynasa:

- o'yin qoidasi buzilgan joydan himoyalananayotgan jamoa foydasiga jarima to'pi belgilanishi kerak.

11-metrlik jarima to'pi amalga oshirilib, darvoza tomon yunaltirilgan to'p begona shaxsga tegsa:

- zarba qaytadan amalga oshiriladi.

11-metrlik jarima to'pi amalga oshirilgandan so'ng, to'p darvozabon, darvoza ustuni yoki to'sinlariga tegib maydonga qaytib begona shaxsga tegsa:

- hakam o'yinni to'xtatishi kerak;
 - to'p maydonning begona shaxsga tekkan joyidan «baxsli to'p» orqali o'yin davom ettiriladi.
-

Izox: 1891 yili birinchi marta 11 metrlik penalti belgilandi. Asoschisi Irlandiyalik mutaxassis Jon Mak Penalti.

15 - QOIDA: To'pni yon chiziqdan o'yinga kiritish.

To'pni yon chiziqdan o'yinga kiritish o'yinni davom ettirish usullaridan biri hisoblanadi.

Yon chiziqdan o'yinga kiritilgan to'p bevosita hech kimga tegmay darvoza chizig'ini kesib o'tsa, gol xisobga olinmaydi.

To'pni yon chiziqdan o'yinga kiritish:

- to'p yon chiziqni yerda yoki havoda to'liq kesib o'tgandan so'ng amalga oshiriladi;
- to'p aynan yon chiziqni kesib o'tgan joyidan o'yinga kiritish amalga oshiriladi;
- yon chiziqni kesib o'tishdan oldin oxirgi marta to'pga tegingan jamoa o'yinchisining raqiblaridan biri tomonidan amalga oshiriladi.

To'pni yon chiziqdan o'yinga kiritish tartibi va yo'l-yo'riqlari.



169 – rasm.

O'yinchi to'pni yon chiziqdan maydonga tashab berayotgan paytda quyidagi talablarni bajarishi kerak:

- maydonga yuzi bilan turishi kerak;
- ikkala oyog'i tovonlarini shunday holatda joylashtirishi kerakki, ularning hech bulmasa bir qismi yon chiziqning ustida, yoki 166 - maydonning tashqarisida turishi lozim;
- to'pni ikkala qo'li bilan o'yinga kiritishi kerak;
- to'pni boshidan oshirib sezilarli harakat bilan o'yinga kiritish kerak.

To'pni yon chiziqdan o'yinga kiritgan o'yinchi to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to'pga tegishga xaqqi yo'q.

To'p maydon ichiga kirishi bilan o'yin holatida deb xisoblanadi, ya'ni o'yin davom ettiriladi.

Qoida buzarlilar, jazolar.

Agar o'yinchi to'pni yon chiziqdan o'yinga kiritgandan so'ng, to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to'pga tegsa (faqat qo'li bilan emas):

o'yin qoidasi buzilgan joydan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanishi kerak. *

Agar o'yinchi to'pni yon chiziqdan o'yinga kiritgandan so'ng, to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to'pni atayin qo'li bilan o'ynasa:

- o'yin Qoidasi buzilgan joydan raqib jamoa foydasiga jarima to'pi belgilanishi kerak;

- agar o'yinchi o'z jarima maydonchasida to'pni qo'li bilan o'ynagan bo'lsa, 11-metrlik jarima to'pi belgilanishi kerak.

Darvozabon tomonidan to'pni yon chiziqdan tashlab berishda.

Agar darvozabon to'pni yon chiziqdan o'yinga kiritgandan so'ng, to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to'pga tegsa (fakat qo'li bilan emas):

- o'yin Qoidasi buzilgan joydan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanishi kerak.

Agar darvozabon to'pni yon chiziqdan o'yinga kiritgandan so'ng, to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to'pni atayin qo'li bilan o'ynasa:

- agar bu qoidabuzarlik o'z jarima maydonchasining tashqarisida yoki raqib jamoa jarima maydonchasida sodir etilgan bo'lsa, o'sha nuqtadan raqib jamoa foydasiga jarima to'pi belgilanadi; *

- agar bu qoidabuzarlik o'z jarima maydonchasida sodir etilgan bo'lsa o'sha nuqtadan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi. *

Agar yon chiziqdan to'pni o'yinga kiritayotgan o'yinchiga raqib o'yinchisi noxaqlik bilan, qoidaga xilof ravishda to'pni o'yinga kritishda xalaqit qilsa:

- bu qoidabuzarlik sport qoidalariga xilof ravishda harakat kilish deb topilib, qoida buzgan o'yinchi sariq kartochka ko'rsatish bilan ogoxlantirilishi kerak.

15 – Qoida shartlarining qolgan istalgan buzilish holatlarida:

yon chiziqdan to'pni o'yinga kiritish xuquqi raqib jamoaga beriladi .

Izox: 1873 yili AUT to'pni qo'lda o'yinga kiritish belgilangan.

16 - QOIDA: To'pni darvoza yonidan erkin zarba bilan o'yinga kiritish.

To'pni darvoza yonidan erkin zarba bilan o'yinga kiritish o'yinni davom ettirish usullaridan biri xisoblanadi.

Bevosita to'pni darvoza yonidan erkin zarba bilan o'yinga kiritish orqali darvozasiga kiritilgan to'p xisobga olinadi, faqat to'p raqib jamoa darvozasiga kiritilsa (o'z darvozasiga urilgan to'p xisobga olinmaydi).



170 – rasm.

Quyidagi holatlarda o'yin to'pni darvoza yonidan erkin zarba tepish bilan davom ettiriladi:

- to'p oxirgi marta hujum uyushtirayotgan jamoa o'yinchisiga tekkan holda, erda yoki xavoda chiziqni to'liq kesib o'tgan bo'lsa, bunda 10 – Qoida shartlariga muvofiq to'p darvozaga kiritilmagan bo'lishi kerak.

Amalga oshirish tartibi:

- zarba darvoza maydonchasining xoxlagan nuqtasiga urnatilib, himoyalananayotgan jamoaning istalgan o'yinchisi tomonidan amalga oshiriladi;

- raqib jamoaning barcha o'yinchilari jarima maydonchasining tashqarisida joylashishlari va to'p o'yinga kiritilmagunga qadar jarima maydonchasiga kirmasliklari kerak;

- zarbani amalga oshirgan o'yinchi to'pga boshqa o'yinchi teginmasdan turib ikkinchi marta to'pga tegishga haqqi yo'q;

- zarbadan so'ng to'p hech qaysi o'yinchiga tegmagan holda joyidan yurgan xaxoti to'p o'yinga kiritilgan deb xisoblanadi.

Qoida buzarlklar va jazolar.

Zarbadan so'ng to'p xech kimga tegmagan holda jarima maydonchasini tark etmasa:

- zarba qaytadan amalga oshiriladi.

Maydondagi o'yinchi tomonidan darvoza yonidan erkin zarba bilan to'pni o'yinga kiritishda.

Agar o'yinchi darvoza yonidan to'pni erkin zarba bilan o'yinga kiritgandan so'ng, to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to'pga tegsa(faqat qo'li bilan emas):

Qoida buzilgan, ya'ni o'yinchi ikkinchi marta to'pga tegingan nuqtadan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi.

Agar o'yinchi darvoza yonidan to'pni erkin zarba bilan o'yinga kiritgandan so'ng, to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to'pni atayin qo'li bilan o'ynasa:

- qoida buzilgan, ya'ni o'yinchi ikkinchi marta to'pga tegingan nuqtadan raqib jamoa foydasiga jarima to'pi belgilanadi;

- agar o'yin Qoidasi o'z jarima maydonchasi ichida sodir etilgan bo'lsa, raqib jamoa foydasiga 11-metrlik jarima to'pi belgilanadi.

Darvozabon tomonidan darvoza yonidan erkin zarba bilan to'pni o'yinga kiritishda.

Agar darvozabon darvoza yonidan to'pni erkin zarba bilan o'yinga kiritgandan so'ng, to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to'pga tegsa (faqat qo'li bilan emas):

Qoida buzilgan, ya'ni darvozabon ikkinchi marta to'pga tegingan nuqtadan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi.

Agar darvozabon darvoza yonidan to'pni erkin zarba bilan o'yinga kiritgandan so'ng, to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to'pni atayin qo'li bilan o'ynasa:

- agar o'yin Qoidasi o'z jarima maydonchasi tashkarisida sodir etilgan bo'lsa, o'sha nuqtadan raqib jamoa foydasiga jarima to'pi belgilanadi;

- agar o'yin Qoidasi o'z jarima maydonchasi ichida sodir etilgan bo'lsa, o'sha nuqtadan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi.

16 – QOIDA shartlarining qolgan istalgan buzilish holatlarida:

to'pni darvoza yonidan erkin zarba bilan o'yinga kiritish kaytadan amalga oshiriladi.

17 - QOIDA Burchak to'pi.

To'pni burchakdan o'yinga kiritish o'yinni davom ettirish usullaridan biri xisoblanadi.

Burchak to'pidan kiritilgan gol albatta hisobga olinadi, agar bu raqib darvozasiga kiritilsa.

Burchak to'plari quyidagi hollarda belgilanadi.

To'p darvoza chizig'idan erda yoki havoda to'liq kesib o'tgan bo'lsa va bu to'pga so'nggi bo'lib himoyalananayotgan futbolchi tekkan bo'lsa. Bundan oldin 10-qoidaga ko'ra to'p darvozaga kirmagan bo'lsa.

Agar burchak to'pini o'yinga kirituvchi futbolchi to'pga ikkinchi bor atayin qo'li bilan o'ynasa, unda:

- hakam tomonidan qoida buzilgan nuqtadan qarama-qarshi jamoa foydasiga jarima to'pi belgilanadi;
- agar himoyachi o'z jarima maydoni ichida qo'l bilan o'ynasa, hakam tomonidan 11-metrlik jarima to'pi belgilanadi.

Burchak to'pining darvozabon tomonidan kiritilishi.

Agar burchak to'pini o'yinga kirituvchi darvozabon to'pga ikkinchi bor teginib(lekin qo'l bilan emas, unda boshqacha jazo qo'llanadi) ketsa, unda:

- hakam tomonidan qoida (to'pga ketma-ket ikkinchi bor teginish) buzilgan nuqtadan qarama-qarshi jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi;

Agar burchak to'pini o'yinga kirituvchi darvozabon to'pga ikkinchi bor qo'li bilan atayin teginib ketsa, unda:

- darvozabonning o'z jarima moydoni tashqarisida bo'lsa, hakam tomonidan qoida buzilgan nuqtadan qarama-qarshi jamoa foydasiga jarima to'pi belgilanadi;
- darvozabonning o'z jarima moydoni ichida bo'lsa, hakam tomonidan qoida buzilgan nuqtadan qarama-qarshi jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi.

Burchak to'plarini kiritish vaqtida qolgan barcha 17-qoida buzilish xolatlarida.

Burchak to'pi qaytadan kiritiladi.

Izo: 1873 yili to'p himoyadagi o'yinchiga tegib, sirt chiziqdan maydon tashqarisiga chiqib ketganda burchakdan to'p tepish qoidasi kiritildi.

6.1.1. Var va gollarni aniqlash tizimi xaqida.

So'nggi yillardagi o'zgarishlar ko'plab tamoyillarni kengaytirdi 2016/17 yilgi Qoidalar nashrida e'lon qilingan va "Xaqqoniy o'yin!" strategiyasida ta'kidlanganlar, barcha darajalarda o'yin jozibadorligini oshirishga harakat qilgan.

2018 yil mart oyida (АГМ ИФАБ) (VAR) – hakamlar uchun video yordam tizimidan foydalanishni ma'qulladi. VARning joriy etilishi professional futbolda bir asr davomida yuz bergan eng

katta inqilob bo'ldi. Harakatlar va hissiyotlar o'yin oqimining uzluksizligini buzmasdan qaror qabul qilishda texnologiya yordam bera oladimi yoki yo'qligini tushunish uchun taxminay qadamlar qo'yilishidan oldin ko'p yillar davomida qizg'in bahs-munozaralar qilinganligini hisobga olsak, bu juda tez "inqilob" edi. Birinchi VAR ishlatilgan o'yin 2016 yil 12 avgustda AQShning Nyu-Jersi shtatida bo'lib o'tgan va xususan, 23 oy o'tgach, VAR Moskvada bo'lib o'tgan FIFA Jahon kubog'i-2018 finalida ishlatilgan. VAR hech qachon barcha nizolarni hal qilmaydi, chunki ko'plab qarorlar sub'ektivdir, ammo uni dunyoning yetakchi futbol davlatlarining aksariyati tomonidan qabul qilinishi futbolning VARGa ko'proq adolatli bo'lishiga va o'yinchilarning xatti-harakatlarini yaxshilashiga ishonishini namoyish etadi.

Gollarni aniqlash texnologiyasi (Goal line technology (GLT) - ГЛТ).

Sudyaning qarorini qo'llab-quvvatlash uchun GLT yordamida gol urilganligini aniqlash mumkin.

GLT ishlatilgan joyda, GLT uchun FIFA sifat dasturi tomonidan belgilangan xususiyatlariga va o'yin qoidalariga muvofiq, darvoza shaklini har xil modifikatsiyalashga ruxsat berilishi mumkin. GLT dan foydalanish musobaqa qoidalari bilan belgilanishi kerak.

GLT tamoyillari

GLT faqat darvoza chizig'ida, faqat gol urilgan yoki urilmaganligini aniqlash uchun ishlatiladi. Gol urilganligi haqidagi signal darhol va bir soniya ichida avtomatik ravishda faqat o'yin rasmiylari tomonidan tasdiqlanishi kerak (hakamning soati orqali tebranish va vizual signal yordamida).

GLT talablari va texnik xususiyatlari

Agar GLT musobaqada ishlatilsa, tashkilotchilari tizimni quyidagi standartlardan biriga muvofiq sertifikatlanganligini ta'minlashi shart:

- FIFA Quality PRO
- FIFA Quality
- IMS-INTERNATIONALMATCHSTANDARD

Mustaqil tekshiruv organi taqdim etilgan turli xil texnologik tizimlarning aniqligi va funkcionalligini test uchun

Qo'llanmasiga muvofiqliligini tasdiqlashi kerak. GLT uchun FIFAning sifatli dasturlari.

Agar texnologiya test uchun Qo'llanmasi bo'yicha ko'rsatmalarga muvofiq ishlamasa, hakam GLT tizimidan foydalanmasligi va tegishli organlarga hisobot berishi kerak. GLT tizimidan foydalaniladigan joyda, hakam belgilangan tartibda o'yin boshlanishidan oldin Test uchun qo'llanmada o'rnatilgan tartibda uning ishlashini tekshirishi kerak.

Tijorat reklamasi.

Haqiqiy yoki virtual har qanday tijorat reklamalarini maydonda, yerda zonada, darvoza to'rlari bilan chegaralangan joyda, texnik maydonda, hakamning video tomosha qilish zonasida (RRA-PPA) yoki chiziqlardan 1 m masofada joylashgan, maydon bilan chegaradosh chiziqlarda, jamoalarning maydonga kirgan paytidan boshlab va jamoalar birinchi taym tugaganidan keyin maydonga qaytganidan boshlab, o'yin oxirigacha, reklamalarni joylashtirishga ruxsat berilmaydi. Darvozalarda, to'rlarda, bayroq ustunlarida yoki ularning bayroqlarida reklama uzatilishiga yo'l qo'yilmaydi; va ularga qo'shimcha uskunalar (kameralar, mikrofonlar va boshqalar)ga birlashtirilishi mumkin emas.

Bundan tashqari, vertikal reklama kamida quyidagicha uzoqlikda bo'lishi kerak:

- yon chiziqlardan 1 m (1 yard).
- darvoza chizig'idan darvoza to'rining chuqurligi bir xil masofada.
- darvoza to'ridan 1 m (1 yard).

Logotiplar va emblemalar.

FIFA, konfederatsiyalar, milliy futbol assotsiatsiyalari, musobaqalar, klublar va boshqa tashkilotlarning vakillik logotiplari yoki emblemalarini ijrosi - uchrashuv paytida maydonda, darvoza to'rlari va ularni o'rab turgan maydonlarda, darvoza ustunlari va bayroq ustunlarida, taqiqlangan. Ular bayroq ustunlariga birlashtirilgan bayroqlarda ruxsat etiladi.

Hakamning videoyordamchilari (Video Assistant Referees (VARs) - VAR)

VAP ishlatilgan uchrashuvlarda video operatsiya xonasi va kamida bitta hakam videoni ko'rish maydoni jihozlangan bo'lishi kerak.

Video operatsiya xonasi (Video Operation Room (VOR) – VOR) Video operatsiya xonasi - bu videoyordamchi hakam ishlaydigan joy (VAR), video yordamchi hakam yordamchisi (assistant VAR (AVAR) - va videoni takrorlash operatori (replayoperator(RO)-PO). U stadionda, stadion yaqinida, yoki uzoqroq joyda joylashgan bo'lishi mumkin. Uchrashuv paytida faqat vakolatli shaxslar operatsiya xonasiga kirishlari yoki VAR, AVAP va RO bilan suhbatlashishlari mumkin.

Videoperatsiya xonasiga o'yinchi, zaxira o'yinchisi, almashtirilgan o'yinchi, yoki jamoaning rasmiy vakili kirsa, chetlatish bilan jazolanadi.

Sudyaning videoni ko'rish maydoni (Referee Review Area (RRA) VAP ishlatilgan uchrashuvlarda hakam "maydonda videoni ko'rishni" («on-field review» (OFR) bajaradigan kamida bitta PPA bo'lishi kerak.

PPA quyidagicha bo'lishi kerak:

- maydon tashqarisida ko'rinadigan joyda
- aniq belgilangan

PPA ga o'yinchi, zaxira o'yinchisi, almashtirilgan o'yinchi yoki jamoaning rasmiy vakili kirsa, ogohlantirish bilan jazolanadi.

6.2. Musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish. Musobaqa turlari.

Oldiga qo'yilgan vazifalarga qarab musobaqalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- **asosiy**
- **yordamchi**

Yagona sport tasnifi talablariga muvofiq tashkil etiladigan va natijalariga ko'ra sport tasnifi belgilanadigan hamda g'olib yoki chempion degan nom beriladigan musobaqalar, asosiy musobaqalarga kiradi.

Musobaqalarning asosiy turi – taqvim musobaqalar bo'lib, ular sport tadbirlarining yagona taqvim rejasi nazarda tuziladi va tasdiqlangan nizomga muvofiq ravishda o'tkaziladi.

Quyidagilar musobaqalarning asosiy turlariga kiradi:

- birinchilik yoki chempionatlar;
- kubok musobaqalari;
- saralash musobaqalari.

Birinchilik yoki chempionatlar – eng mas’uliyatli musobaqalar bo’lib, ularning natijalari bo’yicha g’olib jamoaga chempionlik nomi beriladi. Musobaqalarni tashkil etishning bu turi jamoalar kuchini oqilona baholashga, olib borilayotgan o’quv-tenirovka ishining sifatini taqqoslashga imkon beradi.

Kubok musobaqalari -juda ko’p jamoalarni jalb etish va g’olibni nisbatan qisqa muddatlarda aniqlash maqsadida o’tkaziladi. Kubok musobaqalari eng yaxshilarni izchillik bilan olish prinsipi bo’yicha o’tkaziladi.

Saralash musobaqalari -musobaqalarning keyingi bosqichida qatnashish uchun eng kuchli jamoalarni aniqlash maqsadida o’tkaziladi.

Musobaqalarni yordamchi turi- futbol sport turini ommalashishi va ushbu sport turiga qiziquvchilar sonini ortishiga xizmat qiladi.

Musobaqalarning yordamchi turlariga quyidagilar kiradi:

- nazorat uchrashuvlari;
- o’rtoqlik uchrashuvlari;
- namunali uchrashuvlar;
- qisqartirilgan musobaqalar.

Nazorat uchrashuvlari jamoalarni bo’lajak musobaqalarga tayyorlash va ularning tayyorgarligini tekshirish maqsadida o’tkaziladi.

1	•		•
2	•	•	
3		•	
4	•		
5			•
6	•		
7		•	
8	•		

O'rtoqlik uchrashuvlari o'quv-mashg'ulot maqsadlarida yoki an'anaviy musobaqalar planida o'tkaziladi.

Namunali uchrashuvlar futbolni ommalashtirishga va sport mahoratini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Qisqartirilgan musobaqalar bir necha soat mobaynida o'tkaziladi. Ular, odatda, bayram kunlariga va sport mavsumining ochilish yoki yopilish kunlariga rejalashtiriladi.

Bunday musobaqalarni o'tkazishda o'yin vaqti qisqartiriladi. Qisqartirilgan musobaqalarning dasturi faqat o'yin o'tkazishni emas, balki o'yinchilarning texnik yoki jismoniy tayorgarligiga doir musobaqalarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

6.2.1. O'yin tizimlari.

Amalda o'yinning uchta asosiy tizimi mavjud:

- bir yoki ikki mag'lubiyatdan so'ng chikib ketiladigan tizim
- davrali tizim
- aralash tizim (davrali xamda chiqib ketish tizimlari birlashmasi)

Bir yoki ikki mag'lubiyatdan so'ng chiqib ketiladigan tizim (olimpiyskiy).

O'yindan chiqib ketish bilan o'ynaladigan musobaqa tizimi, odatda, o'yinlar qisqa muddatda o'tkazilishi kerak bo'lganda va musobaqada qatnashuvchi jamoalar soni ko'p bo'lgan taqdirda qo'llaniladi. Respublika va shaxar kubogi o'yinlari odatda shu tizim bo'yicha o'tkaziladi. Mag'lubiyatga uchragan jamoa musobaqadan chiqib ketadi.

Bu tizim bo'yicha o'tkaziladigan o'yinlar tartibini aniqlashda avvalo musobakada qatnashish uchun talabnoma bergan jamoalar soniga mos setka tuzish zarur, shundan keyin qur'a tashlanadi. Jamoa o'zi tortib olgan raqamga muvofik tuzilgan setkaga yoziladi. Shunday qilib, bir-biri bilan o'ynaydigan jamoalar qur'a tashlash bilan aniqlanadi. Setka jamoalar soniga qarab tuziladi. Agar jamoalar soni 2 sonining darajasiga teng bo'lsa ($2^2=4$; $2^3=8$; xokazo), xamma jamoalar o'yinni birinchi davradan boshlaydilar.

Agar musobaqada katnashuvchi jamoalar soni 2^h ga teng bo'lmasa, u xolda setka ikkinchi davraga kelib 2^h ga teng

miqdorda jamoa qoladigan qilib tuzilishi kerak. Binobarin, jamoalarning bir qismi o'yinlarni ikkinchi davradan, bir qismi esa birinchi davradan boshlaydi.

O'yinni birinchi turdan boshlaydigan jamoalar sonini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$K_1 = (K_0 - 2^h) \cdot 2$$

bunda:

K₁-musobaqada birinchi turdan boshlab qatnashadigan jamoalar soni;

K₀-musobaqada qatnashuvchi jamoalarning umumiy soni;


2^h-musobaqada qatnashuvchi jamoalarning umumiy soniga eng yaqin bo'lgan kichik son;

8 jamoa uchun setka.

1-tur (1/4 final)	2-tur (1/2 final)	3-tur (final)	Golib

h-musobaqada qatnashuvchi jamoalarning umumiy soniga qarab tanlanadigan daraja ko'rsatkichi (butun son) (h=2,3,4,5 va xokazo).

Misol. Musobaqada 15 ta jamoa qatnashishi kerak, shu songa mos bo'lgan o'yinlar setkasini tuzish lozim.



173 - rasm.

15 soni 2 sonining darajasi emas, shu sababli ikkinchi turga kelib 2^hga teng sonli jamoalar qolishi uchun ma'lum miqdordagi jamoalar birinchi turda o'ynashi kerak.

Bu miqdordagi jamoalar yuqorida keltirilgan formula bo'yicha aniklanadi:

$$K_1 = (K_0 - 2^h) \cdot 2 = (15 - 2^3) \cdot 2 = (15 - 8) \cdot 2 = 7 \cdot 2 = 14 \quad K_1 = 14 \\ 15 - 14 = 1$$

Musobaqada qatnashuvchi jamoalar soni juft bo'lganda o'yinga ikkinchi turdan boshlab kirishadigan jamoalar setkasining yuqori va pastidan teng qilib taqsimlanadi.

Jamoalar soni toq bo'lganda setkaning pastida o'yinga ikkinchi turdan boshlab kirishadigan jamoalar soni bita ko'p bo'lishi lozim.

Mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketish bilan o'ynaladigan tizimning afzalligi shundaki, jamoalar soni ko'p bo'lishiga qaramay, g'olib qisqa muddatda aniqlanadi: masalan, 19 jamoa uchun atigi besh taqvim kuni talab etiladi.


Biroq bu tizimning jiddiy kamchiligi shundaki, bir-biri bilan o'ynaydigan jamoalar qur'a tashlash bilan aniqlanadi, bu esa musobaqaga tasodifiylik elementini kiritadi. Shu tufayli, bir necha kuchli jamoalar musobaqalardan finalgacha chiqib ketishi lozim bo'lib qoladi. Pirovardida ancha kuchsiz jamoa finalga yo'llanma oladi. Bunday xoll yuz bermasligi uchun, kuchli jamoalarni sun'iy ravishda bo'lib yuboriladi. Bu maqsadda qur'aga binoan setkasining turli tomonidan ularga raqam beriladi, keyin esa qolgan jamoalar uchun bo'sh raqamlarga qur'a tashlanadi.

Jamoalarning keyingi turlarda qaysi jamoa bilan uchrashishlarini bilmasliklari uchun mag'lubiyatdan keyin chiqib ketish bilan o'ynaladigan o'yin tizimining bir oz o'zgartirilgan turi qo'llaniladi: birinchi tur musobaqalaridan keyin qolgan jamoalar o'rtasidan yangidan qur'a tashlanadi va shu yo'sinda ikkinchi turda bir-biri bilan o'ynaydigan jamoalar aniqlanadi.

Ikki mag'lubiyatdan keyin chiqib ketish bilan o'ynaladigan o'yin sistemasi mag'lubiyatdan keyin chiqib ketish bilan o'ynaladigan o'yin tizimining bir turidir.

Ikki mag'lubiyatdan keyin chiqib ketish bilan o'ynaladigan tizimda qo'llaniladigan setka

1-tur 2 tur 3 tur 4 tur 5 tur 6-tur Golib



174 – rasm.

Davrali tizim.

Musobaqaning davrali tizimida har bir jamoa, agar musobaqa bir davrali o'tkazilsa, bir-biri bilan bir marta, agar musobaqa ikki davrali o'tkazilsa, ikki marta uchrashishi kerak. Uning bunday tizim yoki adolatli musobaqalashuvchilar kuchlari nisbatini ancha oqilona belgilashga va kuchli jamoani aniqlashga imkon beradi, bunda musobaqaning umumiy yakunidagi tasodifiylik elementi ma'lum darajada bartaraf qilinadi. Bu tizim bo'yicha musobaqalarni ikki davrali qilib o'tkazish eng to'g'ri hisoblanadi

Davrali tizimda musobaqa ishtirokchilarining barcha o'rinlari to'plangan ochkolar soniga qarab aniqlanadi. O'tkazilgan barcha o'yinlar natijasida eng ko'p ochko olgan jamoa (yoki jismoniy tarbiya kollektivi) g'olib hisoblanadi. Bir yoki bir necha jamoalarda ochkolar teng bo'lib qolganda, g'olibni aniqlash uchun musobaqa tartibida qandaydir qo'shimcha

ko'rsatkichlar yoki tadbirlar (masalan, shu jamoalar o'rtasida qo'shimcha o'yin yoki shu jamoalar o'rtasidagi avval o'ynalgan o'yin natijalari, yoki kiritilgan to'plar nisbati) nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

Davrli tizim buyicha bir davrali musobakalar utkazishda kerak bulgan vaktni aniklash uchun uyinlarning umumiy sonini bilish kerak.

Bu kuyidagi formula buyicha aniklanadi:

$$I = \frac{K(K-1)}{2}$$

bunda

I – o'yinlar soni,

K – musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar soni.

Masalan: **K = 10**

$$I = \frac{10(10-1)}{2} = 45$$

Turlar o'rtasidagi o'yinlar jadvalini tuzishda jamoalarning o'quv-trenirovka ishlarini o'tkazishda imkon beradigan darajada tanaffus bo'lishini nazarda tutish kerak.

Davrli tizim bo'yicha o'tkaziladigan o'yinlar taqvimini uch usul bilan tuzish mumkin.

Birinchi usul.

Musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar soniga qarab, jamoalarning umumiy soniga yaqin bo'lgan tok son olinadi va unga muvofiq ravishda vertikal chiziqlar o'tkaziladi. Masalan, 6 ta jamoa bo'lganda, unga (ya'ni 6 soniga) yaqin bo'lgan toq son 5 bo'ladi. Demak, besh vertikal chiziq o'tkazish zarur. Jamoalar soni 10 ta bo'lganda, unga yaqin toq son – 9, demak, to'qqizta vertikal chiziq chizilgan bo'lishi kerak va xokazo.

Vertikal chiziqlarning ostidan va ustidan, pastdan boshlab chapdan o'ngga qaratib jamoalar nomeri ketma-ket tartibda birinchidan musobaqada qatnashuvchi jamoalarning umumiy

soniga eng yaqin bo'lgan toq songacha, orada bir chiziq qoldirib yozib chiqiladi.

Bu raqamlar keyingi raqamlarni grafik tarzda yozish uchun dastlabki reja bo'lib hisoblanadi. Birinchi kun o'yinlar taqvimini tuzish uchun birinchi raqamdan boshlab vertikal chiziq atrofida, soat strelkasiga qarshi oshib boruvchi tartibda barcha ishtirok etuvchi nomerlar yozib chiqiladi. Qolgan o'yin kunlarining taqvimini tuzish uchun vertikal chiziqlar o'rtasidagi barcha nomerlar, avval ularning ostiga va ustiga qo'yilgan raqamlarni hisobga olgan holda, ilon izi qilib qo'yib chiqiladi. Shuni ham aytish kerakki, raqamlar birin-ketin vertikal chiziqlarning o'ng tomonidan ortib boruvchi tartibda takrorlanib yoziladi.

Shundan keyin ikkinchi va qolgan taqvim kunlarida kunlarda bellashuvchi jamoalarni aniqlash uchun har bir vertikal chiziqning chap tomoniga avvalgi taqvim kundagi barcha raqamlar o'zgarishsiz o'tkazilishi kerak.

2-jadval.

10 ta jamoa uchun o'yinlar taqvimini tuzish.

(10 ga eng yaqin bo'lgan kichik son-9)

6		7		8		9			
6	5	7 7	6	8 8	7 7	9 9	8 8	1 1	9
7	5	8 8	6	9 9	6 6	1 1	7 7	2 2	8
8	4 4	9 9		1 1	5 5	2 2	6 6	3 3	7
9	3 3	1 1	5 5	2 2	4 4	3 3	5 5	4 4	6
	2 2		4 4						
			3 3						
1		2		3		4		5	

Turlar bo'yicha o'yinlar

1 tur	2 tur	3 tur	4 tur	5 tur	6 tur	7 tur	8 tur	9 tur
1-10	10-6	2-10	10-7	3-10	10-8	4-10	10-9	5-10
2-9	1-2	3-1	2-3	4-2	3-4	5-3	4-5	6-4
3-8	9-3	4-9	1-4	5-1	2-5	6-2	3-6	7-3
4-7	8-4	5-8	9-5	6-9	1-6	7-1	2-7	8-2
5-6	7-5	6-7	8-6	7-8	9-7	8-9	1-8	9-1

9 ta jamoa uchun o'yinlar taqvimini tuzish.

	6		7		8		9		
6	5 5	7 7	6 6	8 8	7 7	9 9	8 8	1 1	9
7	4 4	8 8	5 5	9 9	6 6	1 1	7 7	2 2	8
8	3 3	9 9	4 4	1 1	5 5	2 2	6 6	3 3	7
9	2 2	1 1	3 3	2 2	4 4	3 3	5 5	4 4	6
1	2			3		4		5	

Turlar bo'yicha o'yinlar

1 tur	2 tur	3 tur	4 tur	5 tur	6 tur	7 tur	8 tur	9 tur
1-0	0-6	2-10	0-7	3-0	0-8	4-0	0-9	5-0
2-9	1-2	3-1	2-3	4-2	3-4	5-3	4-5	6-4
3-8	9-3	4-9	1-4	5-1	2-5	6-2	3-6	7-3
4-7	8-4	5-8	9-5	6-9	1-6	7-1	2-7	8-2
5-6	7-5	6-7	8-6	7-8	9-7	8-9	1-8	9-1

Xamma grafalar to'ldirib chiqilgandan keyin o'yinlarning taqvimi tuziladi. Buning uchun vertikal chiziqning ikki tomonida turuvchi raqamlar juft-juft qilib birlashtiriladi. Musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar soni toq bo'lsa, xar bir vertikal chiziqning ostida yoki ustida turuvchi raqamlar mazkur takvim kuni (shu turda) o'ynamaydigan jamoa ekanini ko'rsatadi.

Jamoalar soni juft bo'lganda (masalan, jamoalar soni 10 ta bo'lganda) ko'rsatilgan (vertikal chiziqning ostida yoki ustida) raqamlar (jamoalar) oxirgi raqam (o'ninchi) bilan o'ynaydilar.

Turlar bo'yicha o'yinlar jadvali bo'sh raqamli jamoalar (vertikal chiziq ostida yoki ustidagi raqamlar) bilan so'nggi raqamli jamoa o'yinini xisobga olgan xolda tuziladi.

Odatda tur jadvalida birinchi bo'lib kursatilgan jamoa maydon egasi xisoblanadi. Shuning uchun qur'aning oxirgi raqami (masalan musobaqada qatnashuvchi jamoalar 10 ta bo'lganda 10-raqam) xar bir turdan keyin o'rin almashib turadi. Qolgan bellashuvchi jamoalar vertikal chiziqning o'ng tomonida turuvchi raqamlar boshlab tuziladi.

Shunday qilib, bu usulda jamoalarning xar bir turda navbat bilan maydon almashishiga qat'iy rioya qilinadi.

Ikkinchi usul («qatorasiga»).

O'yinlar taqvimini o'yinda ishtirok etuvchi xamma jamoalarni bir qatorga juft-juft qilib yozish usuli bilan tuzishda maydonlar almashishining avvalgidek shartlari, ya'ni uchrashuv «egasi» xuquqi saqlanadi. Mazkur usulda jamoalarning juft soni olinadi (masalan, agar musobaqada 7 jamoa qatnasha, o'yinlar taqvimi 8 jamoaga tuziladi; agar 9 ta jamoada bo'lsa, 10 jamoaga tuziladi va xokazo)

8 ta jamoada bo'lganda birinchi taqvim kun quyidagi tartibda tuziladi: bir qatorda birinchi raqam oxirgi 8- raqam bilan, ikkinchi raqam oxirgi raqamdan oldingi 7-raqam bilan birlashtiriladi, ya'ni bir-biriga qarshi o'ynovchi jamoa aniqlanadi va xokazo. Shunda quyidagi jamoalar bellashadigan bo'lib chiqadi: 1-8, 2-7, 3-6, 4-5

3-jadval.

8 jamoa uchun o'yinlar taqvimini «qatorasiga» tuzish.

1-kun:	1-8	2-7	3-6	4-5
2-kun:	5-1	6-4	7-3	8-2
3-kun:	1-2	3-8	4-7	5-6
4-kun:	6-1	7-5	8-4	2-3
5-kun:	1-3	4-2	5-8	6-7
6-kun:	7-1	8-6	2-5	3-4
7-kun:	1-4	5-3	6-2	7-8

7 jamoa uchun o'yinlar taqvimini «qatorasiga» tuzish.

1-kun:	1-0	2-7	3-6	4-5
2-kun:	0-5	6-4	7-3	1-2
3-kun:	2-0	3-1	4-7	5-6
4-kun:	0-6	7-5	1-4	2-3
5-kun:	3-0	4-2	5-1	6-7
6-kun:	0-7	1-6	2-5	3-4
7-kun:	4-0	5-3	6-2	7-1

Keyingi taqvim kunlaridagi o'yinlar jadvalini tuzish dastlabki juftlikdagi 1-raqamni avvalgi taqvim kundagi chekka o'ng

tomondagi raqam bilan birlashtirishdan boshlanadi. Bunda maydonlar almashinishi uchun 1-raqam navbatma-navbat juftlikning gox o'ng, gox chap tomoniga qo'yiladi. Qolgan juftliklar (bir-biri bilan o'ynaydigan jamoalar) qolgan raqamlarni juft-juft qilib bir qatorga yozish bilan tuziladi, bunda birlashtirish o'ng tomondan boshlanadi. Shunday qilib, ikkinchi taqvim kuni quyidagi jamoalar bir-biri bilan bellashadi:

5-1, 6-4, 7-3, 8-2.

Ikkinchi va undan keyingi taqvim kunlarini tuzish uchun birinchi juftlikni 1-raqamdagi o'rniga boshqa raqamni (mazkur xolda 8-raqamni) qoldiriladi, keyingi juftlarni birlashtirish prinsipi avvalgidek bo'ladi.

Nazorat qatorida xosil bo'ladigan juftliklarni (birinchidan tashqari) birinchi taqvim kundagi juftliklar bilan to'g'ri kelishi barcha kunlar bo'yicha tuzilgan o'yinlar taqvimining to'g'riligini tasdiqlaydi. O'yinlar taqvimi ikki davrali bo'lganda barcha juftliklardagi raqamlar almashtiriladi. O'yinlar taqvimini tuzish va uni nazorat qilishning oddiyligi-bu usulning afzalligidir.

Uchinchi usul.

Bu usul avvalgi ikki usuldan ham oddiy: u musobaqa o'tkazish jarayonida maydonning almashinishi hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan taqdirda (musobaqalar bir joyda o'tkazilganda) qo'llaniladi.

Uchinchi usulga binoan o'yinlar taqvimi bevosita turlar bo'yicha tuziladi. Musobaqada qatnashuvchi jamoalar soniga mos bo'lgan raqamlar (jamoalar soni juft bo'lganda) birinchi raqamdan boshlab ikki ustuncha qilib yoziladi (butunda 1-raqam chap ustunchaning tepasidan boshlanadi). Shundan keyin ikkinchi raqamdan boshlab (bu raqam, ya'ni 2-raqam ikkinchi ustunchaga, birinchi raqamning qarshisiga yoziladi), ketma-ket tartibda soat strelkasi bo'ylab qolgan raqamlar qo'yib chiqiladi. Keyingi tur o'yinlarini tuzish uchun raqamlar soat strelkasiga qarshi yozib chiqiladi, birinchi raqam o'z o'rnida qoladi.

7 jamoa uchun turlar bo'yicha o'yinlarning taqsimlanishi.

1-tur	2-tur	3-tur	4-tur	5-tur	6-tur	7-tur
1-2	1-3	1-4	1-5	1-6	1-7	1-0
0-3	2-4	3-5	4-6	5-7	6-0	7-2
7-4	0-5	2-6	3-7	4-0	5-2	6-3
6-5	7-6	0-7	2-0	3-2	4-3	5-4

Agar musobaqada qatnashuvchi jamoalar soni toq bo'lsa, keyingi juft son o'rniga «nol» raqami qo'yiladi, qolganlari esa o'zgarishsiz qoladi. Taqvim bo'yicha «nol» raqami bilan o'ynashi kerak bo'lganlar mazkur turda o'ynamaydi.

8 jamoa uchun turlar bo'yicha o'yinlarning taqsimlanishi.

1-tur	2-tur	3-tur	4-tur	5-tur	6-tur	7-tur
1-2	1-3	1-4	1-5	1-6	1-7	1-8
8-3	2-4	3-5	4-6	5-7	6-8	7-2
7-4	8-5	2-6	3-7	4-8	5-2	6-3
6-5	7-6	8-7	2-8	3-2	4-3	5-4

Aralash tizim.

Aralash tizim futbol musobaqalarining ikki tizimi – davrali tizim va mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketiladigan tizimning kombinatsiyasidan iborat. Bu usulga binoan musobaqaning bir qismi mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketiladigan tizim bo'yicha, boshqasi esa davrali tizim bo'yicha o'tkaziladi. Ba'zan mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketiladigan tizim kichik guruxlarga bo'lingan jamoalar o'rtasidagi musobaqalarning dastlabki qismida qo'llaniladi, qolgan jamoalardan bitta kuchli jamoalar guruxi tashkil etiladi, bular musobaqalarning yakuniy qismida bir-birlari bilan davrali tizim bo'yicha uchrashadilar.

Mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketiladigan tizim bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarga xos bo'lgan tasodifiylik faktorini kamaytirish istagi musobaqa tashkilotchilarini musobaqa o'yinlarining tobora yangi tizimlarini izlashga majbur etadiki, bu tizimlar, odatda, aralash usullardan iborat bo'ladi.

Xilma-xil xalqaro musobaqalarda, jumladan jahon chempionatlari va olimpiada o'yinlarining final qismida keng qo'llanilgan o'yin tizimlari shu tariqa paydo bo'lgan.

Bu tizimga binoan musobaqada qatnashuvchi jamoalar guruxlarga bo'linadi. Masalan, musobaqada qatnashuvchi jamoalar soni 16 ta bo'lganda, ular har bir guruxda to'rttadan jamoa bo'lgan to'rt guruxga bo'lib yuboriladi. Guruxlardagi o'yinlar davrali tizim bo'yicha bir yoki ikki davrada o'tkaziladi. Jamoalarni qur'a tashlash bilan guruxlarga bo'lishni turli sharoitlarni hisobga olib o'tkazish mumkin. Bu sharoitlar oldindan Musobaqa nizomida ko'rsatib o'tiladi. Jamoalar qandaydir bir joyda yig'ilganda emas, balki turli guruxlar va xatto guruxga kiruvchi jamoalar territoriya jihatidan turli joylarda joylashtirilganda ham musobaqalarni bu tizim bilan o'tkazish mumkin. Guruxda birinchi yoki ikkinchi o'rinni egallagan jamoalar keyingi musobaqalarda ishtirok etishga yo'l qo'yiladi. Bu musobaqalar mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketish bilan o'ynaladigan tizim bo'yicha o'tkaziladi, lekin bunda birinchi ikki tur o'yinlarida bir guruxdagi jamoalar bir-birlari bilan uchrashmasliklari kerak, chunki ular dastlab o'zaro o'yin o'tkazganlar.

Quyida musobaqa o'tkazishning shunday sxemasi keltiriladi, bu sxema musobaqaning birinchi qismida ham, ikkinchi qismida ham jamoalarning qur'a tashlashidan oldin tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Yuqorida keltirilgan musobaqa tizimining avzalligi ravshan: bunda musobaqaning birinchi qismida mumkin bo'lgan tasodiflar iloji boricha yo'qotiladi va musobaqalar jamoalar soni anchagina ko'p bo'lganda ham nisbatan qisqa muddat ichida o'tkaziladi.

Ma'lumki, mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketish tizimi bo'yicha o'ynaladigan o'yinlarda yoki aralash tizimda o'tkazilayotgan musobaqada, garchi o'yin asosiy va qo'shimcha vaqtda durang bilan tugallansa ham, bir o'yinda yoxud bir necha o'yinda keyingi musobaqalarda qatnashish uchun g'olibni aniqlash zarur, albatta. Buni aniqlashning bir necha usuli bor. Ulardan birining, hozirgi vaqtda eng keng tarqalganining mohiyati shundan iboratki, jamoalar o'zaro ikki marta: o'z maydonida va raqib maydonida uchrashadilar.

Ochkolar soni teng bo'lgan taqdirda kiritilgan va o'tkazib yuborilgan to'plar nisbati e'tiborga olinadi, shu bilan birga raqib maydonida kiritilgan bir to'p ikkitaga hisoblanadi.

O'yinning oxiriga kelib (maazkur holda ikkinchi o'yinning oxiriga kelib) ochkolar va kiritilgan hamda o'tkazib yuborilgan to'plar nisbati teng bo'lib qolsa (to'plar nisbati nolga teng), g'olibni aniqlash uchun qo'shimcha 15 daqiqadan 2 taym vaqt beriladi. Agar qo'shimcha vaqtda ham jamoalardan hech biri g'alabaga erishmasa, g'olib jamoa 11 metrlik to'p tepish bilan aniqlanadi. Bu to'plarni har ikki jamoa o'yinchilari, o'yin tugashi bilanoq darvozabon qo'riqlab turgan darvozaga 11 metrlik penaltini navbatma-navbat amalga oshiradilar.

6.3. Musobaqa nizomi.

Musobaqa nizomi katta yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatdir. Unda asosiy tashkiliy va texnik shart-sharoitlar aniq bayon qilingan bo'ladi. Nizom o'quv-mashg'ulot ishlarining mazmunini belgilab beradi, chunki jamoalarning tashkiliy-uslubiy tayyorgarligi bo'lajak musobaqalarning xususiyatlarini hisobga olgan holda o'tkaziladi. Musobaqada qatnashuvchi jamoalarning tayyor-garlik ko'rish uchun etarli vaqtga ega bo'lishlari nazarda tutilib, nizom oldindan tasdiqlanishi va tarqatilishi kerak.

Bu nizom futbol Federatsiyasi yoki musobaqani o'tkazuvchi boshqa biror tashkilot tomonidan tasdiqlanadi.

Musobaqani o'tkazish davrida tasdiqlangan nizomdan chetga chiqishga yo'l qo'yilmaydi, aks holda mazkur musobaqani o'tkazayotgan tashkilotning obro'yiga putur etadi va keraksiz nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi, xolos.

Musobaqa nizomida quyidagi masalalar aks ettirilgan bo'lishi kerak:

1. O'tkazilayotgan musobaqaning maqsadi va vazifalari.
2. Musobaqani kim o'tkazishi (federatsiya, tashkiliy komitet va hokozalar).
3. Musobaqa o'tkazish muddatlari va shartlari.
4. Musobaqaga qo'yiladigan jamoalar soni va nomi, talabnomaga kiritiladigan qatnashchilarning maksimal miqdori.
5. Musobaqa o'tkaziladigan o'yin tizimi (davralari – bir yoki ikki davrali, mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketiladigan, aralash tizim).

6. Hisobga olish tizimi va jamoalarning hamda jismoniy tarbiya jamoalarining (natijalar klublar bo'yicha hisoblanganda) egallagan o'rinlarini aniqlash tartibi.

7. Musobaqalarning alohida shartlari (qanday hol-larda o'yinda qo'shimcha vaqt belgilanishi va uning davomiyligi, o'yin durang bilan tugallanganda yoki o'tka-zilgan musobaqa natijasida ochkolar soni teng bo'lganda. g'olibni aniqlash usullari, o'yin qoidalarida ko'rsatil-gandan tashqari nechta o'yinchi almashtirish mumkinligi va hokazolar).

8. Jamoalarni va musobaqa qatnashchilarini rasmiylashtirish tartibi, shakli, o'yinchilarga talabnomalar berish va qayta talabnoma berish muddati.

9. Musobaqalarni olib boradigan hakamlar jamoa-sining nomi.

10. O'tkazilgan o'yinga norozilik bildirish va uni ko'rib chiqish, shuningdek, o'yinchilarni maydondan chiqarib yuborish yoki ularni ogohlantirish bilan bog'liq bo'lgan intizom masalalarini qarab chiqish tartibi.

11. O'yinchilar intizomni buzganligi uchun jamoalar-ning javobgarligi hamda stadion va klublar ma'muriya-tining o'yin o'tkazish vaqtida tartib saqlanishi uchun javobgar bo'lishi.

12. Musobaqa o'tkaziladigan joylar va ularga qo'yi-ladigan talablar.

13. G'oliblarni mukofotlash hamda oxirgi o'rinlarni egallagan jamoaning yoki jamoalarning keyingi xuddi shunday musobaqada qatnashish shartlari.

Nazorat savollari:

1. O'yin qoidalarining asosiy maqsadi?
2. Futbol o'yinida nechta qoida mavjud?
3. Har bir qoidani mohiyatini tushuntiring?
4. Musobaqaning asosiy maqsadi?
5. Musobaqa turlari? Har biriga ta'rif bering?
6. Musobaqani o'tkazish asosiy tizimlari?
7. "Aylanma" tizim asosida kalendar o'yinlarni qanday usullar bilan tuzish mumkin? Misollar keltiring?
8. "Chiqib ketish" tizim asosida qanday kalendar o'yinlari tuzib chiqiladi?
9. Musobaqa Nizomi?

GLOSSARI

O'yinchi	player
darvoza / golkipер	goalkeeper
Himoyachi	back
yarimhimoyachi / xavbek	halfback
hujumchi / forward	forward
Markaziy hujumchi / sentrforward	centre forward
pleymeyker	playmaker
Asosiy tarkib o'yinchisi	a player in the team
Zahira o'yinchi	substitute
Maydon hakami / referi	referee
Bosh hakam	main referee
Yon hakam / laynsmen	linesman
Hushtak	whistle
O'yin boshlanishi	the kick off
birinchi taym	the first half
tanaffus	halftime
ikkinchi taym	the second half
Qo'shimcha vaqt	extra time
Final hushtagi	the finalwhistle
to'p	the ball
darvoza	the goal
ustun	the goal post
to'sin	the cross bar
Darvoza to'ri	the net
Maydon markazi	the centre spot
Markaz chizig'i	the centre line
Jarima maydoni	the penalty area
Darvoza maydonchasi	the 6 yard box
Bayroq	the flag
aut	out

To'p outda	the ball is out
To'p o'yinda	the ball is in play
O'yindan tao'qari holat / ofsayd	offside
gol	a goal
Gol urish	to score a goal
penalti	penalty kick
Jarima tepish	to take a free kick
Erkin zarba	indirect free kick
Jarima zarba	free kick
Darvoza zarbasi	a goalkick
Burchak zarbasi	a corner
Aut otish	to throw in
xisob	the score
g'alaba	victory
mag'lubiyat	a defeat
do'rang	a draw
Jarima maydonga to'pni ko'tarish	to bend the ball
taktika	tactics
trenirovka	training
Badan tarbiya	warming-up
Trenirovovka jarayoni	the training process
texnika	technique
Texnik malaka	technical skill
dribling	dribbling
fint	a dummy
To'pni olib qo'yish	a tackle
To'p uzatish / pas	a pass
O'yinda tezlikni oshirish	to speed up the game
O'yin tempini sekinlashtirish	to slow down the game
Qarshi hujumda o'ynash	to play counter attacking football
Ochiq o'yin o'ynash	to play open football

Xisobni saqlab qolish

to close the game down

Hujumda o'ynash

top lay attacking football

Himoyada o'ynash

top lay defensively

jamo'a

team

Murabbiy

coach

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 24-yanvardagi "O'zbekistonda Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni. Halq so'zi gazetasi.25- yanvar 19-son

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2018 yil 16 martdagi "Futbolni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3610-sonli qarori. Halq so'zi gazetasi.17 mart 53-son

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2019 yil 4 dekabrda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5887-sonli farmoni. Halq so'zi gazetasi.6-dekabr 252-son

4. Ibragimov M. Futbol madaniyati. T.: 2013 y 187 B.

5. Boliev A., Yunusov O. O'zbek futboli fidoyisi. T.: 2006 y 108 B.

6. Imomxo'jaev A. Maftuningman,futbol.T.: SHarq, 2004-176 b

7. Imomxo'jaev A. Futbol – quvonchim, dardim, fahrim.-T.: SHarq1996.-208b

8. Nurimov.R.I, Akramov R.A , Iseev SH.T , Davletmuratov S.R, " Futbol nazariyasi va uslubiyati" Darslik 2018 yil, Ilmiy texnika ahborot press nashriyoti, 159 bet.

9. Iseev SH.T umumiy takror ostida Sport pedagogik mahoratni oshirish darslik Ilmiy texnik ahborot press nashriyoti 2018 yil 7 bet.

10.Abidov SH.U. Yosh futbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonini tashkil qilish va rejalashtirish. Uslubiy tavsiyanoma. T., 2011

11.Artikov A.A., Alimjanov S.I., Shukurova SH.T. O'quv-uslubiy qo'llanma. T., 2014.

12.Акрамов Р.А. Талипджанов А.И. Подготовка футболистов высокой квалификации. Учебное пособие. Ташкент, 1994.

13.Нуримов Р.И. Футбол. Учебник. Под общ. ред.Тошкент, 2005.

14. Talipdjanov A.I. yukori malakali futbolchilar tayyorlashning zamonaviy tizimi. O'quv qo'llanma. Tashkent, 2012.

15. Yusupov N.M. Yukori malakali futbolchi kizlar tezlik-kuch tayyogaligining vosita va usullai. Uslubiy qo'llanma. T., 2011

16. Талипжанов А. Современная система подготовки высококвалифицированных футболистов. Учебное пособие, Ташкент, 2011.

17. Safarov V.A. Paxtakor match dlinoyu v 40 let. Toshkent, 1995-yk 22-25 betlar.

18. Aliev M.B. Usmonxo'jaev T.S. Sagdiev X.X. Sport o'yinlari futbo' Toshkent, "Ilm Ziyo", 2007-yil, 5-7 betlar.

19. Grindler K.G. Futbol. Moskva, 1989-yil.

20. Ibragimov M.B. Zamonaviy futbolda texnika va taktika. Buxcr: 2010-yil.

21. Lopachev Yu.N. Keling, to'p tepamiz. Toshkent, 1988-yil.

22. Mahkamjonov K.M. Salomov R.S. Sarkisyan R.S. Matomedc-vr M.X. Futbol o'yini texnikasi. Toshkent, 1999-yil, 10-45 betlar.

23. Жилкин А.И., Кузьмин В.С., Сидорчук Е.В. Легкая атлетика: учеб. пособие для студентов высш. пед. учеб. заведений. – М.: Академия, 2003. 464 с.

24. Соловьев, М.М. Мониторинг двигательной деятельности футбольных арбитров различной квалификации / М.М. Соловьев, А.В. Масленников // Лёгкая атлетика: сб. научно-методических трудов; НГУ им. П.Ф. Лесгафта, Санкт-Петербург. - СПб. :[б.и.], 2016. - С. 117-121.

25. Турбин Е.А. Выбор позиции и направления перемещения арбитрами в ходе игры / Е.А. Турбин // Теория и методика футбола. - 2004 г. - №2 - С. 14-18.

26. Футбольный арбитр Украины: Информационные материалы ФИФА, УСФА, ФФУ. - К.: ФФУ, 2004. - 198 с.

27. <https://www.sports.ru/tribuna/blogs/historylesson/890983.html>

28. <https://sites.google.com/site/histirovfootballsites/drevnii-futbol>

29. <http://www.manutd.ru/infocenter/show,6/63/>

30. www.fifa.com.online.ru

31. [www.afk.com.ru manutd](http://www.afk.com.ru/manutd)

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. FUTBOLNI RIVOJLANISHNING DASTLABKI BOSQIChLARI.....	6
1.1. Qadimgi futbol o'yini haqida ma'lumotlar	6
1.1.1. Rim futboli –garpastum.....	11
II BOB. YANGI DAVRDA FUTBOL O'YINI HAQIDA MA'LUMOTLAR.....	14
2.1. Zavmonaviy futbol paydo bo'lishi.....	14
2.2. Futboldagi birinchi bor joriy qilingan o'yin qoidalari.....	15
2.3. FIFAning tashkil topishi haqida ma'lumo.....	18
2.4. Olimpiada o'yinlarida futbol sport turini kiritilishi.....	21
2.5. Jahon chempionati o'yinlari haqida ma'lumot.....	23
III BOB. FUTBOL ANJOMLARI BO'YICHA TARIXIY MA'LUMOTLAR.....	26
3.1. Futbolchining shaxsiy ust-boshi.....	26
3.2. Futbol butsilari.....	40
3.3. Futbol qalqonchalari.....	49
3.4. Darvozabonlar kiyimi (futbolikasi).....	52
3.5. Darvozabon qo'lqopi.....	54
3.6. Futbol to'plari.....	57
3.7. Futbol hushtagi.....	68
IV BOB. O'ZBEKISTONDA FUTBOLNI RIVOJLANISHI.....	71
4.1. Yuraklarni zabt etgan o'yin.....	71
4.2. «Muskomanda».....	72
4.3. Yangilikning qanoti bor.....	75
4.4. Mustaqillik va o'zbek futboli.....	78
4.5. Xirosimadagi buyuk g'alaba.....	83
V BOB. FUTBOL VA HAKAMLIK HAQIDA.....	86
5.1. Penalti.....	86
5.2. Futbol haqida Rekordchilar.....	88
VI BOB. FUTBOL O'YINI QONUN QOIDALARI VA MUSOBAQALARNI TASHKIL ETISH.....	98
6.1. Dastlabki futbol o'yini qonun qoidalari.....	98
6.1.1. Var va gollarni aniqlash tizimi haqida	145
6.2. Musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish.....	148
6.2.1. O'yin tizimlari	150
6.3. Musobaqa nizomi	162
Foydalanilgan adabiyotlar.....	168

48000 85 m

**Qutlimuratov
Izzatbek Xushnudovich**

- O'zDJTSU "Futbol nazariyasi va
uslubiyati kafedrası p.f.b.f.d (PhD)
o'qituvchisi

**Sport pedagogik mahoratini oshirish (futbol)
(futbolning rivojlanish tarixi musobaqalarni tashkil
etish va o'tkazish. hakamlık qilish uslubiyati)**

O'quv qo'llanma

Bosishga ruxsat etildi 23.11.2021.

Qog'oz bichimi 60x80 1/16. Times garniturasi. Ofset bosma.
Ofset qog'ozı. Shartlı bosma tabog'i 5,3,. Hisob nashr varag'i 5,8,
Adadi 50 nusxa.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
111709 Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy

48000 80m

